

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**NAVOIY KON METALLURGIYA KOMBINATI**  
**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI**  
**KIMYO-METALLURGIYA FAKULTETI**  
**«Iqtisodiyot va menejment» kafedrası**

OLIV TA'LIMNING  
340000-«Biznes va boshqaruv» sohasi  
5340100 – «Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)»  
ta'lim yo'nalishi uchun

# **IQTISODIY GEOGRAFIYA**

**Amaliy mashg'ulotlar o'tish bo'yicha**  
**uslubiy qo'llanma**

**Iqtisodiy geografiya: Amaliy mashg'ulotlarni o'tish bo'yicha uslubiy qo'llanma / Shamsiddinova M.Sh., Baqoyev H.N. - Navoiy: NDKI, 2008. – 100 b.**

Ushbu uslubiy qo'llanma bakalavriatning 5340100 «Iqtisodiyot (tarmoqlar bo'yicha)» yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar tomonidan «Iqtisodiy geografiya va ekologiya» fanining «Iqtisodiy geografiya» bo'limidan amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish uchun ko'maklashadi.

Uslubiy qo'llanmada dunyo xo'jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti va dunyo sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti ularning joylashishi va rivojlanishi bayon etilgan. Unda O'zbekistonni jahon xo'jaligida tutgan o'rni mehnat resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish muammolarini hal qilish yo'llari ilmiy usullar orqali tahlil qilingan. Har bir mavzuda tayanch iboralar, adabiyotlar ro'yxati, xatto mavzular asosida tuzilgan aniq savollarga aniq javoblar to'plami berilgan.

«Iqtisodiy geografiya»dan amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi, ma'ruza mashg'ulotlariga moslashtirilgan bo'lib, talabalarning bilimlarini bir tizimga solish, ushbu fanni o'rganishni chuqurlashtirish, iqtisodiy geografiya fanidan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish imkonini beradi.

Navoiy davlat konchilik instituti o'quv-uslubiy kengashida nashr etishga tavsiya etilgan.

**Mas'ul muaharrir:**

I.f.d., prof. **Ulashev I.O.**

**Taqrizchilar:**

N.D.K.I. i.f.n. **Rahmatov B.B.**

«Iqtisodiyot va  
menejment» kafedrası  
dotsenti

N.D.P.I. g.f.n. **Raxmatov Yu.B.**

«Geografiya» kafedrası  
mudiri

## KIRISH

Ushbu uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ularga iqtisodiy geografiya fanidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi orqali, yaxshiroq ma'lumotga ega bo'lishlariga imkon yaratib beradi. Hozirga axbarotlashgan davrda, biz har-qanday hamkorlik qiladigan mamlakat haqida ma'lumot olishimizda, o'z-o'zidan geografiya fani kerak bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasida ko'pgina geografiya va iqtisodchi olim, professor, va ustozlarimizning ma'lumotlaridan ham foydalandik. Uslubiy qo'llanma iqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi mutaxassislar uchun tayyorlangan. Mamlakatimizda, malakali iqtisodchilar tayyorlashda iqtisodiy geografiya fani muhim o'rin tutadi. Talabalar bu fanni o'rganish jarayonida jahon va respublika xo'jaligining joylashish qonuniyatlarini bilib oladilar.

“Iqtisodiy geografiya” fanini o'qitish maqsadi talabalarga ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish qonuniyatlari, omillari va tamoyillarini, turli mamlakatlarning tabiiy-resurs salohiyati, aholisi, xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishi va joylashishi sohasidagi nazariy bilimlarni b'Yerish bilan bir qatorda, ushbu fanni o'qitishning vazifasi-turli mamlakatlar va mintaqalardagi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilib, xulosalar chiqariladigan iqtisodchi mutaxassislarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu amaliy mashg'ulotlar o'tish bo'yicha uslubiy qo'llanmada, yangi iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari va omillari, dunyo siyosiy xaritasi, dunyo xo'jaligini shakllanishi, rivojlanishi va joylanishi, ayrim rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy geografik tasnifi bayon etilgan. Uslubiy qo'llanmada mustaqil O'zbekistonning yangi iqtisodiy sharoitda rivojlanish xususiyatlari, tabiiy va mehnat resurslari, ulardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, uslubiy qo'llanmada, har bir mavzu bo'yicha talaba nafaqat o'z ustida ishlab, balki guruhda o'z fikrlarini bildirishi, muammoli savollar esa talabada mavzu matnidan kelib chiqib, kichik guruhlariga bo'linib, o'z fikrlarini bildirish imkoniga ega bo'ladilar. Aniq savollarga aniq javoblar esa talabalar dunyoqarashini kengaytirishga, testlar to'plami va uyga vazifa topshiriqlari talabalarni o'z ustilarida ishlashlari va izlanishlarini ta'minlab beradi.

Ushbu amaliy mashg'ulotlar to'plami haqidagi samimiy fikr va muloxazalaringiz uchun, oldindan o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Ushbu amaliy mashg'ulotlar to'plami O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining davlat ta'lim standartlari asosida tasdiqlangan “Iqtisodiy geografiya” fanidan namunaviy dastur (Toshkent – 2006 yil) asosida tayyorlandi.

**SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARINING NOMI,  
ULARNING MAZMUNI VA ULARGA AJRATILGAN  
SOATLAR HAJMI**

<b>№</b>	<b>Maruzalar mavzusining nomi</b>	<b>Mavzu savollari</b>	<b>Ajratilgan soat hajmi</b>
<b>1</b>	Iqtisodiy geografiya fanining predmeti, tadqiqot usullari va vazifalari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Iqtisodiy geografiya fanining predmeti va ob'ekti.</li> <li>2. Iqtisodiy geografiyaning ilmiy usullari.</li> <li>3. Iqtisodiy geografiya fanining maqsadi va vazifalari.</li> <li>4. Iqtisodiy geografiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.</li> <li>5. Iqtisodiy geografiyaning asosiy ilmiy kantseptsiyalari</li> </ol>	<b>2</b>
<b>2</b>	Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va tamoyillari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish (ICHKJ) va rivojlantirishning asosiy tamoyillari.</li> <li>2. ICHKJ omillarining roli va moxiyati.</li> <li>3. ICHKJ asosiy omillari.</li> </ol>	<b>2</b>
<b>3</b>	Hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi.</li> <li>2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishning xususiyatlari va asosiy bosqichlari.</li> <li>3. Dunyo mamlakatlari tipalogiyasi</li> </ol>	<b>2</b>
<b>4</b>	Dunyo aholisi geografiyasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dunyo aholisining joylashuvi.</li> <li>2. Aholining takror barpo bo'lishi.</li> <li>3. Dunyo aholisining irqiy va diniy tarkibi.</li> <li>4. Aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayoni.</li> <li>5. Mehnat resurslar va bandlik muammolari.</li> </ol>	<b>2</b>
<b>5</b>	Dunyo xo'jaligi geografiyasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Dunyo xo'jaligining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari.</li> <li>2. Halqaro mehnat taqsimoti, halqaro ixtisoslashuv iqtisodiy integratsiyasi, dunyo mamlakatlarining iqtisodiy guruxlari.</li> <li>3. Ilmiy texnik taraqqiyotning dunyo xo'jaligiga ta'siri. Mamlakatlardagi YaIM (yalpi ichki mahsulot) ko'rsatgichlari.</li> <li>4. Dunyo xo'jaligi tarmoqlar geografiyasi</li> </ol>	<b>2</b>
<b>6</b>	Ba'zi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. AQSHning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari.</li> <li>2. Davlat tuzumi.</li> <li>3. Aholisi, mehnat resurslari xamda ulardan foydalanish muammolari.</li> <li>4. Xo'jaligining umumiy tavsifi.</li> </ol>	<b>2</b>

7	MDH mamlakatlarining iqtisodiy-geografik tavsifi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Rossiyaning iqtisodiy-geografik tavsifi.</li> <li>2. Ukrainaning iqtisodiy-geografik tavsifi.</li> <li>3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy-geografik tavsifi.</li> <li>4. O'zbekistonning MDH mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari.</li> </ol>	2
8	O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rni va tabiiy resurslar salohiyati	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekistonning makro va mikro o'rniga baho.</li> <li>2. O'zbekiston - yangi mustaqil davlat.</li> <li>3. O'zbekiston jahon xo'jaligiga kirib borishi, jahon mamlakatlari bilan o'zaro teng va foydali aloqalarning rivojlanishi.</li> <li>4. O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi.</li> <li>5. O'zbekistonning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish</li> </ol>	2
9	O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari, ular bandligi muammolari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aholi ishlab chiqaruvchi kuch va istemolchi sifatida.</li> <li>2. Aholi dinamikasi.</li> <li>3. Aholining milliy, jinsiy, yosh va ijtimoiy tarkibi.</li> <li>4. Shahar va qishloq aholisi.</li> <li>5. Mehnat resurslari va ulardan oqilona foydalanish.</li> </ol>	2
10	O'zbekiston sanoati geografiyasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sanoatning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va geografik joylashish xususiyatlari.</li> <li>2. Yoqilg'i energetika majmui.</li> <li>3. Metallurgiya majmui.</li> <li>4. Yengil va oziq-ovqat majmui.</li> </ol>	2
11	O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qishloq xo'jaligining ahamiyati, uning yangi islohotlar sharoitida rivojlanish xususiyatlari.</li> <li>2. Qishloq xo'jaligining tarmoqlari geografiyasi. <ol style="list-style-type: none"> <li>a) Dehqonchilik tarmoqlari.</li> <li>b) Chorvachilik tarmoqlari.</li> </ol> </li> <li>3. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish, va oziq-ovqat muammosini hal etish yo'llari.</li> </ol>	2
12	O'zbekiston transporti, infrastruktura, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi.</li> <li>2. Temir yo'l va avtomobil transporti.</li> <li>3. Havo, suv va quvur transporti.</li> <li>4. Tashqi iqtisodiy aloqalari.</li> </ol>	2
13	O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va yirik tabiiy-iqtisodiy mintaqalari	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Iqtisodiy rayonlashtirish maqsadi.</li> <li>2. Iqtisodiy geografik rayonlarining asosiy ko'rsatkichlari.</li> <li>3. Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga tavsif.</li> </ol>	2
	<b>J a m i :</b>		<b>26 soat</b>

## 1-AMALIY MASHG'ULOT

### **“IQTISODIY GEOGRAFIYA” FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA TADQIQOT USULLARI (2 SOAT)**

#### **REJA:**

- 1. Iqtisodiy geografiya fanining predmeti va ob'yekti.**
- 2. Iqtisodiy geografiya fanining maqsadi va vazifalari.**
- 3. Iqtisodiy geografiyaning asosiy ilmiy kansepsiyalari va usullari.**
- 4. Iqtisodiy geografiyaning rivojlanish tarixi.**

**DARSNING MAQSADI:** Talabalarning iqtisodiy geografiya fanining ob'yekti va predmeti haqida, tayanch iboralar, test, savol-javoblari, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy–hududiy va iqtisodiy xaritasi, ko'rgazmali qurollar, fotosuratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari.

**TAYANCH IBORALAR:** Fan predmeti, ob'ekti, nazariy asoslari, ilmiy kontsepsiyalari, boshqa fanlar bilan aloqalari, ilmiy tadqiqot usullari, maqsadi, vazifalari.

### **“IQTISODIY GEOGRAFIYA” FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA TADQIQOT USULLARI**

#### **1. Iqtisodiy geografiya fanining predmeti**

Ishlab chiqarish kuchlarining butun dunyo, mamlakatlar, mintaqalar bo'yicha hududiy joylashishi va rivojlanishi muammolarini o'rganishdan iboratdir. Iqtisodiy geografiya hududiy ishlab chiqarish komplekslari (XICHK-TPK), iqtisodiy rayonlar, ayrim mamlakatlarni ham tadqiqot qiladi .

Umuman, **iqtisodiy geografiya** - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlarini, ishlab chiqarishni joylashish printsiplarini, hamda turli xo'jalik tarmoqarining joylashish omillarini butun dunyo bo'yicha ham, ayrim mamlakatlar bo'yicha ham o'rganadi. Ushbu fan ishlab chiqarishni joylashishi, ijtimoiy

mexnatning xududiy taqsimotidan tashqari, ayrim mamlakatlar ichki xo'jalik tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi va halqaro iqtisodiy munosabatlarning ayrim masalalariga ham to'xtalib o'tadi

## **2. Iqtisodiy geografiya fanining maqsadi va vazifalari.**

Iqtisodiy geografiyaning asosiy vazifasi xo'jalikni, axoli joylashuvi va tabiatdan foydalanishni oqilona xududiy tashkil etish hamda boshqaruvning geografik asoslari, bashoratlashning ilmiy nazariyasini ishlab chiqishdan iboratdir.

Iqtisodiy geografiyani iqtisodiyot oliygoxlarida o'qitilishining asosiy maqsadi-iqtisodchi talabalarning geografik tafakkurini kuchaytirish, Vatanimiz va undan tashqaridagi rivojlanishining o'ziga xos hozirgi bosqichini yanada chuqurroq anglash, dunyoni aniqroq tasavvur etishga yordam berishdir. Ishlab chiqarishning geografik muammolarini hal qilish borasida, "Iqtisodiy geografiya" halq xo'jaligi, uning tarmoqlarini strategik rejalashtirish uchun xo'jalik obektlarini maqsadga muvofiq joylashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning istiqbollari bashorat qilish bilan bog'liq bo'lgan qator muammolarni o'rganadi. Iqtisodiy geografiyada iqtisodiy geografik tadqiqotlarda mahalliy tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Bunday izlanishlar mamlakatimizni, qo'shni mamlakatlarni va butun dunyoni bilishda muximdir. Ular bo'lajak kon iqtisodchi mutaxassislar dunyoqarashining shakllanishida, umumiy bilim saviyasini oshirishda katta rol o'ynaydi.

## **3. Iqtisodiy geografiyaning asosiy ilmiy kontsepsiyalari va usullari**

**A) Iqtisodiy rivojlantirish kontsepsiyasi.** Biron bir mamlakat-iqtisodiy rayonlarning murakkab tizimi bo'lib, shakllanishi qonuniy tarzdadir.

**B) Xududiy ishlab chiqarish majmualari (TPK) kontsepsiyasi.** XIchM ishlab chiqarish korxonalarini axoli yashash joylarini chegaralangan hududda yoki iqtisodiy rayon yoki kichik rayon hududida o'zaro uyg'unlashuvidir.

**V) Energiya ishlab chiqarish sikllari kontsepsiyasi.** Bu sikl rayon barpo etuvchi qonuniyatlar siklidir.

### **G) Iqtisodiy geografik joylashuv kontsepsiyasi.**

Ushbu kontsepsiya quyidagilarga asoslanadi:

1. Iqtisodiy geografik o'rin-tarixiy kategoriya. U o'rganish ob'ekti (Rayon, shaxar, davlat)ning ichki rivojlanishi, hamda tashqi ob'ektdagi qator o'zgarishlar ta'sirida o'zgarishi mumkin.

2. Iqtisodiy geografik o'rni-mikro, mezo va makro o'ringa ega.

3. Iqtisodiy geografiyada ilmiy usullar. Iqtisodiy geografiya hududiy-ijtimoiy, iqtisodiy tizimlarni o'rganishda quyidagi usullardan foydalanadi

**Dasturiy-maqsadli usul.** Bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida juda muxim bo'lib, kechiktirib bo'lmaydigan va umum manfa'atlarni ko'zlagan majmuani ijtimoiy iqtisodiy muammolarni hal qilish dasturi va uni maqsadi bilan uzviy bog'liqdir.

**Tizimli tahlil usuli.** Usul bosqichma-bosqich printsiptiga asoslangan bo'lib xar qaysi hududiy tizimlar, ayniqsa ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, joylashish xususiyatlarini o'rganishni ma'lum maqsad va vazifalarini qamrab olgan.

**Balans usuli.** Iqtisodiy geografiyaning asosiy usullaridan biri bo'lib, ushbu usul yordamida regionlarni resurs va maxsulotga, ishchi kuchiga bo'lgan talabini aniqlash mumkin. Ayrim hududlarni o'zida ishlab chiqarilgan maxsulotlar bilan o'zini qondira olayotganligi yoki qondira olmayotganligi, zarur maxsulotlarni keltirish yoki olib ketish ko'lami darajasini baholash, shuningdek region xo'jalik kompleksi rivojlanishidagi nomutanosiblikni va uni bartaraf etishlarini yo'llari aniqlaydi.

**Kartografik usul.** Iqtisodiy geografiyaning maxsus usullaridan biri xisoblanadi. Karta bu bilim manbai va o'rganish ob'ektidir. Hududiy iqtisodiy geografik jarayonlar va ayrim mamlakatlar miqyosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish xususiyatlarini eng ko'rgazmali tarzda faqat geografik karta namoyon etishi mumkin, N.N.Baranskiy ta'biri bilan aytganda “karta-geografik tadqiqotlarning boshlanishi va tugallanishidir”. Karta-geografiyaning “ikkinchi tili” dir.

**Iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli.** Ushbu usul xo'jalikning rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish muammolarini bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy geografik tadqiqotlar jarayonida keng qullaniladi.

**Qiyosiy geografik usul.** Bu usul qator hududiy birliklarni matematik ko'rsatkichlar asosida bir-biri bilan taqqoslashdir. Bulardan tashqari iqtisodiy geografik bashoratlash va boshqa usullar ham mavjud.

#### **4. Iqtisodiy geografiyaning rivojlanish tarixi.**

Iqtisodiy geografiya fan sifatida 1200-1250 yil avval paydo bo'lgan. Eratosfenning (miloddan avvalgi 111 asr) “GEOGRAFIKA” asarining 3 qismida ayrim mamlakatlarning ta'rifi berilgan, bundan xulosa qiladigan bo'lsak, qadimdan insoniyat hududlarning joylashishi va tabiati qiziqtirgan.

O'rta asrlarda iqtisodiy geografik bilimlar Al-Xorazmiy (“Kitob Surat al-Az”), Beruniy “Xindiston”, Bobur “Boburnoma” va boshqa olimlarning asarlarida keltirib o'tilgan. Yevropada iqtisodiy geografiya fan sifatida 16 asrda shakillana boshlagan. Uning rivojlanishiga fransuz olimi J.Boden, italiya olimi L.Tvigerdi, golland olimi B. Varens muxim hissa qo'shdi.

“Iqtisodiy geografiya” ilmiy atamasini birinchi bo'lib fanga rus olimi M.V. Lamanosov 18 asrda olib kirgan. U iqtisodiy xaritashunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

19-asrning ikkinchi yarimida ayrim davlatlarda sanoat tez suratlar bilan rivojlanishi natijasida yirik geografik asarlar vjudga keldi. A.Gumbold sanoatning tabiatga tasiri masalalariga, K.Ritter esa tabiat va inson aloqalariga katta etibor bergan.



#### **TEZKOR SAVOLLAR:**

- 1) Iqtisodiy geografiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, tadqiqot usullari nimalarni belgilab beradi?
- 2) Ilmiy konsepsiya iqtisodiy geografiyaning muammolarini yecha oladimi?





**TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN  
SAVOLLAR:**

1. Iqtisodiy geografiya fani nimani o'rganadi ?
2. Iqtisodiy geografiya o'z tadqiqotlarida foydalanadigan ilmiy usullarini ta'riflang?
3. Fanning asosiy kontseptsiyalari mohiyati nimadan iborat.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarini tushuntirib bering?.



**ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR:**  
**ISBOTLANG!!!**

1-savol: Iqtisodiy geografiya ilmiy atamasini fanga birinchi bo'lib kim kiritgan?

Javob: M.V. Lomonosov

2-savol: Iqtisodiy geografiya fan sifatida qachon paydo bo'ldi?

Javob: 1200-1250 yil avval

3-savol: Iqtisodiy geografiyaning ilmiy kontseptsiyalari nechta va ular qaysilar?

Javob: 1. Iqtisodiy rivojlantirish kontseptsiyasi  
2. Hududiy ishlab chiqarish majmualari kontseptsiyasi  
3. Energiya ishlab chiqarish sikllari kontseptsiyasi

4-savol: Iqtisodiy geografiyaning ilmiy usublari nechta va ular qaysilar?

Javob: 1. Dasturli-maqsadli usul  
2. Tizimning tahlil usuli  
3. Balans usuli  
4. Kartografik usul  
5. Iqtisodiy –matematik madellashtirish usuli  
6. Qiyosiy geografik usul  
7. Iqtisodiy-geografik bashoratlash usuli

5-savol: Kim tabiiy sharoitning jamiyat rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan?

Javob: Lui Monteske

6-savol: Sanoatning tabiatga ta'siri masalalarini kim birinchi bo'lib o'rgangan?

Javob: A.Gumbold

7-savol: O'zbekistonda 1920-30 yillarda "Iqtisodiy geografiya" fanining rivojiga kimlar hissa qo'shgan?

Javob: Balashov, Arxangelskiy, Obidovlar.

8-savol: Iqtisodiy geografiya fani necha qismga bo'linadi?

Javob: 2 ga

9-savol: Ular qaysilar?

Javob: umumiy iqtisodiy geografiya va rayonlar iqtisodiy geografiyasiga.

10-savol: Iqtisodiy geografiya fani nimani o'rganadi?

Javob: Ishlab chiqarish kuchlarini butun dunyo, mamlakatlar mintaqalar bo'yicha hududiy joylashishi va rivojlanishini o'rganuvchi fandır.



### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI:

<p><b>1. Quyidagi fanlarning qaysi biri tarmoqlar geografiyasiga tegishli?</b></p> <p>A Tabiiy geografiya B Materiklar va okeanlar geografiyasi C Iqtisodiy geografiya D Sanoat geografiyasi E O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi</p>
<p><b>2. Quyidagi fan tarmoqlarining qaysi biri mintaqaviy iqtisodiy geografiyaga tegishli?</b></p> <p>A O'zbekiston geografiyasi B Rossiya iqtisodiy geografiyasi C Transport geografiyasi D Qishloq xo'jalik geografiyasi E Tabiiy resurslar geografiyasi</p>
<p><b>3. O'zbekiston qaysi yarim sharlarida va qaysi qit'ada joylashgan?</b></p> <p>A Shimoliy va G'arbiy Yevrosiyoda B Shimoliy va sharqiy Osiyoda C Sharqiy va G'arbiy Osiyoda D Shimoliy va Janubiy Osiyoda E Sharqiy va Janubiy Osiyoda</p>
<p><b>4. Kanadaning iqtisodiy geografik joylashishidagi qulaylik nimadan iborat?</b></p> <p>A Shimolda joylashganligi</p>

	<p><b>B</b> Katta qismining orollardan iboratligi</p> <p><b>C</b> Katta qismining muz bilan qoplanganligi</p> <p><b>D</b> AQShga qo'shniligi</p> <p><b>E</b> Iqlimining sovuqligi</p>
<b>5.</b>	<p><b>Kishilik jamiyati hayoti uchun zarur bo'lgan va xo'jalikda bevosita foydalaniladigan tabiat elementlari nima deb ataladi?</b></p> <p><b>A</b> Tabiiy resurs</p> <p><b>B</b> Tabiiy sharoit</p> <p><b>C</b> Tugaydigan resurslar</p> <p><b>D</b> O'simlik va hayvonot resurslari</p> <p><b>E</b> Mineral resurslar</p>
<b>6.</b>	<p><b>Ko'mir o'rniga qanday tabiiy resurslardan foydalanish mumkin?</b></p> <p><b>A</b> Shamol, tuproq</p> <p><b>B</b> Suv, gillar</p> <p><b>C</b> Suv, quyosh issiqligi</p> <p><b>D</b> yonuvchi slaneslar, granit</p> <p><b>E</b> Uran, marmar</p>
<b>7.</b>	<p><b>Quyidagi resurslarning qaysi biri tugamaydigan resurslarga kiradi?</b></p> <p><b>A</b> Quyosh energiyasi, mineral</p> <p><b>B</b> Shamol, tuproq</p> <p><b>C</b> Suv, geotermal</p> <p><b>D</b> O'simlik, mineral</p> <p><b>E</b> Quyosh energiyasi, shamol kuchi</p>
<b>8.</b>	<p><b>Ma'lum bir hududdagi kishilarning ijtimoiy etnik birligi nima deb ataladi?</b></p> <p><b>A</b> Qabila</p> <p><b>B</b> Elat</p> <p><b>C</b> Millat</p> <p><b>D</b> Xalq</p> <p><b>E</b> Aholi</p>
<b>9.</b>	<p><b>Sambolar quyidagi qaysi xalqlarning nikohidan hosil bo'ladi?</b></p> <p><b>A</b> Hindular-negrlar</p> <p><b>B</b> Hindular – yevropoidlar</p> <p><b>C</b> Yevropoidlar –hindular</p> <p><b>D</b> Yevropoidlar-negroidlar</p> <p><b>E</b> Ispanlar –mangaloidlar</p>
<b>10.</b>	<p><b>Manfiy migratsiya saldosi nima?</b></p> <p><b>A</b> Emigratsiyaning kamayishi</p> <p><b>B</b> Migratsiyaning kuchayishi</p> <p><b>C</b> Imigratsiyaning kamayishi</p> <p><b>D</b> Immigratsiyaning emigratsiyadan ustunligi</p> <p><b>E</b> Emigratsiyaning immigratsiyadan ustunligi</p>




### NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Qanday omil priborsozlik va elektronika sanoatini joylashtirishga kuchli ta'sir etadi?
2. Iqtisodiy geografiyaning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Iqtisodiy-geografik bashoratlash usuli nimalarni belgilab beradi?
4. Dasturli-maqsadli usul nimalarni belgilab beradi?
5. Geografiyadagi "Balans usuli" iqtisod fani bilan qanday aloqadorlikga ega?
6. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida tabiiy sharoitlar qanday ahamiyatga ega?
7. Iqtisodiy geografiya qanday fanlar tarkibiga kiradi?
8. Iqtisodiy geografiya fanining predmeti va obekti nimalardan iborat?
9. Iqtisodiy geografiyaning qanday fanlar bilan aloqadori bor?
10. Iqtisodiy geografiya fanining rivojlanish tarixini izohlang.



### UYGA VAZIFA:

- 1-topshiriq: "Iqtisodiy geografiya" ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 2-topshiriq: Daraxtsimon shajarada, iqtisodiy geografiyaning fanlar bilan aloqadorligini, sistematik ravishda ifodalang.
- 3-topshiriq: Iqtisodiy geografik kantsepsiyalarni, o'rganib, ularga misollar yozib keling.
- 4-topshiriq: Kartografik usuldan foydalanib o'z shahringiz xaritasini yozuvsiz xaritada ifodalang.



### Tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar:

1.[5], 112-125 b.; 2.[6], 65-23 b.; 3. [7], 34-56 b: 4. [10], 15-20b.

## 2-AMALIY MASHG'ULOT

### **IQTISODIY ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH SHAROITIDA ISHLAB CHIQUARISH KUCHLARINI JOYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI VA TAMOYILLARI (2) soat.**

#### **REJA:**

- 1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning asosiy qonuniyatlari.**
- 2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakillari.**
- 3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish asosiy omillari.**

**DARSNING MAQSADI:** talabalarning iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va tamoyillari, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, ko'rgazmali kitoblar, fotosuratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari.

**TAYANCH IBORALAR:** Ishlab chiqarish kuchlari tushunchasi, mazmuni va mohiyati, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari, tamoyillari, omillari, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar; geografik determenizm, tabiiy muhit, geografik muhit, ekologik omil, iqtisodiy mohiyat.

### **Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning omillari va tamoyillari.**

#### **1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning asosiy qonuniyatlari.**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish va bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona rivojlantirish va joylashtirish muhim ilmiy xulosalarga tayangan holda davlatning amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosatining asosini tashkil qiladi. Chunki, mavjud sharoitdagi ijtimoiy-iqtisodiy jaryonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish negizida, uning ob'yektiv qonuniyatlarini o'rganish va aniq xulosalar chiqarish

mumkin. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilishni takomillashtirish negizida samarali, barqaror rivojlanib boruvchi ishlab chiqarish tizimini yuzaga keltirish tom ma'noda tabiat va jamiyat qonun va qonuniyatlarining anglashni, ularni chuqur tahlil asosida ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish hamda amaliyotga qo'llashni taqozo qiladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning asosiy tamoyillari:

- ishlab chiqarish tizimlarini xom-ashyo manbalari, yoqilg'i va energo resurslar,
- iste'mol mintaqalariga yaqin joylashtirish;
- g'oyat yuqori samarali bo'lgan tabiiy resurslarni o'zlashtirish va majmuali
- foydalanish tizimini barpo qilish;
- mamlakat va mintaqalarda ekologik holatni sog'lomlashtirish, atrof-muhitni
- muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning samarali mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiatdan foydalanishning boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- xalqaro kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va qulay geostrategik
- mavqeidan samarali foydalanish asosida xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokini chuqurlashtirib, kengaytirib borish yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish;
- yirik shaharlarning haddan tashqari rivojlanishini tartibga solish, kichik va
- o'rta shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tabaqalanish jarayonini boshqarish, iqtisodiyot tarmoqlari dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etishdan iborat.

Qonun-tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarning (o'zaro aloqadorligini) barqaror takrorlanib turuvchi sabab-oqibat bog'lanishlarini ifodalasa, qonuniyat-voqea va hodisalarning ketma-ketligining barqarorligini va qonunlar majmuasini o'zaro uyg'unligini ifodalaydi.

**Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning dastlabki tamoyillari.** Ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish asosida yuqori foyda beruvchi samarali ishlab chiqarish tizimini rivojlantirish to'g'risidagi g'oyalar o'zining uzoq tarixiga ega. Sanoatlashgan ishlab chiqarish usulining qaror topishi bilan "shtandort" joylashtirish to'g'risidagi ta'limotlar ham yuzaga keldi. "shtandort" so'zi nemischa bo'lib, lug'aviy ma'nosi "joylashish" degan ma'noni bildiradi. I.Tyunen, A.Veber, T.Palander, A.Lesh va boshqalarning sanoatlashgan ishlab chiqarish tizimiga bag'ishlangan asarlari yuzaga kelishi bilan "shtandort" so'zi yangi mazmuni ifoda etdi hamda ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Dastlabki "shtandort" nazariyasi qishloq xo'jaligi "shtandorti" bo'lib, bu ta'limot 1826 yilda chiqqan I.Tyunenning "Alohida davlat uning qishloq xo'jaligi va milliy iqtisodiyotga munosabati" nomli kitobida yoritiladi. I.Tyunen qishloq xo'jaligini uch omil bo'yicha tadqiq qiladi bu omillar:

1. Ishlab chiqarish sarflari (ishlab chiqarish harajatlari);
  2. Tuproq unumdorligi (tuproqning tabiiy unumdorligi) va o'simliklar xususiyati;
  3. Bozor narxlariga nisbatan transport harajatlari;
- I.Tyunen bozor markaziga nisbatan qishloq xo'jaligining joylashtirilishi

qonuniyatini shu bozorga nisbatan ixtisoslashgan mintaqalardan (doiralardan) iborat bo'lishi lozim deb hisoblaydi.

Har bir qishloq xo'jaligi ekini bozorga nisbatan shunday joylashishi kerakki, bunda u mulk egasiga eng yuqori foyda berishi lozim. Shuningdek, I.Tyunen birinchi bo'lib ishlab chiqarishning joylashishini asoslashda matematik hisob-kitoblarni qo'llaydi. 1909 yil nemis iqtisodchisi va iqtisodiy-geogrifi A.Veberning "Sanoat shtandorti nazariyasi" nomli kitobi bosmadan chiqdi. Bu kitob 1926 yil "Sanoatni joylashtirish nazariyasi" nomi bilan rus tiliga tarjima qilinadi. A.Veber fikricha sanoatni joylashtirish uchta omil bilan yoki yo'nalish (orentatsiya) bilan harakterlanadi. Bu omillar:

1. Transport yo'nalishi-ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini transport harajatlari eng oz bo'lgan aholi qo'rg'onlarida qurishga intiladilar.

2. Ishchi yo'nalishi-ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini eng arzon ishchi kuchi mavjud aholi qo'rg'onlarida qurishga intiladilar.

3. Aglomeratsiya-ya'ni mulkdorlar o'z korxonalarini boshqa sanoat korxonalari to'plangan hududlarda qurishga harakat qiladilar va bu bilan transport yo'llari, energetika xo'jaligi, kommunal xo'jaligi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infrastrukturasi tizimi) barpo qilishga bo'lgan harajatlarini qisqartirishga harakat qiladilar.

A.Veber ta'limoti O.Englender va shved iqtisodiy-geografi T.Palander, V.Kristaller tomonidan XX-asrning 20-30 yillarida yanada rivojlantirildi. V.Kristaller tomonidan "Markaziy joy" nazariyasi ishlab chiqiladi u aholi qo'rg'onlarining joylashishini asoslaydi. Uning fikricha markaziy joyning (qo'rg'on) shakllanishi axolining ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishda katta rol o'ynaydi. Har bir axoli qo'rqoni o'zining markazida 6 burchakdan iborat bozor zonasiga ega bo'lishi lozim.

Shtandort nazariyasi rivojlanishiga nemis iqtisodiy geografi A.Lesh katta hissa qo'shdi. Uning asosiy "Xo'jalikning geografik joylashishi" nomli kitobi 1959 yilda rus tilida Moskvada bosib chiqarildi. A.Lesh monopol foyda, demping, soliq tizimi, davlat chegarasi, halqaro savdo, texnik progress va boshqa tushunchalarni moxiyatini ochib beradi. Uning kontseptsiyasiga ko'ra yangi korxonalarni joylashtirishda yuqori foyda olishni ko'zlagan tadbirkorlar bilan butun iqtisodiyot (mamlakat milliy iqtisodiy O.A) manfaatlari o'rtasida kurash ketadi. Shuningdek, A.Lesh iqtisodiy rayonlarga aloxida e'tibor beradi va rayon hosil qiluvchi asosiy omil ishlab chiqarish tizimi emas, balki tovarlarni bozorda sotish asosiy o'rin tutadi deb hisoblaydi. A.Lesh iqtisodiy rayonlarni uchta tipga ajratadi.

1) Oddiy rayonlar zonasi; 2) Rayonlar turi yoki tovarni sotish zonolari yig'indisi; 3) Rayonlar tizimi, bu shajarada eng yuqori va murakkab tip bo'lib, A.Lesh fikricha "Iqtisodiy landshaft"-bozor tizimi yoki bosh "Iqtisodiy landshaft"-bozor tizimi yoki bosh shaharning iqtisodiy ta'sir doirasidir. Umuman, yuqoridagi ta'limotlar bozor munosabatlari hukmron sharoitda yuqori foyda olishni ko'zlagan samarali ishlab chiqarish tizimlarini rivojlantirishning nazariy jixatdan asoslashga qaratilgandir. Rossiyada "shtandort" nazariyasining ashaddiy tarafdorlari prof. A.Ribnikov va prof A.Chayanovlardir. Ammo, bunday g'oya va qarashlar juda katta qarshilikka duch keldi va sotsialistik qurilish yillarida to'la inkor etildi.

XX asr 50-yillarining o'rtalaridan boshlangan ilmiy-texnika inqilobi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, hududiy tashkil qilishni takomillashtirishning

“klassik” nazariyalariga bir qator “tuzatishlar” kiritdi. Bunday tuzatishlar: a) sanoatning o'ta yangi tarmoqlari avvalo ilmiy tadqiqot va loyihalash-tajriba ishlari bilan chambarchas bog'liq “ilmtalab” sohalarning gurrakib rivojlanishi; b) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning sanoat asoslariga ko'chishi-agrosanoat majmuasining (agrobiznes) shakllanishi; v) infrastruktura sohasining milliy daromaddagi hissasining barqaror ortib borishi; g) ishlab chiqarish tizimini tobora transport-geografik o'ringa va xom-ashyoga bog'liqligining qisqarib borish jarayoni; d) ilmiy-tadqiqot ishlari va loyihalash-tajriba markazlari rolining ortib borishi; j) yuqori malakali mehnat hissasining tobora keng rol o'ynashi; z) ijtimoiy-ekologik omillar-ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va joylashishida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

## **2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakillari.**

Keyingi yillarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy tadbirlar majmuasi mintaqaviy rejalashtirish va mintaqaviy bashoratlash shaklida bo'lmoqda.

Iqtisodiy jixatdan qulay rayonlarda yirik ishlab chiqarish turlari-elektro energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil, oziq-ovqat sanoati majmualarini, ixtisoslashgan qishloq xo'jaligini joylashtirish butun mamlakat xo'jalik majmuasi uchun yuqori iqtisodiy samara beradi. Ayni vaqtda, iqtisodiy rayonlarda samarali ishlab chiqarish tizimining shakllanishi mavjud tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan majmualiy foydalanish, sanoat tarmoqlarining o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlanishini ta'minlash va sanoat majmualari, agrosanoat ishlab chiqarishi va infrastruktura tarmoqlarini barqaror rivojlanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolar yechimlarini hal qilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, iqtisodiy rayonlarni siyosiy-ma'muriy bo'linishlari doirasida ajratish ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga va samarali ishlab chiqarish tizimini shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Chunki, yaxlit tabiiy-iqtisodiy hududlarda tabiiy resurslarni turli siyosiy-ma'muriy birliklar doirasida bo'linib qolishi bu resurslardan oqilona foydalanishga imkon bermaydi. Mamlakatlarni tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik hamda iqtisodiy rayonlashtirish iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlantirish va boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Har bir iqtisodiy rayon uchun mintaqaviy siyosatni ishlab chiqarish va amalga oshirish imkonini beradi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakillari–mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya ayni paytda ijtimoiy va hududiy jixatlarga ega. Bunda ishlab chiqarishning hududiy tomoni yetakchi rol o'ynaydi shunga qaramasdan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bu jarayonlarni uyushtirgan holda o'rganish, tahlil qilish, biridan ikkinchisiga o'ta bilish geografik fikrlashning muhim xususiyatidir.

1. Mujassamlashuv-geografik jixatdan eng avvalo, moddiy sohaslar–sanoat, qishloq xo'jalik, transportda yaqqol namoyon bo'ladi.

2. Ixtisoslashuv-mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonning tarkib topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Uning uch bosqichi–korxonalar, shahar va tuman miqiyosidagi ixtisoslashuvi, shuningdek uch turi qism, texnologik yoki yarim mahsulot, tovar mahsulot ishlab chiqarishga bo'linadi.

3. Kooperatsiya - bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining hamkorligi bo'lib, bunda ularning tarmoq holda joylashuvi kuzatiladi. Bunda qatnashuvchi korxonalar soni vjudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq bo'ladi.



4. Kombinatsiya koorparatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Koorparatsiyada mahsulot bir bo'lsa kombinatsiyada esa aksincha, xom ashyo bir bo'lib, undan olingan mahsulot turlicha bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakillaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### **3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish asosiy omillari.**

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga (IChKJ)ga ta'sir etuvchi omillarning asosiylari quyidagilardir:

**Xom ashyo omili.** Tog'-kon va qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini joylashishida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek o'rmon, baliqchilik, metallurgiya, gidroliz, sellyuloza-kog'oz, mineral o'g'itlarini ishlab chiqarish ham juda ko'p xom-ashyo talab etadi. Bu tarmoqlarda 1t tayyor mahsulot olish uchun-2-6 t xom-ashyo sarflanadi.

**Yoqilgi omili.** Issiqlik elektr stantsiyasi, cho'yan Yeritish korxonalarini joylashtirishda muhim hisoblanadi.

**Elektr quvvati omili.** Omilning o'ziga xos xususiyati: Uni yig'ib, to'plab bo'lmaydi, undan o'sha zaxoti foydalanmoq zarur; uzoq masofalarga berilishi mumkin. Undan foydalanishda, ishlab-chiqarish hududiy tashkil etishda avallo uning eng arzon turiga e'tibor beriladi. Ushbu omil rangli metallurgiya, sintetik tola, kauchuk va boshqa tarmoqlar joylashuvida muhim hisoblanadi. Masalan: allyumin, natriy, magniy olish uchun 14-18 ming k.Vt. s, 1o nikel olish uchun 40, 1o. mis olish uchun 6, 1o. ferrosplav uchun 12 ming kVt. s elektr energiyasi zarur.

**Suv va iqlim omili.** Suv omili bilan bir xil kuchga ega bo'lib, qaysini ko'p el. kuvvati talab qiluvchilarning aksariyati ko'p suv talab hamdir. Suv manbalari ayniqsa, to'qimachilik, IES, metallurgiya korxonalarini faoliyati va joylashuviga kuchli ta'sir ko'rsatadi. suniy tola olish uchun 2600 m z, ip gazlama uchun 1260m z, Zmln.t cho'yan, 1mln. t. po'lat ishlab chiqarish metallurgiya korxonasi yiliga 240 mln.m z, 1200 mln. m z suv sarflasa: suniy kauchuk uchun 3000 t: nikel uchun 4000 t dan ortiq suv sarflanadi. 1ga kG`x da foydalangan yerni sug'orish uchun yiliga 8-10 ming m suv sarflanadi. Bug'doy yetishtirishga 1500t, 1t.sholi uchun 4000 va 1t paxta uchun 10000 t suv sarf bo'ladi. Suv va iqlim omili, ayniqsa qishloq xo'jaligi uchun muhimdir. Qurg'oqchilik iqlimda suniy sug'orish, xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi aholi joylashuvini belgilasa, 2 tomondan ma'lum hududi mehnat resurslarining mavjudligi ishlab chiqarish joylashida muhim omil hisoblanadi. Har bir ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchiga bog'liq. Ishlab chiqarishni joylashtirishda ishchilar soni to'qimachilik fabrika, konserva zavodi, paxta yetishtirish, qayta ishlash va x.k va malakasi soatsozlik, radiozlektrotexnika va b. muhimdir. Ikkinchi yo'nalishdagilar ko'pincha malakali ishchi kuchi mavjud, ilmiy-texnika markazlarda joylashadi. Demografik holat O'zbekiston Respublikasida ancha qulay, tadbirkorlar ko'payishi yuqori. Kichik shahar va qishloqlarda ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan joylarda ishlab chiqarishni joylashtirishda inobatga olinishi lozim.

**Iste'molchi omili.** Ushbu omil oziq-ovqat korxonalarini o'ziga "tortadi" Iste'mol omili hududning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, qaysi hudud nimaga ixtisoslashgan bo'lsa, shunga mos mashinasozlik tarmog'i shu erda rivojlanish maqulligini ko'rsatadi. Masalan: O'zbekistonda paxta teruvchi, Ukraina

kanvdlavlagi, Shimoliy Kavkazda-g'alla, Kavkazda choy teruvchi mashinalar ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir.

**Transport omili.** Bu omilsiz xom-ashyo, tayyor mahsulot ham joyidan jilmaydi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi. Qamchiq davonidan o'tuvchi yo'lining qurilishi Uchquduq-Nukus, G'uzor-Boysun-Uchqurg'on va boshqa yo'llarning qurilishi transportning rivojlanishiga va ishlab chiqarishni joylashishi hamda rivojlanishiga muhim turtki bo'ladi.

**Ilmiy texnika revolyutsiyasi omili.** ITR yutuqlari hayotda joriy etilishi xalq xo'jaligining hududiy proporsiyasining shaklanishi va xalqaro va hududiy mehnat taqsimotiga katta ta'sir ko'rsatadi. IChKJ va rivojlanishiga ta'siri quyidagicha:

a) Ishlab-chiqarishda yangi texnologiyani qo'llash xom-ashyoni kompleks qayta ishlash, qator manbalar yangi ashyolar bilan almashtirish ishlab-chiqarishda texnik-iqtisodiy o'zgarishlar kam suv, va xom ashyo talab keltirib chiqaradi:

b) Yangi tarmoq va ilm talab ishlab-chiqarish IChKJ da yangi siljishlarni keltirib chiqarmoqda:

c) Xom ashyo, energetika va tayyor mahsulotlar tashish tizimini takomillashuvi, xom ashyo va energetikaning iqtisod qilinishiga sabab bo'lmoqda:

d) Energetika va xom ashyoning yangi zaxiralarining topilishi, ularni olishda yangi texnikani qo'llanishi yangi yechimlar vjudga keltirmoqda:

e) IGO' yangi hududlar xo'jalikda foydalanish imkoni yaratdi. Iqtisodiy geografik joylashuv omili. IGO' ishlab chiqarish usuli, mamlakat, rayon va hududning iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq tarzda o'zgarib turishi mumkin. O'tmishda ancha qulay bo'lgan O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni Buyuk Ipak yo'lidagi endi biroz noqulaydir. Ochiq dengiz yo'lga chiqa olmaydi. Turkmanistonning IGO' nega noqulay deb hisoblangan bo'lsa, bugun juda qulay Kaspiy dengiziga chiqadi, u orqali Iroq, Kavkaz davlatlari, Rossiya bilan aloqa qila oladi.

**Ekologik omil.** Yuqoridagi barcha omillari ushbu omil bilan hisoblashlari shart. Hozirgi ekologik sharoit shuni taqazo etadi. Shu tufayli ayrim sanoat korxonalarining faoliyati to'xtatilgan. Suv ko'p talab qiladigan hamda kimyo, yog'och-sellyuloza, go'sht va boshqa tarmoqlar IES ekologik jihatdan noqulay.



### TEZKOR SAVOLLAR:

1. Qanaqa sanoat korxonalari aholi punktiga yaqinroq, qanaqa korxonalar esa aholi punktlaridan uzoqroq joylashgani ma'qulroq?
2. Fikringizni iqtisodiy jihatdan asoslashga harakat qiling.



### **TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR**

1. Iqtisodiy tamoyillar, qonun va qonuniyatlar haqida tushuncha b'Yering.
2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning dastlabki tamoyillari qaysilar?
3. Hududiy mehnat taqsimoti ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ilmiy asosi ekanligini isbotlng.
4. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va joylashishiga ta'sir etuvchi umum iqtisodiy qonunlar haqida nimalarni bilasiz?
5. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning ijtimoiy-ekologik, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarini izohlang.



### **ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR:** **ISBOTLANG!!!**

1-savol: Ishlab chiqarish vositalari nima?

Javob: Mehnat predmetlari va mehnat vositalari.

2-savol: Ishlab chiqarishni kimlar amalga oshiradi?

Javob: jismoniy va yuridik shaxslar

3-savol: Ishlab chiqarish kuchlari qanday tashkil etiladi?

Javob: hududiy

4-savol: Qaysi tarmoqni joylashish omillarining barchasi eng muhim rol o'ynaydi?

Javob: Iqtisodiyotni

5-savol: Ishlab chiqaruvchi kuchlarga tasir etuvchi omillar qaysilar?

Javob: xom ashyo, elektr, suv va iqlim.

6-savol: Elektr omilini o'ziga xos xususiyati nimada namoyon bo'ladi?

Javob: uni to'plab, yig'ib bo'lmaydi.

7-savol: Iste'mol omili nimadan kelib chiqadi?

Javob: hududiy ixtisoslashuvdan

8-savol: Qaysi omilsiz, xom ashyo, tayyor mahsulot ham joyidan jilmaydi?

Javob: transport omili

9-savol: Mashinasozlik tarmog'ida nimalar muhim hisoblanadi?

Javob: xom ashyo, metal, ishchi kuchi



### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI:

1.	<b>Aholining yirik shaharlaridan shahar atrofiga ko'chib o'tishi nima deyiladi?</b>
A	Konurbanizatsiya
B	Suburbanizatsiya
C	Urbanizatsiya
D	Aglomeratsiya
E	Megapolis
2.	<b>Agar davlatning aholisi 25 mln. kishi, maydoni 5 mln.km<sup>2</sup> bo'lsa, aholining zichligi qanday bo'ladi?</b>
A	1 kishi
B	2 kishi
C	3 kishi
D	4 kishi
E	5 kishi
3.	<b>Jahondagi barcha milliy xo'jaliklar yig'indisi nima deb ataladi?</b>
A	Davlat xo'jaligi
B	Jahon bozori
C	Jahon xo'jaligi
D	Tashqi bozor
E	Xalqaro bozor
4.	<b>Jahon bozori nima?</b>
A	Xalqaro bozor
B	Tashqi savdo
C	Xalqaro savdo
D	Barcha davlatlar milliy bozorlarning yig'indisi
E	Umumiy bozor
5.	<b>Quyidagilarning qaysi biri nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga kirmaydi?</b>
A	Aloqa tashkilotlari
B	Maorif muassasalari
C	Umumiy ovqatlanish muassasalari
D	Sog'liqni saqlash tashkilotlari
E	Ilmiy tashkilotlar
6.	<b>Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvshi va ishlab chiqarish jarayonlari o'xshash bo'lgan barcha korxonalar yoki korxonalar guruhi nima deyiladi?</b>
A	Xalq xo'jaligi tarmog'i
B	Markazlashgan korxonalar
C	Ishlab chiqarishning hamkorlashuvi

D	Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi
E	Ishlab chiqarishning kombinatlashuvi
<b>7.</b>	<b>Xalq xo'jaligining uchta asosiy tarkibiy qismi nimadan iborat?</b>
A	Sanoat, qishloq xo'jaligi va maorif
B	Sanoat, qishloq xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy aloqalar
C	Sanoat, qishloq xo'jaligi va sayyohlik
D	Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport
E	Sanoat, mashinasozlik va qishloq xo'jaligi
<b>8.</b>	<b>Sanoatni industirlashtirish dastlab qaysi davlatda amalga oshirildi?</b>
A	Aqsh
B	Kanada
C	Gyermaniya
D	Yaponiya
E	Buyuk Britaniya
<b>9.</b>	<b>Industirlashtirish dastlab sanoatning qaysi tarmog'ida amalga oshirildi?</b>
A	Engil sanoatda
B	Oziq-ovqat sanoatida
C	Metallurgiya sanoatida
D	Mashinasozlikda
E	Energetika sanoatida
<b>10.</b>	<b>"Xom ashyo"ga ishlov beradigan yoki uni qayta ishlaydigan sanoat tarmog'iga ... deb ataladi. Tushirib qoldirilgan so'zni toping.</b>
A	Og'ir sanoat
B	Metallurgiya sanoati
C	Ishlov beruvchi sanoat
D	Undiruvchi sanoat
E	Tog'-kimyo sanoati



### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**


1. Ishlab chiqarish kuchlari va uning mohiyatini tushuntirib bering?
2. Moddiy boyliklar va ne'matlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalari, mahoratga bog'liqmi, u qachon natija beradi?
3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy tashkil qilish mamlakatga qanday ma'suliyatni yuklaydi?
4. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, geografiya va iqtisod fanlarini aloqadorligini iqtisodiy xaritada, ifodalab tushuntirib bering.
5. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari nimalardan iborat.

6. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari nimalardan tashkil topgan?
7. Koorparatsiya bilan kombinatsiyaning bir-biridan farqi nimada?
8. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Xom ashyo omilining kon sanoatida tutgan o'rni?
10. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi deganda nimani tushinasiz?



#### UYGA VAZIFA:

- 1-topshiriq: O'zbekistonning iqtisodiy-geografik joylashuvi va jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini yozuvsiz xaritada ifodalang?
- 2-topshiriq: Mehnat predmetlari-bu nimani anglatadi?
- 3-topshiriq: Mehnat vositalari-insonning mehnat predmetlariga ta'sir etib mahsulotlar ishlab chiqarish sifatida ishlatadigan buyum yoki buyumlar majmuasidan iborat qurollardir, ularga misollar keltirib, amaliy masala tuzing?



#### Tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar:

1.[1]; 2.(3); 3.(9),128-130 b; 4.(10),25-30b; 5.(18),40-45 b; 6. (7),28-34 b.

### 3-AMALIY MASHG'ULOT

## HOZIRGI ZAMON DUNYO SIYOSIY VA IQTISODIY XARITASI (2 SOAT)

### **REJA:**

- 1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi.**
- 2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishning xususiyatlari va asosiy bosqichlari.**
- 3. Dunyo mamlakatlari tipologiyasi.**

**DARSNING MAQSADI:** Talabalarni hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasini-muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy- hududiy va iqtisodiy xaritalari, ko'rgazmali materiallar fotosuratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari.

**TAYANCH IBORALAR:** Siyosiy xarita, uning shakllanishi, asosiy bosqichlari; suverenitet, davlat chegaralari, "ajratuvchi makon", buyuk geografik kashfiyotlar, mamlakat tiplari, tipologiyasi, klassifikatsiyasi, mustaqil, mustamlaka, qaram, iqtisodiy rivojlangan, rivojlanayotgan, kam rivojlangan mamlakatlar; kapitalistik, post sotsialistik, sotsialistik mamlakatlar.

## HOZIRGI ZAMON DUNYO SIYOSIY VA IQTISODIY XARITASI

### **1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi.**

Siyosiy haritaning ahamiyati g'oyat katta bo'lib, u mamlakatlarning xalqaro o'rnini dunyoda egallagan mavqeyini, ularning ichki siyosiy-ma'muriy tuzilmasi xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi. Mamlakatlar va xalqlarning butun hayoti ularning davlat (siyosiy) chegaralarida o'z hududlarida o'tadi. Ularni aynan shu yo'nalishda o'rganish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bir tomondan dunyo va regional muammolar ayrim mamlakatlarning muammolaridan o'sib chiqadi va shakllanadi, boshqa tomondan esa ularning rivojlanishi boshqa ko'plab mamlakatlarga bevosita katta ta'sir ko'rsatadi. Shu

munosabat bilan prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrini ko'rsatib o'tish o'rinlidir: *“SSSR parchalanib ketgandan keyin bizning irodamiz va intilishimizga bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralaridagi Afg'oniston va Tojikistonda so'nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan tanglik o'chog'i alanga olib turibdi”*.

Shu bilan birga bir qatorda halqaro hayotda siyosiy, iqtisodiy, ekologik muammolarni bir nechta davlatlarning birgalikdagi say-harakatlari, umumiy mablag'lar hisobiga hal etish hollari tobora ko'payib bormoqda. Bunda muammolar yechimi davlat chegaralaridan tashqariga chiqmoqda va chegaralar esa davlatlarni ajratib turadigan to'siqlarni o'zaro aloqa, hamkorlik chiziqlariga aylanmoqda. Lekin chegaralar ochiqligi davlat hududlari suverenitetining tugaganligini aslo ko'rsatmaydi. Mustaqil davlatlarning tashkil topishi, shakllanishi, rivojlanishi, shuningdek, ularning barbod bo'lishi yoki suverenitetining tugatilishi, o'zgarishi yoki tubdan o'zgartirilishi va boshqalar g'oyat murakkab tarixiy jarayonlar bo'lib, ko'plab ichki va tashqi amallar-siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, etnik, diniy va boshqalar bilan belgilanadi. Ayni paytda, dunyoning biron mamlakati daryo turlari zichligi, har yili ko'p marta sodir bo'ladigan, katta moddiy zarar yetkazadigan, hududning katta qismini suv ostida qoldiradigan toshqinlarning katta miqyosi bo'yicha Bangladeshga tenglasha olmaydi.

## **2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishning xususiyatlari va asosiy bosqichlari**

Siyosiy harita-geografik harita bo'lib mamlakatlarning, mintaqalarning va dunyoning siyosiy bo'linish jarayonini ifodalaydi. Siyosiy geografiya-iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tarmog'i bo'lib siyosiy-geografik holat va davlatlarning chegaralari, hududlarning shakllanishi, davlat tuzumi va siyosiy-ma'muriy bo'linish hamda jamiyatning siyosiy-ijtimoiy tarkibini, davlatlarning hozirgi dunyo siyosiy-iqtisodiy tizimidagi roli va o'rnini o'rganadi.

**Siyosiy geografiya:** Hozirgi bosqichda dunyodagi mamlakatlarning davlat va jamiyat qurilishining bosh belgilari va xususiyatlari, mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari;

Mamlakatlarning siyosiy-geografik ya'ni (geostrategik) mikro, mezo va makro holati, davlat chegaralarining, hududiy tarkibining shakllanish bosqichlari;

Mamlakatlar aholisining milliy, ijtimoiy-siyosiy-iqtisodiy hayotdagi roli va o'rnini; Mamlakatlarning jahon hamjamiyatidagi, xalqaro siyosiy iqtisodiy va nodavlat tashkilotlardagi o'rnini, mamlakatlarning siyosiy maqsadlari va xalqaro munosabatlar tizimidagi ishtirokini tadqiq qiladi.

Siyosiy-geografiyadagi eng muhim geografik muammolaridan biri-dunyo siyosiy kartasining shakllanish jarayonidir. Bu jarayon iqtisodiy harakterga ham ega bo'lib, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining “vaqt chizig'i” davomida rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi. Dunyo siyosiy kartasining shakllanish jarayoni avvalo ijtimoiy mehnat taqsimotining yuzaga kelishi, xususiy mulkchilikning rivojlanishi, sinflarining va turli ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida tashkil topishini ifodalaydi. Dunyo siyosiy kartasining shakllanishini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq:



1. Mil. old IV ming - III minginchi yillardan to mil. V asriga qadar;
2. Mil V asrdan to XVII asrning o'rtalari;
3. XVII asr o'rtalaridan to XIX asr o'rtalari;
4. XIX asr 70-yillaridan to XX asr boshlari 1913
5. XX-asrning 20-90 yillari va XXI asr boshlari;

### **3. Dunyo mamlakatlari tipalogiyasi. BMT tamoyillari bo'yicha mamlakatlarni guruhlashtirish**

Bugungi dunyo siyosiy kartasida 209 ta davlat mavjud. 1900 yilda dunyo siyosiy kartasida-55 ta mustaqil davlat bo'lsa, 1947 yilda - 57 ta, 1980 yilda -160 ta va 1999 yilda-187 taga yetdi. Dunyo siyosiy kartasida mamlakatlarni turli ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlashtiriladi. Jumladan: hududlar bo'yicha-chunki mamlakat hududi va aholisining kattaligi-siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish omilidir. Shunga ko'ra, dunyo siyosiy kartasidagi mamlakatlar yirik, o'rta, kichik (mitti) davlatlarga bo'linadi. Hududi va aholi soni jihatidan mamlakatlar, o'rtasida farq juda katta, ya'ni Rossiyadan (17,8 mln.kv.km.) to eng mitti davlat Vatikanga (0,44 kv.km) qadar bo'linadi. 3 mln.kv.kmdan ortiq hududga ega bo'lgan (Rossiya, Kanada, SSR, AQSh, Braziliya, Avstraliya va Hindiston) ya'ni 7 davlat quruqlikning 50,0 foizdan ortig'ini egallaydi. 100,0 mln.dan ortiq aholiga ega mamlakatlar 10 ta bo'lib jahon aholisining 3/5 qismini tashkil qiladi.

Mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy-geografik holati bo'yicha, (N.N.Baranskiy) guruhlashtirish: dunyo siyosiy kartasida davlatlarning joylashishi holatiga ko'ra orol, yarim orol, arxipelag mamlakat, dengiz bo'yi mamlakatlariga bo'linadi. 40 ga yaqin mamlakat esa dengizga va dunyo okeaniga chiqa olmaydi. Dunyo mamlakatlarining ma'muriy-hududiy bo'linishiga ko'ra guruhlashtirish. Bugungi kunda dunyodagi 187 ta mustaqil mamlakatlarning va ma'muriy-hududiy bo'linish turlichadir. Dunyo mamlakatlari ma'muriy-hududiy bo'linishiga ko'ra unitar va federativ davlatlarga bo'linadi. Dunyo siyosiy kartasidagi federativ davlatlar 20 ga yaqin bo'lib yo milliy-etnik xususiyatlariga ko'ra, (Rossiya, Belgiya, Hindiston, Nigeriya) yoki tarixiy-geografik xususiyatlari ko'ra (GFR, Avstriya, AqSh) bilan bog'liq holda federatsiya sifatida tarkib topgan.

Unitar davlat (frantso'zcha "unitar", lotincha "unitas" - birlik yaxlit, birlashgan, bir butunni tashkil qiluvchi) tashkil qiluvchi qismlari davlat maqomiga ega bo'lmagan davlat. Bunday davlatda yagona oily konstitutsiya, yagona fuqarolik, yagona oliy qonun chiqaruvchi, yagona boshqaruv va sud organlari mavjud bo'ladi. Unitar davlatning u yoki bu qismida faoliyat ko'rsatayotgan davlat organlari mahalliy davlat organlari hisoblanadi. Unitar davlat ma'muriy-hududiy birliklarining chegaralari markaziy organlar tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida o'zgartiriladi va buning uchun mahalliy davlat organlari yoki aholining roziligi talab qilinmaydi. Davlat organlari o'z faoliyatlarini markazdan tayinlanadigan maxsus vakil (gubernator, komissar, hokim va hokazo) nazorati ostida amalga oshiradilar.

Federativ - lotincha "federal" ittifoq bo'lib mustahkamlash)-davlat tuzilishi shakllaridan biri. Federativ davlatlar murakkab tuzilishga ega davlatlar deb ham yuritiladi. Buning boisi shundaki, federativ davlat, odatda, davlatlarning o'z siyosiy mustaqilligini ixtiyoriy ravishda va muayyan doirada cheklashi yo'li bilan ittifoqqa birlashuvi natijasida yuzaga keladi. Ko'pgina federativ davlatlarda umumdavlat

fuqaroligi va ayni vaqtda federatsiya sub'yektlarining o'z fuqaroligi ham mavjud bo'ladi. Lekin bu xususiyat hamma federativ davlatlarga xos emas. Federatsiya sub'yektlari odatda o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida federal parlamentga maxsus palataga egadirlar (masalan, AQSh Kongressining yuqori palatasi-Senat, Olmoniya parlamentida-Bundestag, Hindiston parlamentida-Shtat kengashi, Meksika Kongressida-Senat va hokazolar) shu vazifasini bajaradilar.

Davlatni boshqarishning parlamentar respublika shakli hozirgi davrda Olmoniya Federativ Respublikasi, Italiya, Hindiston, Avstriya, Albaniya, Bangladesh, Isroil, Polsha, Ruminiya, Turkiya kabi mamlakatlarda o'rnatilgan. Davlat boshqaruvining monarxiya shakli 30 ta mamlakatda mavjud. Monarxiya - davlat boshqaruvining shunday shakli - davlat boshlig'i imperator, qirol (qirolicha), gertsog, knyaz, sulton, shayx va boshqalar. Bunda oliy hokimiyatni boshqarish avloddan-avlodga meros tarzida o'tadi. Monarxiya boshqaruvi xilma-xil bo'lib, konstitutsion monarxiya, absolyut (teokratik) monarxiya shakliga ega, Evropada mitti davlatlar Monako, Lixtenshteyn kabilarda-gertsoglik va Vatikanda esa teokratik monarxiya boshqaruv shakllari qaror topgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida keyingi 20 yilda chuqur iqtisodiy tabaqalanish yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda ularni 3 ga ajratish mumkin. Birinchi guruhni sanoati rivojlangan mamlakatlar-"yangi industrial mamlakatlar" (YaIM) guruhi tashkil qiladi. Bunga-Argentina, Braziliya, Syangan, Koreya Respublikasi, Meksika, Singapur, Tayvan va Turkiya kiradi. Oraliq guruhga yalpi ijtimoiy mahsulot, sanoat ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha sezilarli darajada orqada bo'lgan Yaqin Sharq mamlakatlari kiradi. Bu mamlakatlarda iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, aholining ijtimoiy qatlamlari va jamiyatdagi holati g'oyat turlichadir.

Shuningdek, nisbatan "rivojlangan mamlakatlar" guruhiga 50 ga yaqin mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlar tor monokultura xo'jalik tizimi va xorij kapitaliga bog'liqligi bilan ajralib turadi. BMT bu mamlakatlarga nisbatan 3 ta o'lchov bilan yondoshadi. Ular uchun aholi jon boshiga YaIM 350 AQSh dollaridan oshmasligi, katta aholi o'rtasida o'qishni biluvchilar-20 foiz atrofida va ishlov beruvchi sanoatning YaIMdagi hissasi-10 foizdan oshmasligi xosdir. Bu guruhga Osiyodan-8, Afrikadan-28, Lotin Amerikasi va Okeaniyadan 5 ta mamlakat kiradi. Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyoda ko'plab Yerkin savdo mintaqalari, bojxona, iqtisodiy ittifoqlar yuzaga keldi.



### **TEZKOR SAVOLLAR:**

1. Aholini geografik o'rganishda, xaritani qaysi turidan foydalanamiz?
2. Qaysi metod orqali tahlil qilamiz?



### **TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR**

1. Dunyo siyosiy xaritasi tushunchasiga izoh bering; uning ahamiyati va o'ziga xosligi nimada?
2. Dunyo siyosiy xaritasi qanday shakllangan.
3. Dunyo siyosiy xaritasining asosiy bosqichlari tarifi bering.
4. Mamlakatlar tipologiyasi (guruhlari) qanday belgilarga qarab aniqlanadi?

### **ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR:** **ISBOTLANG!!!**

1-savol: Dastlabki jahon siyosiy xaritasi qachon shakillana boshladi?

Javob: 1980-1990 yillar orasida;

2-savol: Hozirgi davrda nechta mamlakat mustaqil?

Javob: 169 ta;

3-savol: Hududi bevosita dengizga tutash bo'lmagan davlatlar nechta?

Javob: 40 ta;

4-savol: Rivojlanayotgan mamlakatlar yer yuzini necha foizini egallaydi?

Javob: 1/2 qismini;

5-savol: MDHga nechta davlat a'zo?

Javob: 11 ta;

6-savol: Ular qaysilar, nomlarini keltiring.

Javob: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Maldaviya, Ukraina, Rossiya, Armaniston, Azarbayjon, Gruziya mamlakatlari;

7-savol: Davlatning qanday siyosiy boshqarish shakillari mavjud?

Javob: Respublika va Monarxiya;

8-savol: Dunyoning siyosiy xaritasi nechta asosiy bosqichlar orqali shakillangan?

Javob: 3 ta;

9-savol: Dunyo siyosiy xaritasi shakillanishi qanday davrlarga bo'linadi?

Javob: 4 ta: qadimgi, o'rtasrlar, yangi davr, eng yangi davr;

10-savol: Dunyo siyosiy xaritasida Fors qo'ltig'ini o'z ichiga olgan Yaqin Sharq nima deb ataladi?

Javob: "Olovli nuqta"



### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI:

<p><b>1. Aholining yirik shaharlaridan shahar atrofiga ko'chib o'tishi nima deyiladi?</b></p> <p>A Konurbanizatsiya B Suburbanizatsiya C Urbanizatsiya D Aglomeratsiya E Megapolis</p>
<p><b>2. Agar davlatning aholisi 25 mln. kishi, maydoni 5 mln.km<sup>2</sup> bo'lsa, aholining zichligi qanday bo'ladi?</b></p> <p>A 1 kishi B 2 kishi C 3 kishi D 4 kishi E 5 kishi</p>
<p><b>3. Jahondagi barcha milliy xo'jaliklar yig'indisi nima deb ataladi?</b></p> <p>A Davlat xo'jaligi B Jahon bozori C Jahon xo'jaligi D Tashqi bozor E Xalqaro bozor</p>
<p><b>4. Jahon bozori nima?</b></p> <p>A Xalqaro bozor B Tashqi savdo C Xalqaro savdo D Barcha davlatlar milliy bozorlarning yig'indisi E Umumiy bozor</p>
<p><b>5. Quyidagilarning qaysi biri nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga kirmaydi?</b></p> <p>A Aloqa tashkilotlari B Maorif muassasalari C Umumiy ovqatlanish muassasalari D Sog'liqni saqlash tashkilotlari E Ilmiy tashkilotlar</p>
<p><b>6. Bir xil mahsulot ishlab chiqaruvshi va ishlab chiqarish jarayonlari o'xshash bo'lgan barcha korxonalar yoki korxonalar guruhi nima deyiladi?</b></p> <p>A Xalq xo'jaligi tarmog'i</p>

<p><b>B</b> Markazlashgan korxonalar  <b>C</b> Ishlab chiqarishning hamkorlashuvi  <b>D</b> Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi  <b>E</b> Ishlab chiqarishning kombinatlashuvi</p>
<p><b>7. Xalq xo'jaligining uchta asosiy tarkibiy qismi nimadan iborat?</b>  <b>A</b> Sanoat, qishloq xo'jaligi va maorif  <b>B</b> Sanoat, qishloq xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy aloqalar  <b>C</b> Sanoat, qishloq xo'jaligi va sayyohlik  <b>D</b> Sanoat, qishloq xo'jaligi va transport  <b>E</b> Sanoat, mashinasozlik va qishloq xo'jaligi</p>
<p><b>8. Sanoatni industirlashtirish dastlab qaysi davlatda amalga oshirildi?</b>  <b>A</b> AQSh  <b>B</b> Kanada  <b>C</b> Gyermaniya  <b>D</b> Yaponiya  <b>E</b> Buyuk Britaniya</p>
<p><b>9. Industirlashtirish dastlab sanoatning qaysi tarmog'ida amalga oshirildi?</b>  <b>A</b> Yengil sanoatda  <b>B</b> Oziq-ovqat sanoatida  <b>C</b> Metallurgiya sanoatida  <b>D</b> Mashinasozlikda  <b>E</b> Energetika sanoatida</p>
<p><b>10. "Xom ashyo"ga ishlov beradigan yoki uni qayta ishlaydigan sanoat tarmog'iga ... deb ataladi. Tushirib qoldirilgan so'zni toping.</b>  <b>A</b> Og'ir sanoat  <b>B</b> Metallurgiya sanoati  <b>C</b> Ishlov bYeruvchi sanoat  <b>D</b> Undiruvchi sanoat  <b>E</b> Tog'-kimyo sanoati</p>



### NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:

1. Siyosiy harita tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Dunyo siyosiy xartasining qisqacha shakllanish bosqichlariga nimalar bilasiz?
3. BMT tamoyillari bo'yicha mamlakatlarni guruhlashtirish nima?
4. Yer sharida qancha qaynoq hududlar bor?
5. Qachan bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish, uchun kurash olib borildi?
6. Dunyoning qancha qismi quruqlik va qancha qismi suvlikdan iborat?

7. Masshtablar necha xil bo'ladi?
8. Siyosiy haritaning asosiy mazmunini belgilab beruvchi elementlar nimalardan iborat?
9. Siyosiy haritada nimalar tasvirlanadi?
10. Yettilik davlatlarida ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning, dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning necha qismi tashkil etadi?
11. Dunyo siyosiy xartasida eng yangi davr qachon bo'lib o'tdi?



#### **UYGA VAZIFA:**

- 1-topshiriq: Dunyo siyosiy xartasini yozuvsiz xaritada ifodalang?
- 2-topshiriq: Mamlakatlar tipalogiyasi qanday belgilarga qarab aniqlanadi?
- 3-topshiriq: Materik va qit'alar, davlatlarini guruhlarga bo'lib o'rganing va yodlang.



*Tavsiya etiladigan adabiyotlarva manbalar:*

1.[5],130-135 b: 2.(6),70-72 b: 3.(7),48-56 b: 4.(10),30-35b: 5.(9) ,28-32b:

#### **4-AMALIY MASHG'ULOT:**

##### **REJA:**

- 1. Dunyo aholisining joylashuvi.**
- 2. Aholining takror barpo bo'lishi.**
- 3. Dunyo aholisining irqiy va diniy tarkibi.**
- 4. Aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayoni.**
- 5. Mehnat resurslar va bandlik muammolari.**

**DARSNING MAQSADI:** Talabalarga dunyo aholisining joylashuvi, uning tarkibi va irqi to'g'risida, tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyo aholisi va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, ko'rgazmali qurollar, foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari

**TAYANCH IBORALAR:** Aholi joylashuvi takror barpo bo'lishi, tabiiy va mexanik o'sishi, aholi zichligi, irqiy va diniy tarkibi, migratsiya, demografik portlash, urbanizatsiya darajasi, megapolis mehnat resurslari, ishchi kuchi, aholi bandligi, iqtisodiy faol aholi, ishsizlik muammolari.

## **DUNYO AHOLISI GEOGRAFIYASI**

### **1. Dunyo aholisini joylashuvi.**

Yer shari bo'yicha har  $\text{km}^2$  ga o'rtacha 40 kishi to'g'ri kelsada, ayrim mamlakatlarda aholi zichligi juda yuqori (Bangladeshda har  $\text{km}^2$  ga 800 kishi, Manakada 15,5 ming, Singapurda 4,5ming kishi to'g'ri keladi). Yer sharida aholi eng zich yashaydigan hududlar quydagilar:

1. Janubiy Osiyo-Hindiston, Bangladesh, Shri-Lanka, Pokiston (aholi soni 1,5mlrdga yaqinlashmoqda, aholi zichligi 300-500 kishi  $\text{km}^2$  ga)
2. Sharqiy Osiyo-Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, KXDR (bu hududda 1,5mlrd dan ortiq aholi yashaydi, aholi zichligi har  $\text{km}^2$  ga 200-300 kishi)
3. Janubi-Sharqiy Osiyo-Indoneziya, Fillippin, Tayland, Malayziya v.b.(aholi soni 0,5mlrd, zichlik 300 kishi  $\text{km}^2$  ga)
4. Evropa (axoli soni 0,7mlrdga yaqin, zichlik 200 kishi)
5. Shimoliy Amerikaning Atlantika okeani sohillari, AQSH ning shimoli-sharqi. Umuman dunyo aholisining 60% Osiyoda, 12% i Afrikada, 9,5% Evropada, 8,5% Lotin Amerikasida 5,5% dan Shimoliy Amerika va Sobiq Ittifoq hududida, 0,5% Avstraliya va Okeaniyada istiqomat qiladi.

### **2. Aholining takror barpo bo'lishi.**

Aholining takror barpo bo'lishi aholining tabiiy harakati natijasida sodir bo'ladigan avlodlar almashuvi jarayonidir. Hozirda aholining o'sish surati juda tez bo'lib, 3 sutka mobaynida 250 ming kishiga ko'paymoqda.

Har ming kishi hisobiga tug'ilishi koeffitsientidan o'lim koeffitsienti ayirmasi tabiiy ko'payishni keltirib chiqaradi. Dunyo bo'yicha o'sish bu ko'rsatkich: 26% 1000 - 9% 1000 - 17% 1000, ya'ni har ming kishi xisobiga yiliga 26ta chaqaloq tug'lsa, shu 1000 kishi xisobidan 9 kishi vafot etadi, demak tabiiy ko'payishi 17% ni tashkil etadi. Ammo bu ko'rsatkich dunyo turli qisimlarida, xatto bir mamlakatning ichida ham bir biridan farq qilishi mumkin. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda juda past Evropa (15-11=4), rivojlanayotgan mamlakatlarda Afrikada

ancha yuqori (46-17=29). Aholi tabiiy ko'payishining 2 tipi mavjud:

1- tipga: Evropa, Shim.Amerika, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Rossiya kabi davlatlar kirib, ularda tabiiy ko'payish juda past.

2- tipga boshqa barcha mamlakatlar kiradi, qaysiki ularda tabiiy ko'payishi ancha yuqori.

Demak, tabiiy ko'payishi tug'ilishi, uni o'lim ko'rsatkichlariga bog'liq bo'lsada, ular darajasi tabiiy-biologik jarayonlardan tashqari turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarga (aholining jinsiy, yosh, milliy tarkibi, ayollarning ilmiy darajasi va ijtimoiy mehnatdagi faolligi, nikoh yoshi, darajasi, ayrim ko'rsatkichlari, din ta'siri, davlat siyosati, urbanizatsiya darajasi, milliy urf odatlar, hayot farovonligi va b).bevosita bog'liqdir.

### 3. Dunyo aholisining diniy va irqiy tarkibi

Olimlarning tadqiqotlari yer shari aholisini 4 asosiy irqqa mansub ekanligini ta'kidlaydi. Biroq ulardan tashqari va ayrim fiziologik tafovutlarning mavjudligi ularni bir biridan kamsitilishga asos bo'la olmaydi. Dunyodagi barcha irqqlar bir va tengdirlar. Dunyodagi asosi irq va guruhlar quyidagilar:

1. Katta Evropoid irqi . Dunyo aholisining 42% dan ortig'i ushbu irqqa mansub. Uning shimolliq janubiy, oraliq kabi guruhlari mavjud.

2. Katta mongoloid irqi. Yer shari aholisining 20% ortiqrog'i ushbu vakillaridir. Irqning 2 asosiy guruhi mavjud. Bular Osiyo va Amerika guruhlari. Osiyo mongoloidlarning o'zi yana 2: quruqlik va Tinch okean qisimlarga ajraladi. Quruqlik mongoloidlari Arktika, Shimolliq Osiyo, Markaziy Osiyo, va Uzoq sharq tarmoqda ajraladi.

3. Katta negroid irqi. Dunyo aholisining 7% dan ortig'ini qamragan. Bu irq asosan: negrarlar, negrillar, hamda bushmenlar va gottentotlar kabi 3 guruhga bo'linadi.

4. Katta avstraloid irqi. Bu irqqa dunyo aholisining 0,3% i mansub bo'lib, irqning avstroloidlar-aborigenlar, papuaslar va meloneziyaliklar, veddoidlar, ainlar, negritoslar kabi tarmoqlari bor. Dunyo aholisining 30% dan ziyodi aralash va o'tkinchi (oraliq) irq vakillaridan iborat.

### 4. Aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayoni.

Shim.Amerikada 75%. Umuman, rivojlangan mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi ( 72%) rivojlanayotgan mamlakatlardan (30% ) ancha yuqori.

Shahar aglomeratsiyalari ham tez rivojlanmoqda. AQSH agi Bosvash, Chiplits, Sansan megopolislarida yaqin kelajakda AQSH aholisini qariyb 50%i yashashi kutilmoqda. Yer yuzasida aholi soni 10 mln.dan ko'p bo'lgan: "baxaybat shaharlar" soni ancha ko'paydi Yangi asr boshlaridayo Mexikoda-31 mln., San-Pauluda-26 mln., Tokioda-24, Nyu-Yorkda-23, Kalkuttada-20 mln aholi yashashi bashorat qilinmoqda. Aholisini soni 5 mln. dan ziyod shaharlar soni 30 taga etaydigan bo'lsa, " million yer shaharlar" soni-250 taga etdi.

### 5.Mehnat resurslari va bandlik mummosi.

Aholining jismonan rivojlangan va sog'lom mehnatga yaroqli qismi mehnat resurslarini tashkil etadi. Aholining mehnat faoliyatiga munosabatiga qarab: mehnatga layoqatgacha bo'lgan, mehnatga layoqatli va mehnatga layoqatlikeyingi guruhlar ajratiladi.



Asosiy mehnat resurslari mehnatga layoqatli va mehnat ishidagi, xususan ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan va harbiy xizmatdagilarni o'zida birlashtirsa, qo'shimcha mehnat resurslariga 14-16 yoshdagi ishlovchi o'spirin-yoshlar va xizmatini davom ettirayotgan nafaqaxo'rlar kiradi.

Ishga layoqatli yosh turli mamlakatlarda turlicha belgilangan. Masalan, Rossiyada 16-59 yoshdagi erkaklar, 16-54 yoshdagi ayollar mehnat resurslari hisoblanadi. AQSH da erkak va ayollar uchun bir xil 16-65 yil, Finlyandiya, Yaponiya, Kanada, Germaniyada 15 yoshdan mehnatga layoqatli hisoblanadi. Uning yuqori chegarasi aholining o'rtacha umir ko'rish darajasi, mamlakatning iqtisodiy salohiyati asosida belgilanishi mumkin.

Aholi bandligi ham turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish sohasida Rossiya aholisining (mehnatda band aholining) 70% i, AQSH aholisining 54% i. Noishlab chiqarish sohasida esa Rossiyaning 30%, AQSHning 46% mehnat resurslari band. Bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi bo'yicha Rossiyada 15%ni, AQSH da 3% ni, sanoatda Rossiyada 37% ni, AQSH da 24% ni xizmat ko'rsatish sohasida Rossiyada 48% ni, AQSHda 70% ni tashkil etadi.

Iqtisodiy faol aholining AQSH da 6,7% i, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 5-18% ishsizligi qayd etilgan. Ishsizlikka barham berish ko'plab mamlakatlarda eng asosiy muammolardan birga aylangan.



### **TEZKOR SAVOLLAR:**

1. Dunyo aholisi zichligi va urbanizatsiyaning aloqadorligi nimada?
2. "Demografik siyosat" va "Demografik portlashning" mamlakat uchun ahamiyatli tomoni nimada?



### **TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR:**

1. Aholining tabiiy o'sishiga va zichligiga ta'sir etuvchi omillar tarifini bering?
2. "Demografik portlash" to'g'risida tushuncha bering.
3. Yer yuzasida aholi irqiy tarkibi bo'yicha qanday tarqalgan?
4. Aholi migratsiyasining asosiy oqimlari qanday?
5. Urbanizatsiya jarayoni yuqori bo'lgan hududlar ta'rifi?
6. Mehnat resurslaridan foydalanish muammolari haqida gapiring.



## MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI:

<p><b>1. Quyidagi sanoat tarmoqlarining qaysi biri ko'p material (mablag') talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi?</b></p> <p>A To'qimachilik, oziq-ovqat B yengil va mashinasozlik C Energetika va tikuvchilik D Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va mashinasozlik E Transport va rangli metallurgiya</p>
<p><b>2. Bir biri bilan o'zaro bog'langan korxonalar to'plangan hudud nima deb ataladi?</b></p> <p>A Sanoat tuguni B Sanoat rayoni C Sanoat markazi D Kombinat E Hamkorlashgan korxonalar</p>
<p><b>3. Quyidagi yoqilg'ilardan qaysi birining issiqligi 1 kg shartli yoqilg'ining issiqligiga teng?</b></p> <p>A Yonuvchi slanes B Torf C Qo'ng'ir ko'mir D Tosh ko'mir E Yog'och</p>
<p><b>4. Yoqilg'ining qaysi turi insoniyat tarixida juda uzoq davr mobaynida asosiy yoqilg'i manbai bo'lib keldi?</b></p> <p>A Ko'mir B Torf C Yog'och D Slanes E Neft</p>
<p><b>5. Neft qaysi davrdan boshlab jahon energetika sanoatida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda?</b></p> <p>A XX asrning boshidan B XX asrning o'rtalaridan C XX asrning oxiridan D XIX asrning o'rtalaridan E XIX asrning oxiridan</p>
<p><b>6. Qaysi yoqilg'i turi eng ko'p eksport qilinadi?</b></p> <p>A Torf B Slanes C Ko'mir D Neft E Gaz</p>
<p><b>7. Jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 70 foizidan ortig'i</b></p>

	<b>qanday elektr stansiyalarda ishlab chiqariladi?</b>
A	IES
B	GES
C	AES
D	Quyosh
E	Geotermal
<b>8.</b>	<b>Qaysi davlatda elektr energiyaning 99.5 foizi GESlarda ishlab chiqariladi?</b>
A	Chili
B	Hindiston
C	Norvegiya
D	Shvetsiya
E	Panama
<b>9.</b>	<b>Jon boshiga elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha qaysi davlatlar oldinda?</b>
A	Norvegiya, Kanada
B	AQSh, Rossiya
C	Shvetsiya, Fransiya
D	Niderlandiya, Italiya
E	Ispaniya, Shvetsariya
<b>10.</b>	<b>Qaysi mamlakatlarda metallurgiya zavodlari dengiz va okean qirg'oqlariga yaqin qurilmoqda?</b>
A	Yaponiya, Yevropa davlatlarida
B	AQSh, Markaziy Amerika davlatlarida
C	Rossiya, Afrika davlatlarida
D	Kanada, Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlarida
E	Buyuk Britaniya, Janubiy Osiyo davlatlarida



### **ANIQ SAVJLLARGA ANIQ JAVOFLAR! ISBOTLANG!!!**

1-savol: O'zbekistonda aholi zichligi bo'yicha qaysi iqtisodiy rayon 1-o'rinda turadi?

Javob: Farg'ona iqtisodiy rayoni;

2-savol: O'zbekistonning tub aholisi kimlar?

Javob: o'zbeklar;

3-savol: O'zbekiston aholisining qancha qismini o'smirlar tashkil etadi?

Javob: 2/3 qismini o'smirlar tashkil etadi;

4-savol: O'zbekistonda bandlik mummosini hal qilish uchun nima qilish kerak?

Javob: hozirgi zamon texnologiyasini jalb qilish;

5-savol: O'zbekiston aholisining soni qancha?

Javob: 27 milliondan ortiq;

6-savol: MDH davlatlari ichida O'zbekiston aholisining soni bo'yicha nechinchi o'rinda turadi?

Javob: 3-o'rinda turadi;

7-savol: Urbanizatsiya nima?

Javob: Aholining shaharlashishi;

8-savol: O'zbekistonda aholi ko'proq band bo'ladigan tarmoq qaysi?

Javob: Qishloq xo'jaligi tarmog'i;

9-savol: O'zbekiston jahonda aholi soni bo'yicha nechinchi o'rinda turadi?

Javob: 38-o'rinda;


10-savol: Dunyoda aholisi 30 milliondan ortiq shahar qaysi?

Javob: Tokiyo.



### NAZORAT SAVOLLAR:

1. Aholining tabiiy o'sishiga va zichligiga qanday omillar ta'sir etadi?
2. Yer yuzasida aholi irqiy tarkibi bo'yicha qanday tarqalgan?
3. Aholi migratsiyasining asosiy oqimlari nimalardan iborat?
4. Urbanizatsiya jarayoni nima?
5. Nima sababdan O'zbekistonda aholini ko'p qismi qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat olib boradi?
6. Migratsiya jarayoni qanday jarayon?
7. O'zbekiston aholi bandligi muammolari qay tarzda yechilmoqda?
8. O'zbekistonda aholining jinsiy tarkibi va nisbatlari qanday?
9. O'zbekiston aholisining milliy tarkibi qanday?
10. O'zbekiston hududida qanday millat vakillari yashaydi?



### UYGA VAZIFA:

- 1-topshiriq: Dunyo aholisining soni va o'sish sur'atlari, milliy va diniy tarkibini izohlang;
- 2-topshiriq: Dunyo aholisining jinsiy va yosh tarkibi, mehnat resurslari haqida gapiring;
- 3-topshiriq: Dunyo aholisining joylashishi va migratsiya tushunchalarini izohlang;
- 4-topshiriq: O'zbekistonda aholining jinsiy va yosh tarkibi qanday? Sonlarda ifodalang;



### Tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar:

1.[5],220-225 b: 2.(6),85-90 b: 3.(9),70-75 b: 4.(10),40-45b: 5.(20),.:

## 5-AMALIY MASHG'ULOT

### DUNYO XO'JALIGI GEOGRAFIYASI (2 soat )

#### REJA:

1. Dunyo xo'jaligining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari.
2. Xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ixtisoslashuv iqtisodiy integratsiyasi, dunyo mamlakatlarining iqtisodiy guruhlari.
3. Ilmiy texnik taraqqiyotning dunyo xo'jaligiga ta'siri.
4. Dunyo xo'jaligi tarmoqlar geografiyasi.
  - a) Sanoat tarmoqlari
  - b) Qishloq xo'jalik tarmoqlari geografiyasi
  - s) Transport tarmoqlari geografiyasi.

**DARSNING MAQSADI:** talabalarga dunyo xo'jaligining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ixtisoslashuv iqtisodiy integratsiyasi, dunyo mamlakatlarining iqtisodiy guruhlari, ilmiy texnik taraqqiyotning dunyo xo'jaligiga ta'siri, dunyo xo'jaligi tarmoqlar geografiyasi, haqida, tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, ko'rgazmali qurollar, foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari

**TAYANCH IBORALAR:** Jahon xo'jaligi, xalqaro mehnat taqsimot, xalqaro integratsiya, milliy yalpi mahsulot, "Yevropa ittfoqi", "Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi", "Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi", "Lotin Amerika mamlakatlari assotsiatsiyasi", "Neft" eksport qiladigan davlatlar uyushmasi", "Yashil inqilob", "Postindustrial inqilobi bosqichi".

## ***Dunyo xo'jaligi geografiyasi.***

### **1. Dunyo xo'jaligining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari.**

Dunyo xo'jaligi (DX) shakllanishi eng avvalo jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, tabiat bilan jamiyat o'rtasida modda almashinuvining to'xtovsiz oshib borishi, turli mamlakatlar, regionlar o'rtasida savdo-moliya va ishlab chiqarish munosabatlarining muntazam o'rnatilishi, va shu asosda dunyoda ijtimoiy iqtisodiy progressga to'siq bo'lib kelgan milliy xo'jaliklar asrlar davomida bir-birlaridan ajralgan holda va alohida hayot kechirishiga chek qo'yilishi davrigacha bo'lgan tarixini o'zida to'la aks ettiradi.

Dunyo xo'jaligi dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining jaxon iqtisodiy aloqalari orqali o'zaro uzviy bog'langan va tarixan shakllangan majmuasidir. U dunyo ishlab chiqarish kuchlarining ming yillik evolyutsiyasi natijasidir. Dunyo xo'jaligining shakllanishi bir nechta bosqichga bo'linadi: 1) dunyo xo'jaligi shakllanishining uzoq davom etgan tarixidan oldingi davr (XVI asrgacha); 2) paydo bo'lish davr (XVI- XVII asrlar) asosan buyuk geografik kashfiyotlarga bog'liq bo'lib, xalqaro savdo dunyoning barcha mamlakat va regionlarini qamrab olgan paytga to'g'ri keladi; 3) shakllanishi va kengayish davri (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning boshi) transport, qit'alararo aloqalar, dunyo bozorining tez rivojlanishi bilan bog'liqdir; 4) chuqurlashuv davri (XX ikkinchi yarmidan hozirgacha) yirik mashina industriyasi, transport va dunyo bozorining birgalikda rivojlanishining natijasidir. So'nggi bosqichda ko'plab sobiq mamlakatlar mustaqillikka erishdilar va o'z iqtisodiyotini rivojlantirib dunyo xo'jaligiga qo'shildilar. Shu bilan bir qatorda ikki tuzumning kapitalistik va sotsialistik-mavjudligi katta ahamiyatga ega bo'ldi (ya'ni G'arb bilan Sharq o'rtasida iqtisodiy aloqalarning o'ziga xos xususiyati egalladi).

Dunyo xo'jaligi strukturasi o'zgarib bormoqda. Shu bilan bir qatorda unga xilma-xillik va ichki ziddiyatlar xosdir. Chunki dunyo xo'jaligi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi va strukturasi har xil bo'lgan mamlakatlar xo'jaligini o'z ichiga oladi.

### **2. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro ixtisoslashuv.**

Dunyo mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy aloqalari faqat tovar savdosi va xizmat ayirboshlashi bilan cheklanmaydi. Hozirgi dunyo xo'jaligi kapital oqimlari va odamlarning migratsiya (ko'chishi) oqimlari mavjudligi va ularning aralashib ketganligi bilan harakt erlanadi. Bularning hammasi birgalikda xalqaro mehnat taqsimoti tushunchasini tashkil etadi.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xo'jalik qiyofasi ularning xalqaro ixtisoslashuvi belgilab beradi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning ko'p shakllari mavjud bo'lib, ular qatoriga tashqi savdo, kapital chiqarish, ilmiy-texnika hamkorligi kompensatsiya (badal) kelishuvlari, kredit-moliya munosabatlari, turli xizmat ko'rsatish yo'nalishlari (masalan, portlarga kiradigan chet el kemalari xizmat ko'rsatish v.b.), xalqaro turizm (sayoxatchilik), ob'yektlarni birgalikda ko'rish v. b. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun tashqi savdo tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Dunyo xo'jaligi doirasida xalqaro savdoning bir necha asosiy geografik yo'nalishlari (oqimlari) shakllangan. Masalan, dunyoning hajmi eng katta savdosi iqtisodiy rivojlangan g'arb mamlakatlari (Garbiy Evropa, AQSH, Yaponiya) o'rtasida olib

boriladi va ularning dunyo tovar oborotidagi salmogi 70% ga teng. Xalqaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i oshib bormoqda. Bu bir tomondan ularning xomashyo eksporti (yangi industrial mamlakatlardan tayyor buyumlar ham), boshqa tomondan mashina va oziq-ovqatlar importiga bog'liqdir. Iqtisodiy munosabatlar murakkablashib, yangi shakllarga o'tmoqda.

Hozirgi dunyo xo'jaligini asosini xalqaro mehnat taqsimoti tashkil etadi. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi jarayonida oddiy tabiiy mehnat taqsimoti asta-sekin itmoiy mehnat taqsimotiga aylandi. U jamiyat ichidagi, mamlakatlar, regionlar, iqtisodiy tarmoqlar, ayrim korxonalar, va hatto ayrim ishlovchilar o'rtasidage taqsimotni ham qamrab oladi. Geografik mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotining ajralmas qismidir. U hudularning ixtisoslashishi jrayonini va hududlarning ixtisoslashgan, mahsulot va xizmatlar ayriboshlashini ifodalaydi. Geografik mehnat taqsimotining oily shakli halqaro mehnat taqsimoti hisoblanadi.

### **3. Ilmiy texnik tarqqiyotning dunyo xo'jaligiga ta'sisri**

Dunyo xo'jaligining rivojlanishi va murakkablashib borishiga muvofiq uning geografik modeli ham o'zgarib bordi. Dunyoda hukmdor (yetakchi) pozitsiyani turli mamlakatlar egallagan. O'z vaqtida Amir Temur davlati so'ngra Ispaniya, Gollandiya, XX asrda AQSH dunyoda hukmdor kuchga aylandi. Hozirgi vaqtda eng iqtisodiy qudratli markazlar-Yevropa (dunyo YAIM 28%) va Amerika 26%ni beradi.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xo'jalik qiyofasini ularning xalqaro ixtisoslashuvi belgilab beradi. Har qanday malakatning xalqaro mehnat taqsimotga jalb etilishi brinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishini bilan belgilanadi. Shu sababdan industrial rivojlangan mamlakatlar qimmatbaho mahsulotlar-mashina va jixozlar, kimyo sanoati mahsulotlari va boshqalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashib, hozirgi XMT da yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Ko'pchilik rivojlangan mamlkatlarda esa mineral xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qlishga ixtisoslashuviga olib kelmoda. Har qanday mamlakatning iqtisodiy jixatdan rivojlanishini mamlakat miqyosida zamonaviy texnologiya va texnikaning tadbiiq etilishi darjasiga bog'liq bo'ladi. Ayni zamonaviy texnologiya va texnika mamlakatning dunyo xo'jaligidagi o'rnini belgilashga imkon yaratib beradi, hamda mamlakatni yuqoriroq pog'onalarga olib chiqishga imkon yaratib beradi. Shu sababli fan texnika taraqqiyotining mamlakat rivoji hamda dunyo xo'jaligida o'z o'rnini topishida ahamiyati kattadir.

### **4. Dunyo xo'jaligi tarmoqlari geografiyasi.**

Sanoat dunyo moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog'i bo'lib, unda 350 mln. kishidan ko'proq aholi band. Dunyo sanoat mahsulotining o'rtacha yillik hajmi 7.7 trn. dollarga teng. Dunyoning yetakchi sanoat mamlakatlari (% , dunyo ko'rsatgichlaridagi hissasi): AQSH-18.9, Yaponiya-10.7, Xitoy-8.5, GFR-5.9, Rossiya-4, Hindiston-3.5, Buyuk Britaniya-3, Fransiya-2.8, Braziliya-2.6, Meksika-2.5, Koreya Respublikasi-2, Kanada-1.7.

Rivojlangan mamlakatlar sanoat strukturasiida ishlab beruvchi sanoat 83.4%, undiruvchi sanoat-8.1%, elektro energiya va gaz ishlab chiqarishi 8.5% salmoqqa ega. Mashinasozlikning ustuvorligi ko'pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos xususiyatdir. Masalan, mashinasozlikning butun sanoat ishlab chiqarishidagi salmogi GFR va Fransiyada 38 %, Buyuk Britaniya va Italiyada 32% ni tashkil etadi.



### **TEZKOR SAVOLLAR:**

1. Xozirgi dunyoning asosiy iqtisodiy ko'rsatkishlari, va dunyo iqtisodiyotining uch turi – bosqichi aloqadorligi. (tahlil qilihg)



### **TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR**

1. Dunyo xo'jaligi qanday shakllangan?
1. Dunyo xo'jaligining shakllanishining asosiy bosqichlarini ta'riflang?
2. Hozirgi zamon xalqaro mehnat taqsimotini qanday tushunasiz?
3. Xalqaro ixtisoslashuv iqtisodiy integratsiyasi to'g'risida misollar keltiring?
4. Dunyo mamlakatlari qanday iqtisodiy guruhlariga bo'linadi?
5. Milliy yalpi mahsulotning turli guruhdagi mamlakatlarda ko'rsatkichlari qanday?
6. Dunyo xo'jaligining tuzilishi (strukturasi) qanday?
7. Dunyoning asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
8. Qaysi guruh mamlakatlarida "Yashil inqilob" sodir bo'lgan?
9. Dunyodagi eng yirik transport tugunlari haqida malumotlar bering?



### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI:**

- |  |
|--|
| 1. <b>Intensiv qishloq xo'jaligi qanday davlatlar uchun xos?</b>               |
| A Betaraf  |
| B Rivojlanayotgan  |
| C Kam rivojlanayotgan  |
| D Rivojlangan  |
| E Hammasi uchun  |
| 2. <b>Qishloq xo'jaligini yana rivojlantirishning asosiy yo'lini aniqlang?</b> |
| A Mexanizatsiyalashtirish  |
| B Elektrlashtirish   |
| C Kimyolashtirish  |
| D Meliorasiya  |
| E Hammasi to'g'ri  |



3.	<b>“Yer qishloq xo’jaligida nima bo’lib xizmat qiladi?”</b>
A	Maehnat majmui va yashash joyi
B	Mehnat vositasi va ekin maydoni
C	Mehnat majmui va yaylov
D	Mehnat majmui va mehnat vositasi
E	Mehnat vositasi va ishlab chiqarish kuchi
4.	<b>Qishloq xo’jaligida foydalanadigan yerlar nima deb ataladi?</b>
A	Qishloq xo’jalik yerlari
B	Ekin maydoni
C	Haydaladigan yerlar
D	Sug’oriladigan yerlar
E	Lalmikor yerlar
5.	<b>Qishloq xo’jaligining asosiy vazifasi nimadan iborat?</b>
A	Mehanizatsiyalashtirish
B	Elektrlashtirish
C	Kimyolashtirish
D	Intensivlashtirish
E	Melioratsiya qilish
6.	<b>Quyidagi tarmoqlarning qaysi biri dehqonchilikka tegishli emas?</b>
A	Sabzavotchilik
B	Polizchilik
C	Ipakchilik
D	Bog’dorchilik
E	Donchilik
7.	<b>Kauchuk daraxti asosan qaysi tabiat zonasida o’sadi?</b>
A	Doimiy yashil ekvatorial o’rmonlarda
B	Mavsumiy nam subekvatorial o’rmonlarda
C	Nam tropik o’rmonlarda
D	Quruq tropik o’rmonlarda
E	Igna bargli o’rmonlarda
8.	<b>Texnik jihatdan yaxshi jihozlangan, juda ko’p yo’lovchi va yuk oqimiga ega bo’lgan yo’l nima deb ataladi?</b>
A	Shosse
B	Magistral
C	Tosh yo’l
D	Grunt yo’l
E	Qattiq qoplamli yo’l
9.	<b>Qaysi davlat shakarqamish etishtirish bo’yicha jahonda yetakchi?</b>
A	Braziliya
B	Hindiston
C	Kuba
D	Indoneziya
E	Avstraliya
10.	<b>Qo’ychilik qayerlarda yaxshi rivojlangan?</b>
A	Dasht
B	Chala cho’l

- |   |           |
|---|-----------|
| C | Cho'l     |
| D | Tog'lar   |
| E | Hammasida |



**ANIQ SAVOLLARGA ANIG LAVOBLAR!**  
**ISBOTLANG!!!**

1-savol: Dunyo xo'jaligining shakllanishi necha bosqichga bo'linadi?

Javob: 4 bosqichga;

2-savol: Dunyo xo'jaligining asosini nima tashkil qiladi?

Javob: Xalqaro mehnat taqsimoti;

3-savol: Radio, electron va robot texnikasining asosiy eksportiyori qaysi mamlakat?

Javob: Yaponiya;

4-savol: Agro sanoat mahsulotlarini yetishtiruvchi aosiy davlat qaysi?

Javob: Bolgariya;

5-savol: Tropik mamlakatlar iqtisodi nima sotishga ixtisoslashgan?

Javob: kofe, shakar, kakao;

6-savol: Eng yirik halqaro tashkilot qaysi?

Javob: Jahon valyuta fondi;

7-savol: Rivojlangan davlatlar dunyo boyliklarining necha foizini ishlab chiqaradi?

Javob: 30 foizini;

8-savol: OPEK nima?


Javob: neft eksporti mamlakatlari tashkiloti;

9-savol: Osiyo Barslari qaysi davlatlar?

Javob: Gankong; Singapur; Tayvan, Janubiy koreya;

10-savol: Yaponiya yiliga nechta robot texnika chiqaradi?

Javob: 300 mingta;



### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. O`zbekistonda qishloq xo`jaligining ahamiyati, uning yangi islohotlar sharoitida rivojlanish xususiyatlari nimalardan iborat?
2. O`zbekistonning chorvachilik tarmoqlari qanday?
3. O`zbekistonning dehqonchilik tarmoqlari qanday?
4. Dunyo xo`jaligi nima?
5. Dunyo xo`jaligi tarmoqlari nimalardan iborat?
6. Dunyo xo`jaligi asosini nima tashkil etadi?
7. Xalqaro mehnat taqsimoti nima?
8. Xalqaro ixtisoslashuvga ta`rif bering?
9. Dunyo sanoatidagi yetakchi davlatlarni sanang?
10. Dunyo xo`jaligida O`zbekistonning o`rni qanday?



### **UYGA VAZIFA:**

- 1-topshiriq: O`zbekistonning tabiiy resurs salohiyati va uni mamlakat xalq xo`jaligidagi ahamiyatini tushuntirib bering;
- 2-topshiriq: O`zbekistonning metallurgiya majmui tarkibini izohlang;
- 3-topshiriq: O`zbekistonning yoqilg`i-energetika majmui tarkibini izohlang;
- 4-topshiriq: O`zbekistonning yengil sanoati majmui takibi nimalardan iborat ekanligini ayting;



### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar:**

1.[1],: 2.(2),: 3.(4),145-155 b: 4.(10),84-88b: 5.(16),74-84b: 6.(17),:.

## 6-AMALIY MASHG'ULOT

### BA'ZI RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING IQTISODIY – GEORAFIK TAVSIFI (2 soat )

#### **REJA:**

1. AQSH ning iqtisodiy-geografik tavsifi.
2. Yaponiyaning iqtisodiy-geografik tavsifi.
3. Germaniyaning iqtisodiy-geografik tavsifi.
4. O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari.

**DARSNING MAQSADI:** talabalarga, ba'zi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi, AQSH ning iqtisodiy-geografik, Yaponiyaning iqtisodiy-geografik, Germaniyaning iqtisodiy-geografik tavsifi va O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini tahlil qilish.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, ko'rgazmali qurollar, foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari

**TAYANCH IBORALAR:** Federal hukumat, prezident boshqaruvi, kongress, senat, senator, vakillar palatasi, kongressmen, oliy sud, federal va shtat hokimiyatlari, immigratsiya, "amerikaliklar", oraliq immigrantlar, tub joy xalqlari, "hududiy konsentratsiya", megapolis, mintaqaviy siyosat.

Iqtisodiy geografik o'zni, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, "G'arbiy, Sharqiy, Birlashgan Germaniya" urbanizatsiya, okruglar, yirik megapolislar, modernizatsiya, "Umumiy Bozor", "Yevropa Uyi", "Evro"-valyutasi.

# **BA'ZI RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING IQTISODIY – GEORAFIK TAVSIFI**

## **1. AQSH ning iqtisodiy geohrafik tavsifi.**

AQSH - dunyoning eng rivojlangan mamlakati. Hududi va chegaralarining shakllanishi, uning qulayliklari. Davlat tuzumi, siyosiy xaritasi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Eng foydali qazilmalarining zahiralari va joylashishi, ularning AQSh taraqqiyotidagi roli. AQSH ning iqtisodiy erkin bozorga ixtisoslashgan tizimdir. Dunyo aholisining 5%i AQSH da yashaydilar. AQSH tashkil topgandan beri fermerchilik AQSH xo'jaligida muhim ahamiyatga ega sohalaridan biri bo'lib kelmoqda. Uning qishloq xo'jaligi "agrobiznes" (rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri) asosida rivojlanib bormoqda. Bu soha ferma kooperativlari, qishloq xo'jaligi banklari, ferma mahsulotlarini tashib beruvchilar, fermalar uchun asbob uskunalar ishlab chiqaruvchi firmalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Aholisi.** Emigratsiyaning amerika millatining shakllanishi, aholi o'sishi va tarkibiga ta'siri. Aholining milliy tarkibi va asosiy etnik guruhlarini. Aholining joylashish xususiyatlari. Urbanizatsiya muammolari. Yirik shaharlar va aglomeratsiyalar, megopolislar. Suburbanizatsiyaning shahar atrofi zonalari, yo'ldosh shaharlarning o'sish jarayoni. Qishloq aholi manzillari tizimi, noishlab chiqarish sohalarida aholi bandligining o'sib borishi, ishsizlik muammolari. Xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari. AQShning dunyo ishlab chiqarish, tovar va kapital eksportidagi hissasi.

Sanoatining yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlanganligi, uning resurslarni tejash va tabiatni muhofaza qilishdagi yuksak vazifalari. Yirik sanoat mintaqalari tavsifi. Agrosanoat majmualarining (ASM) shakllanishi va rivojlanishi, agrobiznes, bosqichma-bosqich ixtisoslashuvning rivojlanganligi. Asosiy qishloq xo'jalik mintaqalari.

## **2. Yaponiyaning iqtisodiy geografik tavsifi**

Yaponiya iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar guruhiga kiradi. Maydonining kattaligi 372ming kv.km.ni tashkil etadi. Maydonining kattaligi jixatidan G'arbiy Evropadagi yirik mamlakatlarga tenglasha oladi. Aholisi-130 mln. kishi(1997). Dunyoning eng yirik aglomiratsiyasidan biri Tokioda 27 mln. aholi yashaydi. Yaponiya ikkinchi jaxon urushidan so'ng iqtisodi rivojlangan yirik markazga aylandi. Yaponiya jaxon sanoat mahsulotining 11% ini beradi. Yaponiya aholisining har 1000 kishisi hisobiga 500ta yengil avtomobil to'g'ri keladi.

Yaponiya - arxipelak davlat to'rt o'rda joylashgan (Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyusyu) va bir qancha mayda orollarni o'z ichiga oladi. Yaponiyaning iqtisodiy-geografik o'rning o'ziga xos xususiyatlaridan biri. Maydonini 3,5 ming.km. ga cho'zilgan va Osiyo-Tinch okeani regionida joylashganligidir. Yaponiya yer po'stining harakatlanish zonasida joylashgan. Shuning uchun tez-tez yer qimirlash va sunami xodisalari bo'lib turadi.

Megapolis Xokkaydoda aholi zichligi 800-1000(1kvadrat km.) yetadi. 1960 yillardan boshlab Yaponiyaning o'zining issiqlik va atom energetikasini, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, neft ximiyasi sanoat ximiyasi tarmoqlarini rivojlantirish hisobiga rivojlangan iqtisodiyotga ega bo'ldi. Po'lat eritish

alyuminiy ishlab chiqarish, neftni qayta ishlash zavodlarining quvvati jixatidan dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Mashinasozlikka katta e'tibor berildi. Natijada avtomobillar, dengiz kemalari ishlab chiqarish bo'yicha jahonda birinchi o'ringa chiqdi. Mikroelektronika, robototexnika (birinchi o'rinda), yangi materiallar biotexnologiya va boshqa tarmoq mahsulotlari ishlab chiqarishdan oldingi o'rinda turadi.

Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiy taraqqiyoti jixatidan jahonda ikkinchi o'rinda turadigan mamlakatdir. Jahon yalpi milliy mahsulotlarining 14 foizi uning hissasiga to'g'ri keladi. 80 - yillar o'rtalaridan boshlab, bu mamlakat jahonda qarz beradigan eng yirik davlat hisoblanadi.

### **3. Germaniyaning iqtisodiy geografik tavsifi**

**GFRning geografik o'rni hududiy chegaralari.** Yagona Germaniyaning paydo bo'lishi. Davlat tuzumi. Dunyo iqtisodiyotida GFRning o'rni.

**Aholisi.** Jahon urushlarining aholi dinamikasi va tarkibiga ta'siri. Ko'chib borganlar oqimi va assimilyatsiyasi, emigratsiya va immigratsiya. Aholi joylashishi va urbanizatsiya xususiyatlari. Reyn-Rur aglomeratsiyasi. Sanoati. Sanoatning asosiy tarmoqlari. Og'ir sanoatning yuqori salmog'i. Mashinasozlikning muhim roli. GFR - dunyoning eng "kimyolashgan" mamlakati. Issiqlik elektro stansiyalarining rivojlanganligi. Asosiy sanoat rayonlari. Qishloq xo'jaligi. Asosiy tarmoqlari. Sut, go'sht-sut yo'nalishidagi chorvachilik. Don xo'jaligi. Yuqori maxsuldorligi ixtisoslashgan ishlab chiqarish turlarining ustunligi. Transport. Transport tarmoqlarining murakkab konfiguratsiyasi. Avtomobil va dengiz transportining yetakchi ahamiyati. Daryo transporti (Reyn). Dunyodagi eng yirik daryo porti. Reyn-Mayn-Dunay trans Yevropa suv yo'li. Yirik transport tugunlari.

Germaniya Respublikasi yuqori darajada rivojlangan industrial respublikadir. Sanoat ishlab chiqarish darjasidan Germaniya AQSH dan ancha orqada, ammo Yaponiya bilan deyarli bir qatorda. Boshqa kapitalistik mamlakatlardan ancha oldinda turadi. Buyuk Britaniya, Yaponiya, Italiya singari mamlakatlar ishlab chiqargan mahsulotlardan ancha ko'p mahsulot ishlab chiqaradi. Shu bilan bir qatorda Germaniya qishloq xo'jaligi ham ancha taraqqiy etgan. Germaniya eng murakkab mahsulotlar-mashinasozlik va sertarmoq kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

### **4. O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari**

Uzbekiston respublikasining tashqi siyosatida AQSH bilan aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1992 yil 15-16 fevral kunlari AQSH davlat kotibi Djeyms Beyker Uzbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Toshkentda birinchi bo'lib AQSHning elchixonasi ochildi. 1993yil 14 sentyabrda AQSH davlat departamentining maxsus topshiriqlar bo'yicha elchisi Strob Talbot Uzbekiston prezidenti bilan hamkorlik qilish masalalarida suhbatlashdi. 1995 yil 6 aprelda AQSH mudofaa vaziri Uilyam Persi O'zbekistonga O'zbekiston respublikasining tashqi siyosatida AQSH bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yildi.



### **TEZKOR SAVOLLAR:**

1. AQSH ning ba'zi rivojlangan, va rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy ta'siri.
2. Dunyo mahsulotlarini ishlab chiqarishda uning o'rnini qanday?



### **TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR**

1. AQSHning jahon xo'jaligida yetakchi o'rnini qanday?
2. Tabiiy sharoitining xilma-xilligiga ta'sir etuvchi omillar nimalar?
3. Tabiiy resurslarning qaysi turlariga boy va ular hudud bo'ylab qanday tarqalgan?
4. Davlat tuzumiga xos xususiyatlar nimadan iborat?
5. Sanoat tarmoqlari, joylashuvining xususiyatlarini izohlang.
6. Qishloq xo'jaligini polyaslar shaklida joylashganligi sabablari nimada?
7. Ichki tafavutlari ta'siri nimalarda o'z aksini topadi?
8. AQSh-O'zbekiston iqtisodiy aloqalari qanday rivojlanmoqda?
9. GFRning tashkil topishi va uning jahon xo'jaligida tutgan o'rnini tariflang?
10. Tabiiy sharoit va resurslarining xo'jalik tabiiy va mexanik o'sishi xususiyatlari?



### **MAVZU YUZASIDAN TEST SAVOLLARI:**

<b>1.</b>	<b>“Shisteyshtz” tushunchasi nimani anglatadi?</b>
A	Qoramolchilik stansiyalari
B	Cho'chqachilik stansiyalari
C	Ot zavodlari
D	Bo'g'uchilik stansiyalari
E	<b>Qo'ychilik stansiyalari</b>
<b>2</b>	<b>Chorvachilikning qaysi tarmoqlari eng mahsuldor hisoblanadi?</b>
A	Qoramolchilik, qo'ychilik
B	Tuyachilik, parrandachilik

C	Yilqichilik, cho'chqachilik
D	Cho'chqachilik, parrandachilik
E	Tuyachilik, qo'ychilik
<b>3</b>	<b>Temir yo'l zichligi deganda nimani tushunasiz?</b>
A	Mamlakatdagi temir yo'llarning umumiy uzunligi
B	Mamlakatlarning temir yo'llarning umumiy uzunligi
C	100 kv km maydonga to'g'ri keladigan temir yo'l uzunligi
D	1000kv km maydonga to'g'ri keladigan temir yo'l uzunligi
E	10 kv km maydonga to'g'ri keladigan temir yo'l uzunligi
<b>4</b>	<b>Tabiiy va sun'iy yo'llar orqali yuk va yo'lovchi tashiydigan transport turi nima deb ataladi?</b>
A	Dengiz transporti
B	Ichki suv transporti
C	Daryo transporti
D	Ko'l transporti
E	Suv transporti
<b>5</b>	<b>Kabotaj yuk mashinasi deganda nimani tushunasiz?</b>
A	Dengizdagi ikki bandargoh orasida yuk tashish
B	Daryodagi ikki bandargoh orasida yuk tashish
C	Bir mamlakat doirasidagi ikki bandargoh orasida yuk tashish
D	Ikki mamlakat orasida yuk tashish
E	Halqaro yuk tashish
<b>6.</b>	<b>Qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar nima deb ataladi?</b>
A	Qishloq xo'jalik yerlari
B	Ekin maydoni
C	Haydaladigan yerlar
D	Sug'oriladigan yerlar
E	Lalmikor yerlar
<b>7.</b>	<b>Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi nimadan iborat?</b>
A	Mexanizatsiyalashtirish
B	Elektrlashtirish
C	Kimyolashtirish
D	Intensivlashtirish
E	Meliorasiya qilish
<b>8.</b>	<b>Quyidagi tarmoqlarning qaysi biri dehqonchilikka tegishli emas?</b>
A	Sabzavotchilik
B	Polizchilik
C	Ipakchilik
D	Bog'dorchilik
E	Donchilik
<b>9.</b>	<b>Kauchuk daraxti asosan qaysi tabiat zonasida o'sadi?</b>
A	Doimiy yashil ekvatorial o'rmonlarda
B	Mavsumiy nam subekvatorial o'rmonlarda
C	Nam tropik o'rmonlarda
D	Quruq tropik o'rmonlarda



E	Igna bargli o'rmonlarda
<b>10.</b>	<b>Texnik jihatdan yaxshi jihozlangan, juda ko'p yo'lovchi va yuk oqimiga ega bo'lgan yo'l nima deb ataladi?</b>
A	Shosse
B	Magistral
C	Tosh yo'l
D	Grunt yo'l
E	Qattiq qoplamli yo'l
<b>11.</b>	<b>Qaysi davlat shakarqamish etishtirish bo'yicha jahonda yetakchi?</b>
A	Braziliya
B	Hindiston
C	Kuba
D	Indoneziya
E	Avstraliya
<b>12.</b>	<b>Qo'ychilik qayerlarda yaxshi rivojlangan?</b>
A	Dasht
B	Chala cho'l
C	Cho'l
D	Tog'lar
E	Hammasida



**ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!**  
**ISBOTLANG!!!**

1-savol: Radio, elektron va robot texnikasining asosiy eksportiyori qaysi mamlakat?

Javob: Yaponiya;

2-savol: Eng yirik halqaro tashkilot qaysi?

Javob: jahon valyuta fondi;

3-savol: Rivojlangan davlatlar dunyo boyliklarining necha foizini ishlab chiqaradi?

Javob: 30 foizini;

4-savol: AQSH, Yaponiya va G'arbiy Yevropa halqaro savdo aylanmasini nechi foizini tashkil etadi?

Javob: 70% ni;

5-savol: Rivojlanyotgan mamlakatlar tashqi savdo aylanmasi dunyoda nechi foizini tashkil etadi ?

Javob: 22.3 % ni

6-savol: Yaponiya xom ashyo va yoqilg'ining necha foizini eksport qiladi?

Javob: 90 %ni;

7-savol: Ilmiy markazlar (parklar) AQSH da qachon paydo bo'lgan?

Javob: 1950 yildan boshlab;

8-savol: Xitoyda hozirgi kunda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM qancha?

Javob: 2460 dollar;

9-savol: Nafta nima?

Javob: Shimoliy Amerika erkin shavdo shartnomasi;

10-savol: OPEK nima?

Javob: Neft eksporti mamlakatlari tashkiloti;



### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. AQSHning jahon xo'jaligida yetakchi o'rni qanday?
2. Tabiiy sharoitining xilma-xilligiga ta'sir etuvchi omillar?
3. AQSh tabiiy resurslarning qaysi turlariga boy va ular hudud bo'ylab qanday tarqalgan?
4. Davlat tuzumiga xos xususiyatlar?
5. GFRning tashkil topishi va uning jahon xo'jaligida tutgan o'rnini ta'riflang?
6. Tabiiy sharoit va resurslarining xo'jalik rivojlanishiga ta'siri qanday?
7. Aholisining tabiiy va mexanik o'sishi xususiyatlari?
8. Asosiy sanoat tarmoqlarining joylashuvi?
9. Germaniyaga iqtisodiy geografik tavsif bering?
10. AQSh iqtisodiy geografik tavsif bering?
11. Yaponiya iqtisodiy geografik tavsif bering?



### **UYGA VAZIFA:**

- 1-topshiriq: AQSh aholisi, mehnat resurslari va bandlik muammolarini izohlang;
- 2-topshiriq: AQSh iqtisodiyotiga umumiy ta'rif bering;
- 3-topshiriq: Germaniya iqtisodiy-geografik joylashuvi va jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni qanday?
- 4-topshiriq: Yaponiyaning iqtisodiyoti haqida nimalarni bilasiz?
- 5-topshiriq: Yaponiya hamda AQSh iqtisodiyotini solishtiring va ular o'rtasidagi farqni izohlang.



### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar:**

1.[4],86-90 b: 2.(5),115-125 b: 3.(12),34-56 b: 4.(21),200-250b: 5.(21),112-190b:.

## 7-AMALIY MASHG'ULOT

### MDH MAMLAKATLARINING IQTISODIY – GEORAFIK TAVSIFI (2soat)

#### **REJA:**

1. Rossiyaning iqtisodiy-geografik tavsifi.
2. Ukrainaning iqtisodiy-geografik tavsifi.
3. Markaziy Osiyo mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi.
4. O'zbekistonning MDH mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari.

**DARSNING MAQSADI:** talabalarga Rossiyaning Ukrainaning, markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekistonning MDH mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari, haqida, tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyo aholisi va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, ko'rgazmali qurollar, foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari

**TAYANCH IBORALAR:** Arxipelag davlat, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari; davlat tuzumi, monarxiya, yuqori darajada urbanizatsiya, megapolis, mikro-elektronika, robot-texnika, biotexnologiya, "sinokansem", moliyaviy markaz, "taraqqiyotga rasmiy yordam".

Federatsiya, xafsizlik strategiyasi, o'zaro iqtisodiy yordam kengashi, oraliq koordinat, transport infrastrukturasi, proporsional rivojlanish; xarbiy iqtisodiy paritet.

# **MDH mamlakatlarning iqtisodiy geografik tavsifi**

## **1. Rossiyaning iqtisodiy geografik tavsifi**

**Rossiyaning geografik o'rnining xususiyatlari.** Tarkibi, davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslarga boyligi, ularning har xilligi va joylanishi.

Aholi soni dinamikasi, tabiiy ko'payishi, milliy tarkibi, joylashish xususiyatlari. Shahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya muammolari. Ishsizlar sonining ortishi. Migratsiya va immigratsiya. Rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayoni. Xo'jaligiga umumiy ta'rifi. Dunyo xo'jaligidagi o'rni. Ishlab chiqarishni joylashtirishdagi keskin nomutanosibliklar. Sanoat asosiy tarmoqlari geografiyasi. Yoqilg'i - energetika, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, o'rmon, yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlarining rivojlanish va joylashish jihatlari. Sanoat rivojlanishidagi bozor munosabatlariga o'tish davri bilan bog'liq bo'lgan muammolar iqtisodiy islohatlar asosida olib borilmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tushkunlikga qaramasdan, Rossiya hozirgi kunda ham kuchli ilmiy texnik potentsialga, juda katta, ammo hali ham foydalanilmay yotgan intellektual resurslarga bo'ydir. Mamlakat aholisining asosiy qismi oiliy ma'lumotli va yuqori madaniy dajaraga egadir. Shunga qaramasdan Rossiyaning xo'jalik mexanizmini butunlayin bozor iqtisodiyoti asosida qayta qurish zarurdir. Buning uchun esa bozorga o'tishning muhim omillarni aniqlab olish va uni yangi sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Rossiyada bozor infrastrukturaning takomillashgan tomonlari-bank tizimi, fond bozorlari, sug'urta institutlari va boshqalar tashkil topmoqda. Bunday amaliy ishlarning qilinishi bilan bir qatorda, Rossiyaning iqtisodiy hayotida tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish sohalari bo'yicha nixoyatida murakkab muammolar haligacha hal qilinmasdan qolmoqda.

## **2. Ukrainaning iqtisodiy-geografik tavsifi**

Ukraina haqida gapirar ekanmiz eng avvalo uning MDH mamlakatlar tarkibiga kirishini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Bugungi kunga Ukraina rivojlanib borayotgan mustaqil davlat hisoblanadi. Uning geografik joylashishiga keladigan bo'lsak, bu davlat Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar bilan chegaradosh hisoblanadi, va bu uning iqtisodiy aloqlarini keng yo'lga qo'yishiga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Shu jumladan Rossiya va Belorusiya bilan keng aloqlar o'rnatgan bo'lib, ularni rivojlantirish har bir davlat uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Ukrainaning poytaxti Kiyev shahri hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Ukraina o'rtasida iqtisodiy aloqlar tobora chuqurlashib bormoqda. Buning yaqqol misoli sifatida Ukraina bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma korxonalarini misol keltirishimiz mumkin. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston eksport qilayotgan mahsulotning asosiy qismini asosan 3 davlatga eksport qiladi bular: Rossiya, Qozog'iston va Ukraina hisoblanadi. O'zbekistonga olib kelinayotgan tovarlarning ham aksariyat qismi ayni mana shu davlat xissasiga to'g'ri keladi. Bugungi kunda bu aloqalarni yanda rivojlantirish uchun katta dasturlar ishlab chiqilib ular hayotga tadbiiq etilmoqda.

### **3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy-geografik tavsifi**

Har bir mamlakat hududining geografik o'rnini uning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'p jihatdan ta'sir qiladi. O'zbekistonning geografik o'rnini o'ziga xos xususiyat va imkoniyatlarga ega.

O'zbekiston Evrosiyo qit'asining qoq markazida joylashgan bo'lib, u Markaziy Osiyo davlatlari (MOD) ning ham geografik markazidir. U shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, sharq va shimoli-sharqda Qirg'iziston, sharq va janubi-sharqda Tojikiston, g'arb va janubi – g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaralanadi.

Odatda joylar, regionlar mamlakatlarining iqtisodiy geografik o'rnini o'rganish, tadqiq va tahlil qilish orqali uning bugungi rivojlanish holatiga baho berish va kelajagi haqida fikr yuritish mumkin. Shu jihatdan O'zbekiston hududining kattaligi va yaxlitligi, qardosh (ya'ni qadim Turon zaminidagi) davlatlarga nisbatan geografik markaz ekanligi va jugrofiy (mintaqaviy) cho'zilganligi yer sirti tuzilishining bir-biriga muvofiq holatda o'rin almashinish (past tekislikning tekislik bilan, tekislikning adirlik, adirliklarning yassi tog'lik va to'liqsimon balandliklar, tog'likning baland tog'liklar bilan almashinishi) regionda ijtimoiy taraqqiyot uchun kattagina imkoniyatlar yaratib bergan.

O'zbekiston hududining o'rnini iqtisodiy geografik jihatdan uch pog'onaga mikro, mezo va makro darajaga bo'lib o'rganish mumkin. Mamlakatimiz hududining MIKRO DARAJADAGI HOLATI uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tutgan o'rnidir. O'zbekistonning MEZO DARAJADAGI O'RNI uning bir muncha kengroq miyosidagi mavqei bilan belgilanadi. Bugungi O'zbekiston jahon hamjamiyatiga dalil kirib bormoqda. Uning bu qutlug' qadamida MOD dan tashqari Kavkazorti davlatlarining, Turkiya, Eron, Afg'onistonning ulushi bor. Afg'oniston orqali Pokiston (va so'ngra Hind okeani) ga Eron va Turkiya orqali Evropaga chiqish ufqlari ochilmoqda.

O'zbekiston MAKRO GEOGRAFIK o'rnini mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bilan olib borilayotgan aloqalarda belgiladi. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan ko'p qirrali aloqalari tarixiy harakat bo'lib, uning mamlakatimiz taraqqiyotidagi salohiyati juda katta.

### **4. Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy-geografik tavsifi**

Hozirgi kunda mintaqada ijtimoiy - iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat katta ma'naviy va madaniy kuch qudratga ega bo'lgan O'zbekiston qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali bugun markaziy Osiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyatini ochadi.

Markaziy Osiyoning yuragi bo'lgan Toshkent, ramziy qilib aytganda, sharq darvozasi hisoblanadi. Ko'pgina xalqaro tashkilotlar buni munosib baholab, o'z vakolatxonalarini va byurolarini aynan Toshkent shahrida ochdi. Bular Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqa ko'plab tashkilotlardir.



### TEZKOR SAVOLLAR:

- 1.MDH tashkiloti va Shanxay hamkorlik tashkilotlari o'xshash va farqli tomonlari nimada?
- 2.Nimaga ShOS tuzilishiga ehtiyoj paydo bo'ldi ?



### TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR

1. Rossiya yangi suveren davlat, uning iqtisodiy axvoli qanday?
2. Geografik o'rnida 3 okean ahamiyati nimadan iborat?
3. Tabiiy sharoiti va resurslari xilma-xilligi mamlakat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Aholi zichligidagi katta tafovut sabablari nimada deb o'ylaysiz?



### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI

<b>1.</b>	<b>Panama kanali qachon qurilgan va qaysi okeanlarni tutashtirib turadi?</b>
<b>A</b>	1914 yili, Atlantika va Tinch okeanlarini
<b>B</b>	1915 yili, Tinch va Hind okeanlarini
<b>C</b>	1916 yili, Atlantika va Hind okeanlarini
<b>D</b>	1914 yili, Atlantika va Hind okeanlarini
<b>E</b>	1914 yili, Tinch va Shimoliy muz okeani
<b>2.</b>	<b>Kemalar turishini, yuklarni tushirish ortish va kemalarga xizmat qilishni ta'minlaydigan inshootlari, qurilmalari va jihozlari bo'lgan okean, dengiz yoki ichki suv havzalaridagi joy nima deb ataladi?</b>
<b>A</b>	Pristan
<b>B</b>	Porto-franko
<b>C</b>	Gavan
<b>D</b>	Buxta
<b>E</b>	Bandargoh
<b>3.</b>	<b>Mamlakat doirasidagi ikki bandargoh orasida yuk tashish nima deb</b>

	<b>ataladi?</b>
<b>A</b>	Bartyer
<b>B</b>	Kabotaj
<b>C</b>	Ichki kabotaj
<b>D</b>	Tashqi kabotaj
<b>E</b>	Katta kabotaj
<b>4.</b>	<b>Kemalardan olinadigan turli xil to'lovlarni hisoblash harakatidagi kemalarni yagona hisobda olib borish maqsadida jahondagi barcha davlatlar tomonidan qanday tushuncha qabul qilingan?</b>
<b>A</b>	Tonna/km
<b>B</b>	Yo'lovchi/km
<b>C</b>	Barter/km
<b>D</b>	Kub/km
<b>E</b>	Registr-tonna
<b>5.</b>	<b>“Fraxt” tushunchasi nimani anglatadi?</b>
<b>A</b>	Suv yo'lida yuk tashilgani uchun to'lanadigan haq
<b>B</b>	Daryo transportida yuk tashilgani uchun to'lanadigan haq
<b>C</b>	Bandargohlarda kemalarni turgani uchun to'lanadigan haq
<b>D</b>	Dengiz yo'lida yuk tashilgani uchun to'lanadigan haq
<b>E</b>	Hammasi to'g'ri
<b>6.</b>	<b>Ko'mir o'rniga qanday tabiiy resurslardan foydalanish mumkin?</b>
<b>A</b>	Shamol, tuproq
<b>B</b>	Suv, gillar
<b>C</b>	Suv, quyosh issiqligi
<b>D</b>	yonuvchi slaneslar, granit
<b>E</b>	uran, marmar
<b>7.</b>	<b>Quyidagi resurslarning qaysi biri tugamaydigan resurslarga kiradi?</b>
<b>A</b>	Quyosh energiyasi, mineral
<b>B</b>	Shamol, tuproq
<b>C</b>	Suv, geotermal
<b>D</b>	O'simlik, mineral
<b>E</b>	Quyosh energiyasi, shamol kuchi
<b>8.</b>	<b>Ma'lum bir hududdagi kishilarning ijtimoiy etnik birligi nima deb ataladi?</b>
<b>A</b>	Qabila
<b>B</b>	Elat
<b>C</b>	Millat
<b>D</b>	Xalq
<b>E</b>	Aholi
<b>9.</b>	<b>Sambolar quyidagi qaysi xalqlarning nikohidan hosil bo'ladi?</b>
<b>A</b>	Hindular-negrlar
<b>B</b>	Hindular – evropoidlar
<b>C</b>	Evropoidlar –hindular
<b>D</b>	Evropoidlar-negroidlar
<b>E</b>	Ispanlar –mangaloidlar

<b>10.</b>	<b>Manfiy migratsiya saldosini nima?</b>
<b>A</b>	Emigratsiyaning kamayishi
<b>B</b>	Migratsiyaning kuchayishi
<b>C</b>	Imigratsiyaning kamayishi
<b>D</b>	Immigratsiyaning emigratsiyadan ustunligi
<b>E</b>	Emigratsiyaning immigratsiyadan ustunligi



**ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!**  
**ISBOTLANG!!!**

1-savol: Ukraina Yevropaning qaysi tomonida joylashgan?

Javob: Ukraina Yevropaning janubi-sharqida joylashgan;

2-savol: Qirg'iziston tuzilishiga ko'ra qanday davlat?

Javob: Agrar industrial davlat;

3-savol: Qirg'izistonda qishloq xo'jaligi uchun yer maydoni mamlakat hududining necha foizini tashkil etadi?

Javob: 50.9 % ni tashkil etadi;

4-savol: Turkmanistonda qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i nima?

Javob: Dehqonchilik;

5-savol: Neft Turkmanistonning qaysi rayonlaridan qazib olinadi?

Javob: G'arbiy rayonlaridan;

6-savol: Qirg'izistonda transportning asosiy turi nima?

Javob: Avtomobil transporti;

7-savol: Ukrainada shahar aholisi umumiy aholining necha foizini tashkil etadi?

Javob: 66.9% ini tashkil etadi;

8-savol: Qirg'izistonning asosiy eksport tovari nima?

Javob: oltin, paxta tolasi, oziq-ovqat, yengil sanoat mahsulotlari, tamaki, metall;

9-savol: Turkmaniston bayrog'ida necha yulduz tasvirlanagan?

Javob: 5 ta;

10-savol: Turkmanistonda turkman tilida so'zlashuvchilar soni qancha?

Javob: 2.5 millionni tashkil etadi;






### NAZORAT SAVOLLAR:

1. Mamlakatlarda aholi bandligi muammolari qanday yechilmoqda?
2. MDH mamlakatlarda sanoatning asosiy tarmoqlarining joylashishi xususiyatlari nimalardan iborat?
3. MDH mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tarmoqlari joylashuviga ta'sir etuvchi omillar nimalar?
4. Rossiya-O'zbekiston aloqalari qanday rivojlanmoqda?
5. MDH mamlakatlarning iqtisodiy salohiyati qanday?
6. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy aloqalari qanday?
7. O'zbekiston Turkmaniston iqtisodiy aloqlari nimda o'z aksini topmoqda?
8. O'zbekiston Qozog'iston iqtisodiy aloqlari qay tarzda rivojlanmoqda?
9. MDH mamlakatlarning dunyo savdo aylanmasidagi ulushi qanday?
10. Dunyo xo'jaligida MDH mamlakatlarning ahamiyati nimalardan iborat?



### UYGA VAZIFA:

- 1-topshiriq: MDH mamlakatlarining iqtisodiy geografik o'rniga qiyosiy baho bering.
- 2-topshiriq: MDH mamlakatlarida zamonaviy sanoat tarmoqlarining rivojlanishi sabablari, joylashuvi qanday omillarga asoslanadi?
- 3-topshiriq: MDH mamlakatlarida qishloq xo'jaligidagi agrar islohotlar nimalarda o'z aksini topmoqda?
- 4-topshiriq: O'zbekiston va u bilan chegaradosh MDH mamlakatlarini xaritaga tushiring.



### TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI:



1. [3], 30-35 betlar;
2. [7], -3bob;
3. [10], 48-56 betlar;
4. [www.minerals.er.usgs.gov](http://www.minerals.er.usgs.gov)
5. [www.unctad.org](http://www.unctad.org)
6. [www.worldbank.com](http://www.worldbank.com)

## 8-AMALIY MASHG'ULOT

### **O'ZBEKISTON JAHON XO'JALIGI TIZIMIDAGI O'RNI. O'ZBEKISTON TABIIY RESURS SALOHIYATI, ULARDAN RATSIONAL FOYDALANISH, MUHOFAZA QILISH VA TAKROR ISHLAB CHIQRISH. (2 soat)**

#### **REJA:**

1. O'zbekistonning makro va mikro o'rniga baho.
2. O'zbekiston - yangi mustaqil davlat.
3. O'zbekiston jahon xo'jaligiga kirib borishi, jahon mamlakatlari bilan o'zaro teng va foydali aloqalarning rivojlanishi.
4. O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi.
5. O'zbekistonning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish

**DARSNING MAQSADI:** O'zbekistonning jahon xo'jaligidagi o'rni, tabiiy resurslari salohiyati va ulardan samarali foydalanishni tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali talabalarning bilim va ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, ko'rgazmali qurollar, foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari

**TAYANCH IBORALAR:** Iqtisodiy salohiyat, yalpi ichki mahsulot, suveren davlat, jahon hamjamiyati, xalqaro tashkilotlar, "buyuk kelajak", besh tamoyil, "O'zbek modeli", Xalqaro hamkorlik. Tabiiy resurs salohiyati, "geologik va sanoat zaxiralari", neft, gaz xavzalari, basseynlari, kar'er, rekultivatsiya.

# **O'ZBEKISTON JAHON XO'JALIGI TIZIMIDAGI O'RNI. O'ZBEKISTON TABIIY RESURS SALOHİYATI, ULARDAN RATSIONAL FOYDALANISH, MUHOFAZA QILISH VA TAKROR ISHLAB CHIQARISH**

## **1.O'zbekistonga makro va mikro baho**

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishi yetakchilik qiladi. U mamlakat iqtisodiy taraqqiyotda muhim o'rin tutib, xalq xo'ligining barcha tarmoqari uchun moddiy-texnika vositalarini to'ovsiz takror ishlab chiqarish manbai sifatida faoliyat ko'rsatadi, iqtisodiy rayonlarning, viloyatlarning, ijtimoiy ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini belgilab beradi hamda moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Agar O'zbekiston sanoatining mustamlakachilik yillarida tarkib topgan holatiga baho beriladigan bo'lsa ikki narsani qayd qilish joiz. Birinchidan eski ittifoq davrida mamlakatimiz hududida og'ir va yengil sanoatning muhim turlari rivojlantirilmagan edi. Jumladan mashinasozlik sanoati (va aynan avtomobil ishlab chiqarish, elektronika va b.) to'qimachilik sanoati (xattoki yetarli xomashyo, arzon ishchi kuchi mavjud bo'lsa ham) rivojlantirilmagan edi. Ikkinchidan esa respublika hududda tashkil qilingan yuzlab asosiy sanoat tarmoqlari ko'zga ko'rinmas ishlar bilan Rossiyaning sanoat korxonalariga bog'lab (ya'ni qaram qilib) qo'yilgan edi.

O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari mavjud. Geografik omillar jumlasiga yer sirtqi tuzilishning holati, iqlimning nisbatan yumshoqligi, tabiiy resurslar (masalan, foydali qazilma: ma'dan (mineral) va yoqilg'i) resurslari, suv resurslari va ular bilan tayominlash darajasi kiradi. Iqtisodiy resurslarga mehnat resurslari, transport va uning rivojlanish holati kiradi. Shuningdek uni rivojlantirishda ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatning sanoati rivojlantirishni shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak uning istiqbolini ko'rish qiyin emas. Mamlakatimiz yer osti boyliklari zaxiralarining ko'p xilma-xilligi, mehnat resursining kattaligi, transport tarmoqlarining yaxshi rivojlanganligi, shuningdek mamlakatda yagona temir yul tizimini yaratish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda barpo qilinayotgan yuzlab qo'shma korxonalar ana shu istiqboldan darak beradi.

## **2. O'zbekiston yangi mustaqil davlat**

Endilikda mustaqil O'zbekiston xalq xo'jaligining muhim sohasi- qishloq xo'jaligida bir tomonlama ish tutishning og'ir asoratini boshdan kechirmoqda. Ayni paytda O'zbekiston qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, unga paxtachilik, bilan birga g'allachilik, sholikorlik, kanopchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va polizchilik, qaramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, yilqichilik, pillachilik sohalari ham kirmoqda. Mazkur tarmoqlar ham o'zaro bog'lanib ketadi.

Respublika aholisining 60% idan ortig'i (ya'ni uning yarmi, ayrim viloyatlarda esa 80% i) qishloqlarda yashaydi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulotlarning 26-26% i milliy daromadning tashkil etadi.

O'zbekistonning geografik o'rni tashqi aloqalar uchun nihoyatda qulay. Bu yerdan qadimiy karvon yo'llari o'tgan. Mamlakatlar o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalarda o'zbek yeri azaldan ko'prik bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston hozir ham

o'zining mustaqil energetika va suvlariga egaligidan mintaqadagi davlatlar o'rtasida ko'p jixatdan bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. O'zbekiston muhim strategik xom ashyo- paxta va undan qayta ishlangan mahsulotlarni eksporti bo'yicha butun dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan xaqli suratda faxrlanadi. Bu erda mashhur Mendeleev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral- xom ashyo potentsiali 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.

### **3. O'zbekiston jahon xo'jaligiga kirib borishi, jahon mamlakatlari bilan o'zaro teng va foydali aloqalarning rivojlanishi**

Hozirgi kunda mintaqada ijtimoiy - iqtisodiy jixatdan eng rivojlangan davlat katta ma'naviy va madaniy kuch qudratga ega bo'lgan O'zbekiston qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali bugun markaziy Osiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyatini ochadi. Markaziy Osiyoning yuragi bo'lgan Toshkent, ramziy qilib aytganda, sharq darvozasi hisoblanadi. Ko'pgina xalqaro tashkilotlar buni munosib baholab, o'z vakolatxonalarini va byurolarini aynan Toshkent shahrida ochdi. Bular Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va boshqa ko'plab tashkilotlardir.

### **4. O'zbekiston jahon xo'jaligiga kirib borishi, jahon mamlakatlari bilan o'zaro teng va foydali aloqalarning rivojlanishi**

G'oyat muhim strategik manbalar - neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha 40 dan ortiq, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha 4, konchilik- kimyo xom ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan.

Qidirib topilgan foydali qazilmalarning hozirgi darajasi va u bilan bog'liq holda qimmatbaho, rangli va nodir metallar, barcha turdagi yoqilg'i zaxiralari - neft va gaz kondensati, tabiiy gaz, ko'pgina mineral xom ashyo va qurilish materiallari xillarining g'oyat boy konlarini o'zlashtirish Respublikaning kelajagiga ishonch bilan qarash imkonini beradi.

Har yili Respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,0-7,0 milliard dollarlik yangi zaxiralar qo'shilmogda. Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, mis, uran, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosforitlar, kaolinlar bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zaxiralar va istiqbolli rudalar jixatidan MDH dagina emas, balki butun dunyoda ham yetakchi o'rinni egallaydi.

## 5. O'zbekistonning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va takror ishlab chiqarish

Bugungi kunda cheklangan resurslar sharoitida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ularni tejab tergab ishlatishga alohida ahamiyatga berilmoqda va bu borada mamlakatimiz miqyosida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda.



### TEZKOR SAVOLLAR:

1. Hozirgi kunda O'zbekistonda tabiiy resurslarga nisbatan munosabatni qanday deb o'ylaysiz?
2. Yanada yaxshi bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak ?



### TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekiston jahon mamlakatlari o'rtasida qaysi sohalar bo'yicha oldingi o'rinlarni egallaydi?
2. O'zbekistonning tabiiy sharoiti xilma-xilligi qanday omillarga bog'liq?
3. O'zbekiston qaysi turdagi tabiiy resurslari bilan jahonda oldingi o'rinda turadi?



### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI

1. "Trauler" nima?  
A Baliq tutaigan kema  
B Neft tashiydigan kema  
C Don tashiydigan kema  
D Yo'lovchi tashiydigan kema  
E Yog'och tashiydigan kema

<p><b>2. Ikki tomonlama avtomobil harakati uchun yariqli bo'lgan keng yo'l nima deb ataladi?</b></p> <p>A Trakt  B Shosse  C Avtostrada  D Qattiq qoplamli yo'l  E Grunt yo'llar</p>
<p><b>3. O'zbekistonda 1996 yil iyul oyida ishga tushgan Asaka avtomobil zavodi qaysi davlat bilan hamkorlikda qurilgan?</b></p> <p>A Koreya Xalq Demokratik Respublikasi  B Janubiy Koreya  C Yaponiya  D Fransiya  E Turkiya</p>
<p><b>4. Qaysi qatorda dunyodagi eng kichik davlat nomi berilgan?</b></p> <p>A Shri-lanka  B Lima  C Vatikan  D Chili  E Katar</p>
<p><b>5. Temir yo'l xom ashyo va yoqilg'i tashishning umumiy yuk aborotining necha % tashkil etadi?</b></p> <p>A 15%  B 10%  C 65%  D 75%  E 54%</p>
<p><b>6. Polsha davlatining poytaxtini toping.</b></p> <p>A Oslo  B Vena  C Dublin  D Sofiya  E Varshava</p>
<p><b>7. Iqtisodiy geografiya o'rniga nisbatan nechaga bo'linadi?</b></p> <p>A 5  B 4  C 2  D 3  E 7</p>
<p><b>8. Qaysi qatorda reforma so'zining ma'nosi to'g'ri izohlangan?</b></p> <p>A Islohot, yangilik kiritish  B Ovoz berish  C Mulk turi  D Iqtisodiyotning bir ko'rinishi  E Moliyaviy tashkilot</p>

**9. Angliyada birinchi paydo bo'lgan sanoat turi?**

- A Avtomobilzozlik
- B Energetika
- C mebel ishlab chiqarish
- D to'qimachilik
- E Kemasozlik

**10. Tabiiy geografik joylashish nima?**

- A Chegaralarga nisbatan joylashish
- V Ayrim mamlakat yoki nuqtaning tabiiy borliqqa nisbatan joylashishi
- S Tabiiy sharoitga ko'ra
- D Iqtisodiy va geografik o'rniga ko'ra
- E Quyoshga nisbatan joylashuv

**ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!**  
**ISBOTLANG!!!**

1-savol: O'zbekiston qaysi MDH davlatlariga eng ko'p eksport qiladi?

Javob: Rossiya, Qozog'iston, Ukraina;

2-savol: O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi asosiy mahsulot nima?

Javob: paxta;

3-savol: O'zbekiston oltin zaxirasi bo'yicha dunyoda nechinchi o'rinda turadi?

Javob: oltin zaxirasi bo'yicha O'zbekiston dunyoda 4-o'rinda turadi;

4-savol: O'zbekiston oltinni qazib chiqarish bo'yicha dunyoda nechinchi o'rinda turadi?

Javob: oltin qazib chiqarish bo'yicha O'zbekiston dunyoda 7-o'rinda turadi;

5-savol: O'zbekiston Respublikasi mis zaxirasi bo'yicha dunyoda nechinchi o'rinda turadi?

Javob: mis zaxirasi bo'yicha O'zbekiston dunyoda 11-o'rinda turadi;

6-savol: Uran zaxirasi bo'yicha O'zbekiston dunyo miqyosida nechinchi o'rinda turadi?

Javob: uran zaxirasi bo'yicha O'zbekiston dunyo miqyosida 8-o'rinda turadi;

7-savol: O'zbekistonda nechta kon mavjudligi aniqlangan?

Javob: 2.7 ming yaqin kon mavjudligi aniqlangan;

8-savol: O'zbekistonda umumiy xom ashyo potentsiali qanchaga baholanmoqda?

Javob: O'zbekistonda umumiy xom ashyo potentsiali 3.3 trillion AQSh dollariga baholanmoqda;

9-savol: O'zbekistonda nechta oltin koni mavjud?

Javob: O'zbekistonda 30 yaqin oltin koni aniqlangan;

10-savol: Har yili respublika konlarida qancha miqdorda foydali qazilmalar qazib olinadi?

Javob: har yili respublikamizda 5.5 milliard dollarlik foydali qazilmalar qazib olinadi.




### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Tabiiy resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?
2. Respublikamizda tabiiy resurslardan foydalanishda atrof-muhit muxofazasi masalalari qay tarzda yechilmoqda?
3. Bugungi kunda O'zbekistonning resurs salohiyati qanday baholanmoqda?
4. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida obro'sining oshib borishini nima bilan izohlash mumkin?
5. O'zbekiston jahon mamlakatlari o'rtasida qaysi sohalar bo'yicha oldingi o'rinlarni egallaydi?
6. O'zbekiston qanday halkaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirgan?
7. O'zbekistonda qanday "makrostrategik dasturlar" amalga oshirilmoqda?
8. "O'zbekiston -buyuk kelajak sari intilmokda"-iboraning mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering.
9. O'zbekistonning eksport salohiyatini izohlan?
10. Mamlakatimiz qaysi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan?



### **UYGA VAZIFA:**

- 1-topshiriq: O'zbekistonda sanoatning qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlangan?
- 2-topshiriq: Bugungi kunda sanoat strukturasi (tarkibidagi) o'zgarishlar nimalardan iborat?
- 3-topshiriq: Sanoatning yirik markazlari va ularning ixtisoslashuvi to'g'risida gapiring?



### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:**



1. [8],56-63 betlar;
2. [4], 63-75 betlar;
3. [16], 113-120 betlar;
4. [www.Review.uz](http://www.Review.uz) – Gorodskoe xozyaystv
5. [www.uz.infokom.ur](http://www.uz.infokom.ur). – Informatsiya statistika



## 9-AMALIY MASHG'ULOT

### **O'ZBEKISTON AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI (2 soat)**

#### **REJA:**

- 9.1. Aholi ishlab chiqaruvchi kuch va iste'molchi sifatida.**
- 9.2. Aholi dinamikasi.**
- 9.3. Aholining milliy, jinsiy, yosh va ijtimoiy tarkibi.**
- 9.4. Shahar va qishloq aholisi.**
- 9.5. Mehnat resurslari va ulardan oqilona foydalanish.**

**DARSNING MAQSADI:** talabalarning, aholi ishlab chiqaruvchi kuch va iste'molchi, aholi dinamikasi, aholining milliy, jinsiy, yosh va ijtimoiy tarkibi, shahar va qishloq aholisi, mehnat resurslari va ulardan oqilona foydalanishni, tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

**TAYANCH IBORALAR:** Aholi dinamikasi, aholi ro'yxati, demografik siyosat, tabiiy va mexanik o'sish, urbanizatsiya, suburbanizatsiya, mehnat resurslari, aholi bandligi, mehnat birjalari.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy- hududiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari xaritasi, foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter va multimedia vositalari.

### **O'ZBEKISTON AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI**

#### **1. Aholi ishlab chiqaruvchi kuch va iste'molchi sifatida**

Aholi birlamchi ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etgan sari uning jamiyatda tutgan o'rni salohiyati ortib va takomillashib boradi. Chunki xalq butun moddiy boyliklarni yaratuvchi kuchgina emas, balki u ma'naviy boyliklarni ham birdan-bir va bitmas-tuganmas manbai hamdir. Demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari va demografik siyosat. Aholining jinsiy va yosh

tarkibi, ularning mehnat resurslariga ta'siri. Iqtisodiy faol aholi. Savodxonlik darajasi. Aholining "sifati".

O'zbekiston - ko'p millatli davlat. Aholi keskin notekis joylashganligi, uning sabab va oqibatlari. Aholining ichki va tashqi migratsiyasi. Eski va yangi sug'oriladigan mintaqalar o'rtasida aholining hududiy qayta taqsimlanishi. Shahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya darajasi va sur'atlari. Qadimgi va yangi shaharlar. qishloqlar joylashuvi. Aholi joylashuvini takomillashtirish va boshqarish muammolari. Demografik salohiyat va aholi muammolari. Bandlikning samarali natijalari va aholini ta'lim darajasi, kasb maxoratini oshirish muammolari.

## **2. Aholi dinamikasi**

O'zbekiston O'rta Osiyodagi aholisi eng ko'p respublika hisoblanadi. O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH da 3-o'rinni egallaydi (Rossiya va Ukrainadan keyin). O'zbekiston aholisi soni - 26,4 mln kishi. Aholisining aynan vohalarda to'planishining sababi – tog', cho'l, adir, iqlimli tabiiy sharoitining o'ziga xosligi. Urbanizatsiya jarayoning rivojlanishi juda ham sust. Bu yerda migratsiya va emigratsiyaning tutgan o'rni unchalik katta emas. O'zbekistondagi ijtimoiy demografik vaziyatga ta'sir etuvchi asosiy omillar bu-jamiyat asosi bo'lmish mustahkam oila, qishloq aholisining, o'lkan salmog'i, o'lish darajasining kamayganligi va o'rtacha yosh ko'paygani. Aholining o'sishi tarixiy-an'anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega. Uzoq va yaqin o'tmishda O'zbekiston murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdiki, bu narsa mamlakat aholisining dinamikasiga hamda demografik va migratsion holatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat aholisi va uning tarkibi, ayniqsa, XIX asrning o'rtalaridan boshlab jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Chor Rossiyaning Turkiston hududining istilo qilishi natijasidan aholi soni, uning milliy va jinsiy tarkibi, ko'payish darajasi, joylashuv xususiyatlari o'zgardi.

XX asrdan boshlab mamlakat aholisining geografik joylashuvidan ham, ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga ko'ra, jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ungacha mamlakat aholisining asosiy qismi Farg'ona va Zarafshon, Qashqadaryo va Surxodaryo vodiylarida hamda Xorazm va Toshkent vohalarida yashagan edi.

## **3. Aholining milliy, jinsiy, yosh va ijtimoiy tarkibi**

Aholining jins-yosh tarkibi bo'yicha 49.5% ni erkaklar, 50.5% ni ayollar, aholi umumiy sonining 40.8% bolalar va o'smirlar tashkil etadi, 28.3% yoshlar, bolalar, o'smirlar va yoshlarning umumiy salmog'i 70% ni tashkil etadi. Respublika aholisining 2/3 qismini tashkil etadi. Aholining jinsiy va yosh tarkibi muhim demografik ko'rsatgich hisoblanadi. Bunda mehnat resursining, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning, nafaqaxo'rlarning hozirgi va kelajakdagi soni ayniqsa, ahamiyatlidir. Mamlakatda aholining jinsiy va yosh tarkibi ham ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ob'yektiv sabablarga ko'ra, o'zgarib turadi.

Respublika aholisi nisbatida ayollar mutloq sonining kamayishi 1990 yillarning oxirida ham davom etadi. Mamlakatimizda tabiiy o'sishning yuqoriligi aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shuning uchun ham aholi nisbatida yosh bolalar va o'smirlarning salmog'i katta. Shunday qilib, aholi yosh tarkibidagi yuqori ko'rsatgichlar mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini

rivojlantirishning istiqbollarini belgilab beradi. Ayni bir paytda MDH tarkibidagi davlatlarda tug'ilishning tobora kamayib borishi va aholining qarib borishi, O'zbekistonda esa, tug'ilish ko'rsatgichlarining yuqoriligi natijasida aholining yasharib borishi kuzatilmoqda.

#### **4. Shahar va qishloq aholisi**

Tabiiyki, shahar aholisining ko'payish darajasi hududning industrilashtirish holati bilan bog'liq holda kechadi. O'zbekistonda XX asrda shahar aholisining salmog'i qator rivojlangan mamlakatlarnikidan orqada qolib ketdi. Faqat mamlakatimizning ayrim regionlarida yirik-yirik sanoat korxonalarining barpo qilinishi, bir qator geografik rayonlarda esa qazib olish va qayta ishlash sanoatining rivojlanishi shahar aholisining birmuncha ko'payib borishiga olib keldi. 1865 yilda shahar aholisi umumiy aholining 14 % ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1927 yilda 21% ga yetdi. Ayni bir paytda qishloq aholisining nisbatida teskari jarayon kechdi. Ya'ni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashning chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarga tayanishi, sug'orishda ilg'or usullarni qo'llash mehnat unumdorligi ortib borishiga olib keldi. Respublikada shahar aholisining ko'payib borishi urbanizatsiya jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Respublikada shahar aholisi keyingi yillarda 2956 ming kishiga ko'paydi. O'rtacha yillik o'sishning nisbiy miqdori 7.2 % ga teng bo'ladi. Respublikaning shahar aholisi nihoyatda notekis joylashgan. Shahar aholisi ishlab chiqaruvchi kuchlar nisbatan yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan regionlarda tez uchraydi.

#### **5. Mehnat resurslari va ulardan oqilona foydalanish**

Mehnat resurslarining o'sib borishi- mamlakat aholisining tabiiy o'sishi hisobiga. O'zbekiston mehnat resurslari 2001 yilda 12.7 mln kishini tashkil etadi. Mamlakat aholisining 50% ni tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarning asosiy qismiga paxta, g'alla, yem-xashak, bo'ladigan ekinlar kiradi. Su'goriladigan yerlar 4 mln gektarni tashkil etadi. Ekin maydonlarining 10% dan kamrog'ini yengil tuproqlar tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarning eng katta maydonlari Farg'ona, Zarafshon vodiylari, Amudaryolarda joylashgan. Yetarli nam saqlaydigan yerlar soz tuproqli soz gil va sho'r tuproqli yerlardan ekin ekish uchun foydalaniladi.



#### **TEZKOR SAVOLLAR:**

1. O'zbekiston mehnat resursining migrasion harakati to'g'risida fikringiz?
2. O'zbekiston aholisining milliy tarkibi qanday?



### TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi soni o'sishi va joylashishdagi ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga ta'rif bering.
2. O'zbekiston aholisining jismoniy va yosh tarkibi xususiyatlari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston- ko'p millatli davlat ekanligi ta'riflang?
4. O'zbekiston aholisining dindiy tarkibi qanday?



### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI

<p><b>1. Toshkent shahri qachondan boshlab O'zbekistonning poytaxti hisoblangan?</b></p> <p>A 1991 yil B 1989 yil C 1990 yil D 1980 yil E 1930 yil</p>
<p><b>2. Toshkent iqtisodiy rayonining rangdor metallurgiya sanoatining yirik markazi bu - . .</b></p> <p>A Zarafshon B Angren C Olmaliq D Ohangaron E Bekobod</p>
<p><b>3. O'zbekiston Respublikasining maydoni qancha ?</b></p> <p>A 474,7 km<sup>2</sup> B 448,9 km<sup>2</sup> C 557,5 km<sup>2</sup> D 447,4 km<sup>2</sup> E 434,3 km<sup>2</sup></p>
<p><b>4. Iqtisodiy geografiya fani nimani o'rganadi ?</b></p> <p>Iqtisodiy geografiya fan sifatida turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi.</p> <p>A kuchlarining rivojlanishi va joylashish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzining hududiy jihatlarini o'rganadi. B Geografiyaning iqtisodiyot bog'liq jihatlarini o'rganadi. C Iqtisodiyotning geografiyaga bog'liq jihatlarini o'rganadi.</p>

D	b va c
E	to'g'ri javob yo'q
<b>5.</b>	<b>O'zbekistonning eng janubida joylashgan, g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh iqt. rayon</b>
A	Toshkent
B	Farg'ona
C	Surxandaryo
D	Qashqadaryo
E	Samarqand
<b>6.</b>	<b>Demografik o'rinda ko'proq nima ahamiyatli?</b>
A	ob'yektning yirik qishloq xo'jalik rayonlariga nisbatan tutgan o'rni
B	aholining zich joylashgan rayonlariga nisbatan tutgan o'rni
C	iqtisodiy aloqalar
D	kelib chiqish tarixi
E	c va d
<b>7.</b>	<b>Hududiy mehnat taqsimoti nimalarni vujudga keltiradi ?</b>
A	hududiy iqtisodiy tizimlarni
B	hududiy ishlab chiqarish majmualarini
C	har xil funksional tipdagi shaharlarni
D	sanoat birlashmalarini
E	to'g'ri javob yo'q
<b>8.</b>	<b>Mahalliy darajadagi taqsimot nima ?</b>
A	Viloyat ichidagi mehnat taqsimoti
B	Rayonlararo taqsimot
C	Jahon mehnat taqsimoti
D	Ma'lum bir guruh yoki tizim ichidagi mamlakatlararo taqsimot
E	to'g'ri javob yo'q
<b>9.</b>	<b>Rayonlashtirishning muhim turlari qaysilar</b>
A	tarixiy, demografik
B	tabiiy – geografik, sotsial – iqtisodiy
C	hududiy, regional, tabiiy
D	hududiy, tarixiy, iqtisodiy
E	to'g'ri javob yo'q
<b>10.</b>	<b>Davlatimizga janubdan chegaradosh bo'lgan davlat qaysi ?</b>
A	Turkmaniston
B	Qazog'iston
C	Tojikiston
D	Afg'oniston
E	Qirg'iziston



**ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!**  
**ISBOTLANG!!!**

1-savol: O'rta Osiyodagi aholisi eng ko'p respublika qaysi?  
Javob: O'zbekiston.

2- savol: O'zbekiston aholisi soni qancha?

Javob: 25.2 mln kishi.

3- savol: O'zbeklar O'zbekistondan tashqari yana qanday mamlakatlarda istiqomat qiladi?

Javob: Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Rossiya, Ukraina, Belarussiya, Litva, Turkiya.

4- savol: Aholi umumiy sonining necha % i bolalar va o'smirlardan iborat?

Javob: 40.8%

5- savol: Respublika aholisining necha qismini o'zbeklar tashkil etadi?

Javob: 2/3

6- savol: Mehnat resurslarining o'sib borishi-...

Javob: Mamlakat aholisining tabiiy o'sishi hisobiga amalgam oshadi.

7- savol: O'rta maxsus ta'lim mutaxassislar soni nechta?

Javob: 1000 kishiga 200 tasi to'g'ri keladi.

8- savol: Lalmikor yerlarning jami maydoni-...

Javob: 6.6 mln hektardan iborat.

9- savol: Lalmi yerlarning eng katta maydonlari qaysi viloyatlarda joylashgan?

Javob: Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Jizzax.

10- savol: O'zbekiston bo'ylab oqib o'tadigan ikkita eng katta suv manbai-..

Javob: Sirdaryo va Amudaryo.



### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Shahar va qishloq aholisi nisbatlarining o'zgarib borishi va hududiy tafavutlar nima sababli kelib chiqadi?
2. Mehnat resurslari, ularning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarda, xalq xo'jaligi tarmoqlarida bandligi qanday?
3. Mehnat resurslarida foydalanish samaradorligini oshirish muammolari nimdan iborat?
4. O'zbekistonda kanallarga alohida e'tibor berilishinig asosiy sababi nimada?
5. O'zbekistondagi eng yirik kanal qayerda va qachon qurilgan?
6. Qum va qumloq tuproqli yerlar maydoni qancha?
7. O'zbekistonda maydoni jihatidan eng katta yerlar-...?

8. O'zbek xalqlari qaysi qabilalar bilan shakllangan?
9. O'zbekistonning jami yer maydoni qancha?
10. O'rta maxsus ta'lim mutaxassislar soni nechta?



#### **UYGA VAZIFA:**

- 1-topshiriq: O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati va uni mamlakat xalq xo'jaligidagi ahamiyatini o'zlashtiring?
- 2-topshiriq: O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishini yozuvsiz xaritada izohlang.
- 3-topshiriq: O'zbekiston agrosanoat majmuasining tarkibini tushuntirib bering?
- 4-topshiriq: Eng muhim dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining zonal joylanishini tasvirlab bering?



#### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:**

1. [9], 81-90 betlar;
2. [13], 136-145 betlar;
3. [11], 189-213 betlar;
4. [www.bearingpoint.ru](http://www.bearingpoint.ru) –Ekonomicheskaya informatsiya
5. [www.uzland.uz](http://www.uzland.uz).

### **10-AMALIY MASHG'ULOT**

#### **O'ZBEKISTON SANOAT GEOGRAFIYASI (2 soat)**

#### **REJA:**

1. Sanoatning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va geografik joylashish xususiyatlari.
2. Yoqilg'i energetika majmui.
3. Metallurgiya majmui.
4. Yengil va oziq-ovqat majmui

**DARSNING MAQSADI:** talabalarning, sanoatning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va geografik joylashish xususiyatlari yoqilg'i energetika majmui metallurgiya majmui, yengil va oziq-ovqat majmui, tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakillantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekiston sanoat xaritasi, foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter va multimedia vositalari.

**TAYANCH IBORALAR:** Sanoat tarkibi, tuzulmasi, asosiy va yordamshi tarmoqlar, undiruvchi, qayta ishlovchi, ko'p metall talab, kam metall talab, energiya talab tarmoqlar, asosiy fondlar, kompleks rivojlanish, sanoat majmuasi, sanoat tuzumlari, sanoat uzellari.

## O'ZBEKISTON SANOAT GEOGRAFIYASI

### 1. Sanoatning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va geografik joylashish xususiyatlari

Sanoatning rivojlanish darajasi va sur'atlari. Tarmoq tizimidagi o'zgarishlarni hozirgi davrdagi tendentsiyalari. Rivojlanishning tabiiy resurs zamini. Yoqilg'i-energetika sanoati joylashuvi. Yoqilg'i balansi. Gaz, neft, ko'mir sanoati - energetikaning asosi. Ularni qazib chiqarishning asosiy rayonlari. Neft va gazni qayta ishlash. Elektroenergetika. Issiqlik energiyasining yetakchiligi. Hidroenergetika. Yirik elektrostantsiyalar. Energiyaning noan'anaviy manbalaridan foydalanish muammolari. Qora metallurgiya va uning joylashishi. Rangli metallurgiya-dunyo ahamiyatiga ega tarmoq. Rangli metallurgiyaning yirik markazlari. Mashinasozlik. Asosiy tarmoqlari; ularning sifatii o'zgarishlari va joylashishi. Avtomobilsozlik yangi rivojlanayotgan tarmoq. Samolyotsozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi va traktorsozlik. Elektroradio texnika va elektronika sanoati, priborsozlik.

### 2. Yoqilg'i energetika majmui

Mamlakat yoqilg'i-energetika majmuining xalq xo'jaligida va ayniqsa iqtisodiy rayonlararo ahamiyati katta bo'lib, u respublika yalpi sanoat mahsulotining beshdan bir qismini ishlab chiqaradi. Mazkur sanoat majmui ikki guruhga: yoqilg'i sanoat va elektr energetika sanoatiga bo'linadi.



Yoqilg'i sanoat yer qa'rida topilgan va qazib olinayotgan ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari negizida shakllangan va rivojlanib bormoqda. Respublikada zaxirasi sanoatda ishlatilishi mumkin bo'lgan darajada hisoblangan 159 ta neft va gaz konlari ochilgan. Ulardan 115 tasi Buxoro-Xiva provintsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Mazkur konlarning gaz, gaz-kondensatli, gaz-neft, neft, gaz-neft kondensatli va neft-gaz kondensatli turlari mavjud. Ularning zaxiralari mustaqillik yillarida chet ellik mutaxassislar bilan hamkorlikda o'rganilmoqda, iqtisodiy jihatdan baholanmoqda, qazib olinmoqda, qayta ishlanmoqda. "Mutaxassislar baholashicha, O'zbekistonning yer ostida juda katta neft va gaz qatlamlari bor. Respublika hududining qariyb 60 foizida ularni istiqbolda qazib olish mumkin. Neft va gaz mavjud bo'lgan beshta asosiy mintaqani ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: USTYURT, BUXORO-XIVA, JANUBI-GARBIY XISOR, SURXONDRYO, FARG'ONA mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zaxiralari bir trillion AQSH dollaridan ziyod baholanmoqda".

### **3. Metallurgiya majmui**

Mamlakat metallurgiya majmui uning og'ir sanoatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u butun sanoat ishlab chiqarishining 13,9 foiz mahsulotini beradi. Ushbu sanoat majmui respublikada tarkib topgan rangli metallurgiya va qora metallurgiya sanoat tarmoqlarini o'z ichiga oladi

**Rangli metallurgiya:** Sanoatning ushbu turining rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu erda qadimda misdan, qalay, kumush va oltindan ularni qayta ishlash (eritish, quyish, qiz-dirish) orqali buyumlar, naqshlar, bezaklar tayyorlash, tanga pullar zarb qilingan.

**Qora metallurgiya:** O'zbekistonda daslabki qora metall ishlab chiqarishga 1940 yillarda asos solingan. 1944 yilda dekabr oyida Bekobod metallurgiya zavodida metall quyish sexi ishga tushgan. 1945 yilning fevralida esa ikkinchi marten pechi, 1949 yilda uchinchi marten pechi qurib ishga tushirilgan. 1962 yilda esa uzluksiz po'lat quyuv qurilmasi ishga tushirilgan. Davr o'tishi va yangi-yangi sexlarning qurilishi bilan Bekobod metallurgiya zavodining ishlab chiqarish quvvati ortib borgan va korxonaning o'zi yirik metallurgiya kombinatga aylangan. Kombinatda tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvati ortib borgan va korxonaning o'zi yirik metallurgiya kombinatiga aylangan. Kombinatda tayyor mahsulotni ishlab chiqarish zigzaksimon ko'rinishga ega. Bekobod metallurgiya kombinati to'liq bo'lmagan siklda ishlaydigan sanoat korxonasidir. Uning asosiy xomashyosi temir-tersak, metall chigitlar bo'lib, mazkur mahsulotlarning mamlakatimizda zaxiralari chegaralangan. Mamlakat qora metallurgiya sanoatini rivojlantirish mustaqil O'zbekiston uchun o'ta dolzarb va hayotiy masaladir.

### **4. Yengil va oziq-ovqat majmui**

O'zbekiston iqtisodiyotida yengil sanoatning ulushi alohida va ko'p qirralidir. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq-ovqat sanoatlari respublika agrosanoat majmui (ASM)ning tarkibiy qismidir. Mamlakat yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial majmui bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik korxonalari, trikotaj va shoyi to'qish, tikuvchilik va chinni-fayans buyumlari va boshqalar bor. O'zbekiston mustaqillik yillarida paxta

maydonlarini yarim mln gektarga kamaytirdi va bu narsa paxta sanoati faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Mustamlakachilik yillarida O'zbekistonda qayta ishlangan paxta tolasining 92-96 foizi faqat Rossiyaga jo'natilar edi. Endilikda vaziyat o'zgardi va paxta tolasini uzoq xorijiy davlatlarga eksport qilish va uning bir qismini o'z hududimizda takror va qayta ishlash imkoniyatlari yaratildi.

**Oziq-ovqat majmui:** O'zbekistonda sanoatning bir turi qadimdan shakllangan va rivojlanish bosqichini davrlar bora o'tagan. Dastlab suv tegirmonlarida un, objuozlarda guruch, juvozlarda o'simlik moyi, novoyxonalarda nonlar tayyorlangan, qandolatchilar turli xil shirinliklar (novvot, kurspechak), uzumdan musallas va suyuqlik ichimlik tayyorlanganlar.

Bugun O'zbekiston halq xo'jaligida oziq-ovqat sanoatining ulushi katta va salohiyati o'zgacha.



### **TEZKOR SAVOLLAR:**

- 1.Sanoatni o'rganishda, "tarmoq-hudud" va "hudud-tarmoq" tushunchalariga munosabatingiz.
- 2.Sanoat tarmog'ining takomillashishi mamlakat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?



### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

<p><b>1. O'zbekiston asosiy eksport mahsulotlari qaysilar ?</b></p> <p>A paxta, meva, sabzavot, ulardan tayyorlangan konservalar</p> <p>B paxta, bug'doy, texnika – texnologiya</p> <p>C paxta, bug'doy, axborot</p> <p>D paxta, bug'doy, kadrlar</p> <p>E noto'g'ri javob yo'q</p>
<p><b>2. O'zbekiston aholi soniga ko'ra Markaziy Osiyoda nechanchi o'rinda turadi ?</b></p> <p>A 1</p> <p>B 2</p> <p>C 3</p> <p>D 4</p> <p>E 5</p>
<p><b>3. Aholi dinamikasi nimaga bog'liq ?</b></p> <p>A Tug'ilish, o'lish va tabiiy o'sishiga</p> <p>B aholining mexanik harakatiga</p> <p>C tabiiy sharoitga</p> <p>D a va b</p> <p>E to'g'ri javob yo'q</p>

4.	<b>Eng yuqori aholi zichligi qaysi viloyatga to'g'ri keladi ?</b>
A	Farg'ona iqtisodiy rayoni
B	Toshkent iqtisodiy rayoni
C	Buxoro viloyati
D	Xorazm viloyati
E	Qoraqalpog'iston A. R.
5.	<b>Urbanizatsiya nima ?</b>
A	aholi sonining birdan o'sib ketishi
B	aholining shaharlashuvi
C	aholining shahardan qishloqqa ko'chishi
D	aholi migratsiyasi
E	s va d
6.	<b>Respublika xalq xo'jaligi tarmoqlariga qaysilar kiradi ?</b>
A	paxtachilik, metallurgiya
B	mashinasozlik va to'qimachilik
C	yoqilg'i energetika – kimyo tarmog'i
D	binokorlik va qurilish sanoati
E	noto'g'ri javob yo'q
7.	<b>O'zbekistonda ko'mir sanoati sohasiga qarashli nechta ko'mir koni mavjud ?</b>
A	30 dan ortiq
B	40 ga yaqin
C	50 dan ortiq
D	50 ga yaqin
E	100 ga yaqin
8.	<b>Qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi defoliantlar ishlab chiqarish qaysi tarmoqqa mos?</b>
A	metallurgiya majmui
B	xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqarish majmui
C	kimyo tarmog'i
D	mashinasozlik tarmog'i
E	to'g'ri javob yo'q
9.	<b>Iqtisodiy rayonlashtirish tizimiga ko'ra respublikamizda nechta iqtisodiy rayon mavjud?</b>
A	5 ta
B	6 ta
C	7 ta
D	8 ta
E	11 ta
10.	<b>Polietilen quvurlar ishlab chiqaradigan Jizzaxdagi kimyo kombinati qaysi iqtisodiy rayonga qarashli?</b>
A	Toshkent
B	Quy Amudaryo
C	Surxandaryo
D	Mirzacho'l
Ye	Qashqadaryo



## **ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!** **ISBOTLANG!!!**

1-savol: Neft va gaz mavjud bo'lgan nechta asosiy mintaq bor?

Javob: 5 TA.

2- savol: Mamlakat metallurgiya majmui uning og'ir sanoatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u butun sanoat ishlab chiqarishining necha % mahsulotini beradi?

Javob: 13,9 foiz.

3- savol: O'zbekistonda daslabki qora metall ishlab chiqarishga nechanchi yillarda asos solingan?

Javob: 1940 yilda.

4- savol: Mashinasozlik sanoatining umumiy qiymati bo'yicha 1- o'rindagi davlat?

Javob : Yaponiya

5- savol: 90- yillarda qaysi davlat kemasozlikda Yaponiyadan o'tib ketdi?

Javob: LYUKSIMFURG

6- savol: Dunyoda yirik aviakosmik sanoatiga ega davlatlar?

Javob: GBRMANIYA

7- savol: Bugungu kunda EHMi shlab chiqarish dunyo bo'yicha qanchadan ortdi?

Javob:50%

8- savol: Samarqanddagi „Sino“ xolodilniklari nechanchi yildan boshlab ishlab chiqarila boshlangan?

Javob: 1992-yildan.

9- savol: Mamlakat metallurgiya majmui uning og'ir sanoatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u butun sanoat ishlab chiqarishining necha foiz mahsulotini beradi?

Javob :13.9 %.

10- savol: O'zbekistonda daslabki qora metall ishlab chiqarishga nechanchi yillarda asos solingan?

Javob :1940 yilda.



### NAZORAT SAVOLLAR:

1. Yangi sanoat markazlari qo'shma korxonalar to'g'risida ma'lumot bering.
2. Sanoat mahsulotlarining jahon standartiga mos holda ishlab chiqarish muammolari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonda qanday metalli foydali qazilmalarning zaxirasi ko'p?
5. O'zbekistonda qanday metalli ko'mir konlari bor? Ularning sifati qanday?
6. Ko'kdumaloq va Mingbuloq neft konlari qaysi viloyatlar hududida joylashgan?
7. Industirlashtirish dastlab sanoatning qaysi tarmog'ida amalga oshirildi?
8. Sanoat tarmoqlarining qaysi biri ko'p material (mablag') talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi?
9. Umumiy ruda yoki yoqilg'i resurslaridan foydalanuvchi va xalq xo'jaligining metallga bo'lgan ehtiyojini ta'minlovchi bir guruh metallurgiya zavodlari nima deb ataladi?
10. Metallarning qaysi biri og'ir metallar guruhini tashkil etadi?



### UYGA VAZIFA:

- 1-topshiriq: O'zbekiston jahon mamlakatlari o'rtasida qaysi sohalar bo'yicha oldingi o'rinlarni egallaydi?
- 2-topshiriq: O'zbekiston qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirgan?
- 3-topshiriq: O'zbekiston qanday "dasturlar" amalga oshirilmoqda?
- 4-topshiriq: "O'zbekiston-buyuk kelajak sari intilmoqda" mazmuni va mohiyatini tushuntirib bering?

### TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:



1. [17], 231-240 betlar;
2. [8], 178-186 betlar;
3. [13], 65-81 betlar;
4. [www.uza.uz](http://www.uza.uz)
5. [www.staility.uz](http://www.staility.uz)

## 11-AMALIY MASHG'ULOT

### **O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIK GEOGRAFIYASI** (2soat)

#### **REJA:**

- 1. Qishloq xo'jaligining ahamiyati, uning yangi islohotlar sharoitida rivojlanish xususiyatlari.**
- 2. Qishloq xo'jaligining tarmoqlari geografiyasi.**
  - a) Dehqonchilik tarmoqlari.**
  - b) Chorvachilik tarmoqlari.**
- 3. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish, va oziq-ovqat muammosini hal etish yo'llari.**

**DARSNING MAQSADI:** talabalarning qishloq xo'jaligining ahamiyati, uning yangi islohotlar sharoitida rivojlanish xususiyatlari, qishloq xo'jaligining tarmoqlari geografiyasi, a) dehqonchilik tarmoqlari, b) Chorvachilik tarmoqlari, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish, va oziq-ovqat muammosini hal etish yo'llarini, tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, Qishloq xo'jaligi xaritasi, fotosuratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari.

**TAYANCH IBORALAR:** Yer fondi, yer fondi tarkibi (strukturasi), obikor, lalmikor, melioratsiya, qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilik shakllari, ko'p ukladli, kooperativ, davlat, xususiy, shaxsiy mulkchilik, dehqon fermer xo'jaliklari, ijara pudrati, shirkatlar uyushmasi, qishloq xo'jaligi korxonalarini "sanatsiya" qilish, yer to'g'risidagi qonunlar, ekin maydonlari strukturasi, "paxta yakka xokimligi", "almashlab ekish", qishloq xo'jalik zonalarini, "muxandislik-hududiy tizim", "fan-tadqiqot-ishlab chiqarish tizimi", agrobiznes, agrosanoat majmuasi.

# O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIK GEOGRAFIYASI

## 1. Qishloq xo'jaligining ahamiyati, uning yangi islohotlar sharoitida rivojlanish xususiyatlari

Respublika qishloq xo'jaligi mamlakat xalq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lib, u aholini oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, moddiy farovonligini oshirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat qishloq xo'jaligi intensiv rivojlangan, texnikalashgan, dehqonchik madaniyatni yuksak darajaga ko'targan ixtisoslashtirishni ichki geografik rayonlararo to'g'ri yo'lga qo'ygan va chuqurlashtirgandir. Biroq O'zbekiston qishloq xo'jaligi yaqin o'tmishda asosan bir tomonlama rivojlantirilgan edi, "O'zbekiston mamlakatning asosiy paxta bazasi shiori amalda edi. Ya'ni, qishloq xo'jaligida bittagina o'zak soha bor edi. U ham bo'lsa paxta edi. Qishloq xo'jaligidagi islohotlar. Yangi turdagi agrar munosabatlarning shakllanishi. Tabiiy resurs zamini. yer fondi va uning tuzilishi. qishloq xo'jalikni rivojlanish darajasi va uning tarmoq tuzilishi. Ko'p tarmoqlarning barakasiz (ekstensiv) xarakteri.

**Ixtisoslashuv.** Mulkchilik shakllari, va korxonalar turi. Sug'oriladigan-yaylov chorvachiligi. Shahar atrofi qishloq xo'jaligi. O'simlikchilik. Ekin maydonlari tuzilishi. Yetakchi tarmoqlar, qoramolchilik, qoraqo'lchilik, ipakchilik. Sug'oriladigan tekislik, cho'l, yaylov, shahar atrofi mintaqalari qishloq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari. qishloq xo'jalik xom-ashyolarini qayta ishlash muammolari. Bozor munosabatlari sharoitida agrar majmuani rivojlanish Shunday qilib O'zbekiston qishloq xo'jaligi chuqur islohotlarni boshida kechirmoqda. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, dehqon (fermer) xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yish kabi muhim masalalar hal etilmoqda. Qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish bilan bog'liq o'nlarcha qonunlar qabul qilindi.

## 2. Qishloq xo'jaligining tarmoqlari geografiyasi:

### a) Dehqonchilik tarmoqlari;

### b) Chorvachilik tarmoqlari

O'zbekiston qishloq xo'jaligi turli xil geografik imkoniyatlarga ega bo'lgan mamlakatlarda yuritiladi. Shu jihatdan geografik olimlar tomonidan mamlakat hududi uchta zonaga bo'lingan:

1. Tog' va tog' oldi zonasi. Zona respublikaning 21,5 %ini o'tloqzorlar bor. Uning tog' oldi qismi va xorikor yerlar bo'lib, unda g'alla va xashaki ekinlar ekish, bog'dorchilik, uzumchilikni rivojlantirish mumkin.

2. Sug'oriladigan zona. U mamlakat hududining 18 %ini qamrab oladi. Mazkur zona Farg'ona vodiysi, Chirchiq-Ohangoran, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Surxan-Sherobod vodiysi, Amudaryoni o'z ichiga oladi. Mazkur sug'oriladigan zonda mamlakatning asosiy qishloq xo'jalik (Dehqonchilik mahsulotlari yetishtiriladi).

3. Cho'l-yaylov zonasi. Uning maydoni mamlakat hududining 60 %idan ko'proqdir. Bu zona mamlakatning qorako'l quylari boqiladigan istiqbolli zonasidir.

**Dehqonchilik.** U O'zbekiston qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i. Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotdagi hissasi 65-70 % ini tashkil qiladi. Mamlakat dehqonchiligi yaqin o'tmishda ekstensiv rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Surxon, Sherobod cho'llari o'zlashtirildi. Yirik-yirik irrigatsiya inshootlari, suv barpo qilindi. Natijada sug'orib dehqonchilik qilish miqyosi muntazam ortib bordi. Bu narsani tamomam sug'orib ekishga asoslanadigan paxta va boshqa ekin maydonlarining osishida ham ko'rish mumkin.

**Chorvachilik.** O'zbekiston chorvachiligi ko'p tarmoqlidir. Shu jihatdan mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirishning regionlar va geografik mintaqalararo farqli jihatlari bor. M, qoramollar (va shu jumladan sog'in sigirlar) sug'oriladigan hamda lalmikor zonalarda, qorako'l qo'ylari cho'l yaylovlarida, histori quylar tog' yonbag'irlaridagi yaylovlarda, mayin jun beradigan echkilar tog'li zonada, parrandalar donkur rayonlarda yaxshi rivojlantirilgan.

Respublika chorvachiligi qishloq xo'jaligining dehqonchilikdan keyin muhim tarkibiy qismi bo'lib, u aholining kundalik go'sht, sut, yog', tuxum va boshqa chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Mustahkam ozuqa bazasini yaratish chorvachilikni rivojlantirish va mul chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham respublikadagi mavjud yaylovzorlar holatini yaxshilash (sug'orish), ozuqabop ekinlar maydonini kengaytirish, paxta yem ishlab chiqarishni ko'paytirish ishlariga katta e'tibor beriladi.

## **2. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish, va oziq-ovqat muammosini hal etish yo'llari**

Qishloq xo'jaligi rivojlangan O'zbekistonda sanoatning bu turi qadimdan shakllangan va rivojlanish bosqichini davrlararo o'tagan. Dastlab suv tegirmonlarida un, objuozlarda guruch, juvozlarfa o'simlik moyi, novvoyxonalarda nonlar tayyorlangan, qandolatchilar turli xil shirinliklar, uzumdan musallas, tariqdan bo'za va boshqa sharbatli va suyuq ichimliklar tayyorlaganlar. Oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmog'i go'sht ishlab chiqarishdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning turli geografik rayonlarida jamoa, davlat, shirkat va fermer xo'jaliklari va tadbirkorlar tomonidan zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan go'sht mahsulotlari va turli kolbasalar ishlab chiqaradigan ko'pgina kombinatlar qurildi. Jumladan, birgina „O'zbekbirlashuv“ tarkibida kolbasa mahsuloti ishlab chiqaradigan 34 ta sex barpo qilindi. Respublika go'sht sanoatida Germaniya va Turkiya firmalari bilan hamkorlikda yarim tayyor go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish, go'shtni qadoqlash, ichak mahsulotlari tayyorlash va ularni o'rab, iste'molga chiqarish ishlari yo'lga qo'yilgan.



### **TEZKOR SAVOLLAR:**

- 1. Agrosanoat geografiyasi va xom ashyo bazasi o'zaro aloqadorligi nimada namoyon bo'ladi.**
- 2. Qishloq infrastrukturasi haqida fikringiz.**





### TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR

1. Qishloq xo'jaligi qanday xususiyatlarga ega?
2. O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining salohiyati qanday?
3. O'zbekiston yer fondi tarkibi boshqa mintaqalardan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
4. O'zbekiston agrosanoat majmuasining tarkibini tushuntirib bering?



### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI

1.	Respublikada kattaligi bo'yicha 3- o'rinda turadigan rayon ?
A	Quyi Amudaryo
B	Surxondaryo
C	Buxoro – Qizilqum
D	Samarqand
E	Mirzacho'l
2.	<b>Sharg'un ko'mir koni qaysi iqt. rayonda joylashgan ?</b>
A	Qashqadaryo
B	Buxoro – Qizilqum
C	Surxondaryo
D	Farg'ona
E	Sharg'un ko'mir Koni O'zbekiston hududida emas
3.	<b>O'zbekiston shimolidagi sholikorlik va chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqqa qaysi?</b>
A	Quyi Amudaryo
B	Samarqand
C	Farg'ona
D	Mirzacho'l
E	Buxoro – Qizilqum
4.	<b>O'zbekiston shimolidagi sholikorlik va chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqqa qaysi?</b>
A	Quyi Amudaryo
B	Samarqand
C	Farg'ona
D	Mirzacho'l
E	Buxoro – Qizilqum

5.	<b>Qaysi iqtisodiy rayonda qorako'lchilik eng taraqqiy etgan ?</b>
A	Quyi Amudaryo
B	Toshkent
C	Mirzacho'l
6.	<b>Polsha davlatining poytaxtini toping.</b>
A	Oslo
B	Vena
C	Dublin
D	Sofiya
E	Varshava
7.	<b>Iqtisodiy geografiya o'ringa nisbatan nechaga bo'linadi?</b>
A	5
B	4
C	2
D	3
E	7
8.	<b>Qaysi qatorda reforma so'zining ma'nosi to'g'ri izohlangan?</b>
A	Islahot, yangilik kiritish
B	Ovoz berish
C	Mulk turi
D	Iqtisodiyotning bir ko'rinishi
E	Moliyaviy tashkilot
9.	<b>Angliyada birinchi paydo bo'lgan sanoat turi?</b>
A	avtomobilzoslik
B	energetika
C	mebel ishlab chiqarish
D	to'qimachilik
E	Kemasozlik
10.	<b>Tabiiy geografik joylashish nima?</b>
A	Chegaralarga nisbatan joylashish
B	Ayrim mamlakat yoki nuqtaning tabiiy borliqqa nisbatan joylashishi
C	Tabiiy sharoitga ko'ra
D	Iqtisodiy va geografik o'rniga ko'ra
E	Quyoshga nisbatan joylashuv



**ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!**  
**ISBOTLANG!!!**

1-savol: Respublikada aholining necha %i qishloqda yashaydi?  
Javob: 60 % i

2- savol: O'zbekiston aholisining qancha qismi qishloq xo'jaligi bilan band?  
Javob: 1/3 qismi

3 savol: Qishloq xo'jaligi mahsulotini eksport qilishda davlat valyutasining necha % i vujudga keladi?

Javob: 50%i

4- savol: Qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish bilan bog'liq nechta qonunlar qabul qilindi?

Javob: 10 larcha.

5- savol: Qishloq xo'jaligining tarmoqlari geografiyasini sanab o'ting?

Javob: Dehqonchilik tarmoqlari, chorvachilik tarmoqlari.

6- savol: Geografik olimlar tomonidan mamlakat hududi nechta zonaga bo'lingan?

Javob: 3 ta.

7- savol: Ular qaysilar?

Javob: Tog' va tog' oldi zonasi, sug'oriladigan zona, cho'l-yaylov zonasi.

8- savol: O'zbekiston qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i?

Javob: Dehqonchilik.

9- savol: Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotdagi hissasi necha %ini tashkil qiladi?

Javob: 65-70 %ini

10- savol: Respublika qishloq xo'jaligida tamoman tovar ahamiyatga ega bo'lgan soha qaysi?

Javob: paxtachilik




### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Eng muhim dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining zonal joylanishini tasvirlab bering?
2. Qishloq xo'jaligida islohotlar qanday kechmoqda?
3. Yangi mulk shakllari to'g'risida tushuncha bering.
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qo'shma korxonalar qurish uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish masalalari qanday kechmoqda?
5. O'zbekiston yer fondining qancha qismini sug'oriladigan yerlar tashkil qiladi?
6. O'zbekistonda g'o'zaning qanday navlari ekiladi?
7. Qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, echkichilik qaysi viloyatlarda rivojlangan?
8. Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi nimadan iborat?
9. Qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar nima deb ataladi?
10. Qishloq xo'jaligini yana rivojlantirishning asosiy yo'lini aniqlang?



### UYGA VAZIFA:

- 1-topshiriq: Agrosanoat majmuasi va agrobiznes tushunchalarining mohiyatini tushuntiring.
- 2-topshiriq: “Ko`k inqilob” va uning mohiyati qanday?
- 3-topshiriq: Ziroatchilik va uning tarmoq tarkibini tushuntiring.
- 4-topshiriq: Chorvachilik va uning tarmoq tarkibini yozuvsiz xaritada izohlang..
- 5-topshiriq: Dunyo mamlakatlarida qishloq xo`jaligi ijtimoiy-iqtisodiy tiplarining xususiyatlarini izohlang?.



### TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:



1. [7],89-97 betlar;
2. [11], 165-179 betlar;
3. [4], 96-125 betlar;
4. [www.Review.uz](http://www.Review.uz) – Gorodskoe xozyaystvo
5. [www.uz.infokom.ur](http://www.uz.infokom.ur). – Informatsiya statistika

## 12-AMALIY MASHG'ULOT

### O'ZBEKISTON TRANSPORT GEOGRAFIYASI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI (2 soat)

#### REJA:

1. Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi.
2. Temir yo'l va avtomobil transporti.
3. Havо, suv va quvur transporti.
4. Tashqi iqtisodiy aloqalari.

**DARSNING MAQSADI:** talabalarning, transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi, temir yo'l va avtomobil transporti, Havo, suv va quvur transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari, tayanch iboralar, test, savol-javoblar, muammoli savollar orqali bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, "Transport xaritasi", foto suratlar, tarqatma materiallar, kompyuter multimedia vositalari.

**TAYANCH IBORALAR:** qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilik shakllari, ko'p ukladli, kooperativ, davlat, xususiy, shaxsiy mulkchilik, dexqon fermer xo'jaliklari, ijara pudrati, shirkatlar uyushmasi, qishloq xo'jaligi korxonalarini "sanatsiya" qilish, yer to'g'risidagi qonunlar, ekin maydonlari strukturasi, "paxta yakka xokimligi", "almashlab ekish", avtomobil transporti, quvur transporti, avtomobil yo'llari uzunligi, "temir yo'l transporti,

## O'ZBEKISTON TRANSPORT GEOGRAFIYASI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI

### 1. Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi

**Transport.** Transport tarmoqlarining shakllanishi, rivojlanishi va joylashishidagi iqtisodiy-geografik xususiyatlar. Transportning aloxida turlarida yuk tashish tuzilmasi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi. Turli yuklarni tashishning asosiy yo'nalishlari. Navoiy-Uchquduk-Sultonovays tog', Nukus; Guzor-Boysun-Qumqurg'on yo'nalishidagi yangi temir yo'llar loyixasi va qurilishi. Stambul-Toshkent-Shanxay (Tejen-Saraxs-Mashxad yangi yo'nalishi bo'yicha) va Toshkent-Ashgabad-Turkmanboshi-Boku-Tbilisi-Poti (port); Andijon, Uch-Qashqar (Xitoy) yangi transport yo'lagidan utuvshi tranzit temir yo'l transportining rivojlanishi.

**Avtomobil transporti.** Avtomobil yo'llarining uzunligi. Avtomobil yo'llari tarmoqlari konfiguratsiyasi. Asosiy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (Angren-Kukon; Toshkent-Termiz va b.). Qamchiq davonidan o'tuvchi (Toshkent-Ush avtomagistrali) tunnel qurilishining ahamiyati. quvur transporti, va uning ahamiyati. Xavo transporti. Doimiy ichki va halqaro havo yo'llari tarmog'ining rivojlanishi. Yangi aeroportlar qurilishi. Xorijiy samolyotlar hisobiga avtoparklarning kengayishi, ularni ishlatish samaradorligini ortishi. Asosiy energotizimlarga tavsif. Infrastruktura.

Infrastrukturalarning mohiyati va tarkibi. Infrastrukturalarni xo'jalikni hududiy tuzilishiga ta'siri. Ijtimoiy, iqtisodiy va bozor infrastrukturalari geografiyasining xususiyatlari. Radio, tele, sputnik aloqalarning rivojlanishi, O'zbekistonning "Internet" tizimiga kirishi. Suv va gaz ta'minotining mintaqaviy tizimi. qishloq joylarda ijtimoiy infrastrukturalarni rivojlantirish muammolari.tahlil qilinadi.

## **2. Temir yo'l va avtomobil transporti**

Temir yo'l transporti xalqaro yuk va yo'lovchi aylanmasida hissasi qisqarib borayotganligiga qaramay muhim transport vositasi bo'lib qolmoqda va sezilarli ravishda sifat o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Dunyo bo'yicha temir yo'llarning umumiy uzunligi 1.2 mln km bo'lib buning 200 ming km elektrlashtirilgandir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda temir yo'llarni elektrlashtirish, monorelsli va magnit osilmali yo'llar qurish davom etmoqda. Avtomobil transporti muhim ichki transport tarmog'idir. Avtomobil transportining rivojlanish holati ma'muriy rayonlar taraqqiyotida g'oyat muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yer sirti tuzilishining murakkabligi, ya'ni uning xalq xo'jaligi tig'iz rivojlangan hududlarida tog'lik, yassi tog'liklarning mavjudligi bir tomondan, temir yo'l transportini rivojlantirishni tabiiy ravishda chegaralagan, ikkinchi tomondan esa, avtomobil transportini rivojlantirishni taqozo qilgan. Bugungi O'zbekiston xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil transportiga ega. Tosh yo'llarining umumiy uzunligi 86 ming km dan ortiq. Shundan qattiq qoplamali yo'llar 75 ming km.

## **3. Havo, suv va quvur transporti**

Mamlakatimizning ichki va tashqi aloqalarida havo transportining ahamiyati ayniqsa, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga chuqur kirib borishi bilan dolzarblik kasb qilmoqda. „O'zbekistonning havo yo'llari“ aviokompaniyasi xilma-xil tipdagi havo transporti vositalariga ega. Mamlakatimiz yo'lovchi aylanmasi harakatida havo, transporti vositalariga ega. Mamlakatimiz yo'lovchi aylanmasi harakatida havo transportinign salmog'I 9.3 % ni egallaydi. Uning ayniqsa, uzoq xorijiy davlatlar bilan aloqalarini rivojlantirishga ahamiyati tobora oshib bormoqda.

**Suv transporti** rayonlararo va halqaro ahamiyatga ega bo'lib, halq xo'jaligi yuklarini tashish hamda Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar uchun xizmat qiladi. Respublika suv transporti salohiyati Amudaryoning ulushi katta. Shuning uchun ham birinchi marta 1950 yilda Amudaryoning nisbatan boshlang'ich qism Suxondaryo viloyati hududida Termiz daryo porti tashkil rtilgan.

**Quvur transporti** tez rivojlanib bormoqda va mamlakat neft hamda gaz sanoatining rivojlanishi, aholini ichimlik suvi bilan to'la ta'minlash bo'yicha katta istiqbolga ega. Umuman quvur transporti mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib, u sanoat korxonalarini va xo'jaliklarni, aholi manzilgohlari va shaharlarni tabiiy gaz va chuchuk suv bilan ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

## **4. Tashqi iqtisodiy aloqalari**

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida yangi strategiya ishlab chiqilib, unda eksportning xomashyoviy yo'nalishini bartaraf etish hamda xorijiy investitsiyalar

oqimi kengayishiga ko'maklashish kabi yo'nalishlar belgilab olindi. Mamlakatda tashi iqtisodiy aloqalar tizimi, ularni yo'lga qo'yishdagi asosiy tamoyillar ishlab chiqildi. Shunday qilib, mamlakatimiz tashqi aloqasi, savdo geografiyasi juda kengayib bormoqda. O'zbekiston barcha qit'alarda joylashgan davlatlar bilan keng qamrovli savdo-sotiq aloqalarini olib bormoqda.

**Maqsadimiz:** O'zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada chuqurroq o'rganish. Uning tarmoqlari bilan tanishish yangi takliflar va mulohazalar kiritish. Transportning va tashqi iqtisodiy aloqalarning sekin rivojlanayotgan sohalarni chuqurroq o'rganish, sabablarini topishdir va O'zbekistonda transporti va tashqi iqtisodiy aloqalarning hozirgi salohiyati tahlil qilish. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari bizning mamlakatimizdagi asosiy sohalardan biri hisoblanadi. Bu soha rivoji bizning iqtisodiy-ijtimoiy hayot tarzimizga ta'sir ko'rsatadi.



#### **TEZKOR SAVOLLAR:**

1. O'zbekistonda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, qanday avtomagistral yo'llarini bilasiz?
2. Ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni nimadan iborat deb o'ylaysiz.



#### **TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR**

1. O'zbekiston transport tarmoqlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlarini tushuntirib bering?
2. Mustaqillik yillarida transport tarkibidagi o'zgarishlar.
3. O'zbekistonda transport tarmog'ini rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar haqida nimalar bilasiz?



#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

- |   |
|---|
| <p>1. <b>Mirzacho'l iqt. rayoniga qaysi viloyatlar kiradi ?</b><br/>A Navoiy, Samarqand<br/>V Jizzax, Xorazm<br/>S Navoiy ,Buxoro</p> |
|---|

D	Sirdaryo, Samarqand
E	Sirdaryo, Jizzax
2.	<b>1930 yilda Respublikada qanday o'zgarish ro'y berdi ?</b>
A	10 ta okrug tashkil qilindi
V	poytaxt Toshkentga ko'chirildi
S	O'zbekiston SSR Konstitutsiyasini qabul qildi
D	Qashqadaryo viloyati tashkil etildi
E	respublika hududida 7 ta viloyat tashkil qilindi
3.	<b>Shimolda Qozog'iston respublikasi, sharqda Samarqand iqtisodiy rayoni bilan chegaradosh rayon.</b>
A	Buxoro-Qizilqum
V	Surxondaryo
S	Quyi Amudaryo
D	Mirzacho'l
E	Qashqadaryo
4.	<b>Sabzavot va kartoshka yetishtirish bo'yicha qaysi rayon respublikada yetakchi?</b>
A	Farg'ona
V	Qashqadaryo
S	Toshkent
D	Samarqand
E	Mirzacho'l
5.	<b>Qaysi iqtisodiy rayonda qorako'lchilik eng taraqqiy etgan ?</b>
A	Quyi Amudaryo
B	Toshkent
C	Mirzacho'l
6.	<b>Polsha davlatining poytaxtini toping.</b>
A	Oslo
B	Vena
C	Dublin
D	Sofiya
E	Varshava
7.	<b>Iqtisodiy geografiya o'ringa nisbatan nechaga bo'linadi?</b>
A	5
B	4
C	2
D	3
E	7
8.	<b>Qaysi qatorda reforma so'zining ma'nosi to'g'ri izohlangan?</b>
A	Islohot, yangilik kiritish
B	Ovoz berish
C	Mulk turi
D	Iqtisodiyotning bir ko'rinishi
E	Moliyaviy tashkilot
9.	<b>Angliyada birinchi paydo bo'lgan sanoat turi?</b>



A	avtomobilzozlik
B	energetika
C	mebel ishlab chiqarish
D	to'qimachilik
E	Kemasozlik
10.	<b>Tabiiy geografik joylashish nima?</b>
A	Chegaralarga nisbatan joylashish
B	Ayrim mamlakat yoki nuqtaning tabiiy borliqqa nisbatan joylashishi
C	Tabiiy sharoitga ko'ra
D	Iqtisodiy va georafik o'rniga ko'ra
E	Quyoshga nisbatan joylashuv



## **ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!** **ISBOTLANG!!!**

1-savol: Mamlakatimizda qachon birinchi temir yo'l o'tkazilgan?

Javob: 1886-1888 yillar

2- savol: . Dunyo bo'yicha temir yo'llarning umumiy uzunligi necha mln km?

Javob: 1.2mln km.

3- savol: Mamlakatimiz yo'lovchi aylanmasi harakatida havo transportining salmog'i necha % ni egallaydi?

Javob: 9.3% ni.

4- savol: O'zbekistonda bugungi kunda nechta vagon temir yo'llarda xizmat qilyapdi?

Javob: 50 mingdan ortiq.

5- savol: O'zbekistonda qanday aviakompaniya xizmat ko'rsatmoqda?

Javob: O'zbekiston havo yo'llari.

6- savol: Tashqi aylanmaning MDH mamlakatlaridagi salmog'i qancha foizni tashkil etadi?

Javob: 28.6 % ni.

7- savol: O'zbekiston eksportining asosiy mahsuloti nima?

Javob: Paxta.

8- savol: Qaysi avtomobil yo'li orqali Xitoyga chiqish mumkin?

Javob: Andijon-Osh-Ergashtom-Kashkar

9- savol: Hozirgi kunda mamlakatimizda nechta aeroport bor.

Javob: 12 ta.

10- savol: O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 1997-yilda qanchaga ortdi?  
Javob: 8.9 mln dollar.



### NAZORAT SAVOLLAR:

1. "Buyuk Ipak yo'li" mohiyatini tushuntiring.
2. Yangi xalqaro temir va avtomobil yo'llari qurilishining ahamiyati nimada?
3. Yangi xalqaro havo yo'llari o'zlashtirilishi, aeroportlar qurilishini ahamiyati nimada?
4. O'zbekistonning bugungi kundagi eksport salohiyati qanday deb o'ylaysiz?
5. O'zbekistonning bugungi kundagi import salohiyati qanday deb o'ylaysiz?
6. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari qanday?
7. Bizning mamlakatimizda qaysi transportning roli katta?
8. O'zbekistonda qaysi sohalarga ko'proq investitsiya kiritiladi?
9. O'zbekistonda nechta yo'nalishda samalyotlar qatnaydi?
10. Tashqi aylanmaning xorijiy mamlakatlardagi salmog'i qancha?



### UYGA VAZIFA:

- 1-topshiriq: Dunyo xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimotidagi yangi jarayonlari qanday?
- 2-topshiriq: Iqtisodiyotning umumiy tarmoq tarkibi tushunchasini izohlang.
- 3-topshiriq: BMT tamoyillari bo'yicha dunyo mamlakatlarning guruhlarini yozuvsiz xaritada ifodalang?.

### TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:



1. [17], 136-149 betlar;
2. [3], 215-230 betlar;
3. [5], -3 bob;
4. [www.bearingpoint.ru](http://www.bearingpoint.ru) –Ekonomicheskaya informatsiya
5. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz) – Informatsiya
6. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – RespublikaUzbekistan

## 13-AMALIY MASHG'ULOT

### **O'ZBEKISTONNING IQTISODIY – GEOGRAFIK RAYONLARI VA YIRIK TABIIY – IQTISODIY MINTAQALARI (2 soat)**

#### **REJA:**

- 1. Iqtisodiy rayonlashtirish maqsadi.**
- 2. Iqtisodiy geografik rayonlarining asosiy ko'rsatkichlari.**
- 3. Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga tavsif.**

**DARSNING MAQSADI:** talabalarning iqtisodiy rayonlashtirish maqsadi, iqtisodiy geografik rayonlarining asosiy ko'rsatkichlari Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga tavsifi, O'zbekistonni tabiiy-iqtisodiy zonalarga (mintaqaviy) bo'lish, ular rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

**DARS JIHOZLARI:** Dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritalari, O'zbekistonning ma'muriy-hududiy va iqtisodiy xaritalari, Iqtisodiy rayonlashtirish xaritalari, fotosuratlar, tarqatma materiallar, kompyuter va multimedia vositalari.

**TAYANCH IBORALAR:** Ma'muriy-hududiy birlik, mikro, mezo, makro iqtisodiy rayonlar, zonalar, hududiy ishlab-chiqarish majmuasi, infra-tuzilma.

### **O'ZBEKISTONNING IQTISODIY – GEOGRAFIK RAYONLARI VA YIRIK TABIIY– IQTISODIY MINTAQALARI**

#### **1. Iqtisodiy rayonlashtirish maqsadi**

**Iqtisodiy rayonlashtirishning maqsadi.** Rayonlashtirish nazariyasining rivojlanishi. "Rayon", "zona", "areal" tushunchalari. Iqtisodiy geografik rayon majmuasi va dinamik tushuncha ekanligi. Rayonlashtirishning differentsial,

strukturaviy va funksional turlari. Iqtisodiy-geografik rayonlarning asosiy ko'rsatkichlari. Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga tavsif. O'zbekistonni tabiiy-iqtisodiy zonalarga (mintaqaviy) bo'lish. "Zona" tushunchasi "rayon"ga nisbatan hududiy guruhlashning yuqori tartibi ekanligi. Tabiiy-iqtisodiy zonalarga ajratishning tamoyillari (printsiplari). O'zbekistonning sug'oriladigan tekislik, cho'l-tekislik, tog' oldi va tog' zonalariga bo'linishi, ular rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

## **2. Iqtisodiy geografik rayonlarining asosiy ko'rsatkichlari**

O'zbekiston respublikasi mintaqalari tarixiy rivojlanish xususiyatlari turlicha bo'lganligi, tabiiy sharoitlar va tabiiy boyliklarni, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirish va rivojlantirish xususiyatlarini nazarda tutib, bir-biridan farq qiladi, ular o'rtasidagi farq tarmoqlararo ishlab chiqarish majmualarining turlari hamda miqyoslari bilan ifodalanadi. Tarmoqlararo ishlab chiqarish majmualarining tashkil topishiga, rivojlanishiga hamda joylanishiga qarab, respublikada ichki iqtisodiy loyihalar vujudga keldi. Bu loyihalardan har biri muayyan ishlab chiqarish tarmoqlariga moslab ixtisoslashtirilmoqda. Respublikaning har bir iqtisodiy loyihasining o'ziga xos xususiyatlari bor, ular iqtisodiy, tarixiy va tabiiy omillar bilan ta'riflanishi mumkin. Iqtisodiy loyihalar ichida viloyatlarning ma'muriy chegaralariga to'g'ri keladigan kichik loyihalar ajralib turadi.

## **3. Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga tavsif. Toshkent iqtisodiy rayoni**

Toshkent iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Toshkent viloyatidan iborat bo'lib, uning maydoni 15.6 ming km<sup>2</sup> aholisi 4 mln 298 ming kishidir.

**Iqtisodiy-jug'rofiy o'rnining xususiyatlari.** Toshkent iqtisodiy rayoni O'zbekistonning shimoli-sharqiy qismida, G'arbiy Tyanshan tog'lari bilan Sirdaryoning o'rta oqimi oralig'ida joylashgan bo'lib, u qadimda xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilgan. Iqtisodiy rayon Sirdaryo hamda uning irmog'lari-Chirchiq va Ohangaron vodiylarini egallaydi. Uning iqtisodiy-jug'rofiy o'rnini juda qulay. Bu qulaylik Toshkent shahrining Respublika poytaxtligi, shuningdek, O'zbekistonninggina emas, balki butun O'rta Osiyoning eng yirik sanoat, madaniyat markazi ekanligi bilan bog'liq. Iqtisodiy rayon Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l va Janubiy Qozog'iston tekisliklari oralig'ida joylashgan. Bu rayonlar bilan qo'shnilik shu jihatdan ham qulayki, ularning hammasi yirik qishloq xo'jalik rayonlari va sanoat uchun muhim resurs manbalari hisoblanadi. Umuman Toshkent iqtisodiy rayoni turli tabiiy resurslarga boy.

**Mirzacho'l iqtisodiy rayoni.** Mirzacho'l hududiy- ishlab chiqarish majmui yoki iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan ikkita viloyat-Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridan iborat bo'lib, maydoni 25.6 ming km<sup>2</sup> aholisi 1 mln 362 ming kishi. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni yangi yerlarni o'zlashtirish asosida tarkib topgan bo'lib, respublika maydonining 5.7% ini aholisining 6.5% ini tashkil qiladi. U asosan qishloq xo'jalik ishlab chiqarish xususiyatiga ega, sanoat jihatdan ha tez rivojlanayotgan hududiy- ishlab chiqarish majmuidir. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni hududida bir qator foydali qazilma konlari ham topilgan: rangdor metallar. Unda

xilma-xil qurilish materiallari sanoati xom ashyolari, ayniqsa, shag'al, qum, gips, ohaktosh juda ko'p. Mirzacho'l iqtisodiy rayonida 1 mln 362 ming kishi yashaydi. Respublika iqtisodiy rayonlari aholisining soni bo'yicha Mirzacho'l faqat Surxandaryo rayonidan oldindadir. Mirzacho'l hududiy-ishlab chiqarish majmuida qurilish materiallari sanoati ancha yaxshi taraqqiy etgan. Bu esa iqtisodiy rayon iqtisodiy oti ehtiyojlaridan kelib chiqqan qonuniy natijasidir. Chunki Mirzacho'l iqtisodiy rayoni o'zlashtirish borasida zarur bo'ladigan irrigatsiya inshootlari qurishda ham, sanoat korxonalarini va uy-joylar qurilishida ham ko'plab xilma-xil qurilish materiallari talab qilinadi.

**Far'ona iqtisodiy rayoni.** Far'ona iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarini birlashtiradi. Maydoni 19.2ming km<sup>2</sup> aholisi 5 mln 579 ming kishi. Respublika hududining atigi 4.3% ini egallagan bu rayonda O'zbekiston aholisining 26.9% yashaydi. U xo'jalik jihatdan respublikaning eng rivojlangan hududiy- ishlab chiqarish majmualari qatoriga kiradi. O'zbekistonda ishlab chiqariladigan yalpi sanoat mahsulotini ¼ qismi, qishloq xo'jalik mahsulotini 24.9% shu jumladan, paxtaning 27.0% xom ipakning 44.5% ana shu rayon xissasiga to'g'ri keladi. Farg'ona iqtisodiy rayoni hamma tomondan tog' tizmalari bilan o'ralgan bo'lib, faqat g'arbda uncha katta bo'lmagan yo'lak orqali Mirzacho'l tekisligi bilan qo'shilgan. Farg'ona vodiysida tabiiy va iqtisodiy sharoitning nisbatan qulayligi, bu yerda qadimda Buyuk ipak yo'li'otganligi natijasida unda qishloq xo'jaligi, savdo, hunarmadnchilik yaxshi rivojlangan.

**Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni.** Qoraqalpog'iston respublikasi va Xorazm viloyatini o'z ichiga oladi maydoni 170.1 ming km<sup>2</sup> iqtisodiy rayon respublikaning shimoli-g'arbiy chekkasida joylashgan. U o'z maydoni jihatdan eng katta bo'lib, respublika hududining 38% tashkil qiladi. Aholisi 2283.9 ming kishi. Qoraqalpog'iston respublikasi va Xorazm viloyatini bir iqtisodiy rayonga birlashishiga ularning umumiy iqtisodiy- jug'rofiy o'rni, xo'jalik ixtisosi, rivojlanish istiqbollari kabi omillar sabab bo'lgan. Quyi Amudaryo rayoni Orol dengizining janubida Qizilqum cho'lining g'arbida va Ustyurt platosining sharqiy qismida joylashgan.



**TEZKOR SAVOLLAR:**

**1. Ayrim iqtisodiy rayonlar 2 yoki 3 viloyatdan iborat, iqtisodiy rayonlashtirishda nega bunday yondashilgan javobingizni izohlang?**



## TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHI UCHUN SAVOLLAR

1. “Iqtisodiy rayon” mazmunini va ahamiyatini talqin qilib bering?.
2. Iqtisodiy rayonlar qanaqa turlarga bo’linadi? Asosiy pog’onalari?
3. O’zbekistondagi iqtisodiy rayonlar to’grisida viloyatlar bo’yicha tahlil qiling?
4. Iqtisodiy rayhon tushunchasi qachondan fanga kirib keldi nima uchun?
5. Mintaqalar bir-biriga qanday ta’sir ko’rsatadi?



## MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI

<b>1.</b>	<b>Farg’ona iqtisodiy rayonida eng taraqqiy etgan tarmoq qaysi ?</b>
<b>A</b>	paxtachilik
<b>V</b>	pillachilik
<b>S</b>	mashinasozlik
<b>D</b>	kimyo sanoati
<b>E</b>	qishloq xo’jaligi
<b>2.</b>	<b>Zomin tog’ – o’rmon qo’riqxonasi qaysi iqtisodiy rayon tarkibiga kiradi ?</b>
<b>A</b>	Farg’ona
<b>V</b>	Buxoro – Qizilqum
<b>S</b>	Samarqanq
<b>D</b>	Mirzacho’l
<b>E</b>	Qashqadaryo
<b>3.</b>	<b>Pilla yalpi hosili jihatidan Respublikada birinchi o’rinda turadigan iqt. rayon ?</b>
<b>A</b>	Samarqand
<b>V</b>	Farg’ona
<b>S</b>	Buxoro – Qizilqum
<b>D</b>	Surxondaryo
<b>E</b>	Mirzacho’l
<b>4.</b>	<b>Qaysi iqt. rayon deyarli hamma tomonlari bilan tog’tizmalari bilan o’ralgan ?</b>
<b>A</b>	Surxondaryo
<b>V</b>	Quy Amudaryo
<b>S</b>	Farg’ona
<b>D</b>	Buxoro – Qizilqum
<b>E</b>	Toshkent

<b>5.</b>	<b>Respublikada kattaligi bo'yicha 3- o'rinda turadigan rayon ?</b>
<b>A</b>	Quyil Amudaryo
<b>V</b>	Surxondaryo
<b>S</b>	Buxoro – Qizilqum
<b>D</b>	Samarqand
<b>E</b>	Mirzacho'l

**ANIQ SAVOLLARGA ANIQ JAVOBLAR!**  
**ISBOTLANG!!!**

**1-SAVOL:** O'zbekiston iqtisodiy geografik rayonlari nechta?

Javob: 8 ta.

**2-SAVOL:** Patachilik qaysi iqtisodiy rayonda shakllangan?

Javob: hammasida.

**3-SAVOL:** Toshkentda tabiiy boyliklardan nimalar yo'q?

Javob: Neft va Gaz.

**4-SAVOL:** Toshkent iqtisodiy rayonning maydoni qancha?

Javob: 30ming gektardan ortiq.

**5-SAVOL:** Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayoni qaysi viloyatda joylashgan?

Javob: Sirdaryo va Jizzax.

**6-SAVOL:** Mirzacho'l rayonining aholisi necha % ni o'zbeklarni tashkil etadi?

Javob: 72%i.

**7-SAVOL:** Farg'ona viloyati respublikamizda yetishtiriladigan paxtaning necha %ini yetishtiradi?

Javob: 25% i

**8-SAVOL:** Qaysi iqtisodiy rayon maydoni jihatdan birinchi o'rinda turadi?

Javob: Quyil Amudaryo iqtisodiy rayoni.

**9-SAVOL:** Orol dengizi qaysi iqtisodiy rayonda joylashgan?

Javob: Quyil Amudaryo iqtisodiy rayonda.

**10-SAVOL:** Quyil Amudaryo iqtisodiy rayoniga nechta viloyat kiradi?

Javob: 2 ta.



### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Iqtisodiy rayonlarga ajratish belgilari (kriteriyalar)ni gapirib bering?
2. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlarga bo'linishi?
3. Ayrim iqtisodiy rayonlar tasnifi?
4. Toshkent rayonining tekislik qismi dengiz satxidan qancha balandlikda joylashgan?
5. Miirzacho'l iqtisodiy rayoni o'z tarkibiga qaysi viloyatlarni oladi?
6. farg'ona iqtisodiy rayoni qaysi viloyatlarni o'z ichiga oladi?
7. Mirzacho'l iqtisodiy geografik rayoni nechanchi asrda o'zlashtirilgan?
8. Farg'ona viloyatiga Gaz va Ko'mir qayerdan keladi?
9. Aholisi bo'yicha barcha viloyatlardan oldinda turadigan viloyatni toping?
10. Toshkent iqtisodiy rayonida nechta shahar va shaharcha bor?



### **UYGA VAZIFA:**

- 1-topshiriq: O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi va tashqil topishini jadvalda ifodalang?
- 2-topshiriq: O'zbekistonning tabiiy resurs salohiyati va uni mamlakat xalq xo'jaligidagi ahamiyatini tahlil qling?
- 3-topshiriq: O'zbekistondagi iqtisodiy rayonlarni yozuvsiz xaritada ifodalang?


### **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:**



1. [7], 236-250 betlar;
2. [10], 125-138 betlar;
3. Novosti Uzbekistana – [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
4. [www.review.uz](http://www.review.uz) – Городское хозяйство



# O'ZBEKISTON IQTISODIY – GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISH



# FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI

## **O'zbekiston Respublikasi Prezident asarlari**

1. Karimov I.A.. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maxkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. “Halq so'zi”, 2007 y. 31-avgust.
2. Karimov I.A.. “2006 yilda respublikani ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruza” “Halq so'zi”, 14 fevral, 2007 y.
3. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustaqkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. “Halq so'zi” gazetasi, 2006 yil 11 fevral.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005, - 92 b.

## **Darsliklar:**

1. Abirqulov K.N. Iqtisodiy geografiya T.: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2004. – 262 b.
2. Alekseev V.S. Ekologiya: Uchebnoe posobie. – M.: Izdatelstvo RIOR, 2005. – 160 s.
3. Jumaev T. Ekologiya iqtisodiyoti. – T., 2004,-280 b.
4. Ergashev A. Ekologiya. -T.: O'zbekiston, 2003,- 457 b.
5. Ro'ziev A., Abirqulov Q.N. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi T., «Sharq» nashriyoti,2003,--115b.
6. Soliev A., Ahmedov A., Muhamadaliev R. Mintaqa iqtisodiyoti. T.,O'zMU, 2004.
7. Передельский Л.В., Коробкин В.И., Приходченко О.Ю. Экология: Учебник. – М.: Проспект, 2006. – 512с.
8. Степановских А.С. Прикладная экология. Охрана окружающей среды. – М.: ЮНИТИ-DANA, 2003. -350с.

## **O'quv qo'llanmalar:**

1. Mualliflar guruhi. O'zbekistonda biznes keyslar: O'zbekiston Respublikasidagi biznes ta'limotida “Keys-Stadi” uslubining qo'llanishi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya, 2006, - 645 b.
2. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Karimov N.Q. Umumiy tahriri ostida. – T.: TDIU, 2006, – 280 b.
3. Karimov N.Q, Jumaev T.J., Hoshimov Z.Y., Islomov A.A. Ekologik menejment. – T.: TDIU, 2005. – 268 b.
4. Егоренко Л.И., Кочуров Б.И. Геоэкология: Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2005. – 320 с.

5. Экономика Узбекистана: Статистические ежегодники за 2005, 2006, 2007 гг.

**Internet saytlari:**

1. [www.bp.com](http://www.bp.com) - *Dannoe The Statistical Review of World Energy*
2. [www.cia.gov/cia/publications/factbook](http://www.cia.gov/cia/publications/factbook) - *Central Intelligence Agency, USA*  
(*Vsemirnaya kniga faktov*).
3. [www.copper.org](http://www.copper.org) - *Dannoe Copper deploment Association Inc.*
4. [www.unep.org](http://www.unep.org) – *Программа ООН по окружающей среды.*
5. [www.cia.gov/cia/pub-s/factbook](http://www.cia.gov/cia/pub-s/factbook)
6. [www.copper.org](http://www.copper.org)
7. [www.minerals.er.usgs.gov](http://www.minerals.er.usgs.gov)
8. [www.unctad.org](http://www.unctad.org)
9. [www.worldbank.com](http://www.worldbank.com)

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-mashg'ulot. Iqtisodiy geografiya fanining predmeti, tadqiqot uslublari va vazifalari.....	6
2-mashg'ulot. Hozirgi zamon dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi.....	13
3-mashg'ulot. Dunyo aholisi geografiyasi.....	22
4-mashg'ulot. Dunyo xo'jaligi geografiyasi.....	30
5-mashg'ulot. Ba'zi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi.....	37
6-mashg'ulot. MDH mamlakatlarining iqtisodiy-geografik tavsifi.....	44
7-mashg'ulot. O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rni.....	51
8-mashg'ulot. O'zbekistonning tabiiy resurslar salohiyati.....	58
9-mashg'ulot. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari, ular bandligi muammolari.....	65
10-mashg'ulot. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari, ular bandligi muammolari.....	71
11-mashg'ulot. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi.....	78
12-mashg'ulot. O'zbekiston transporti, infrastruktura, tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi.....	84
13-mashg'ulot. O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va yirik tabiiy-iqtisodiy intaqalari.....	89
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.....	98



